| TN2                    | Kompyuter yordamida har qanday muammoni hal qilish bosqichlari. Model va uning turlari. Modellashtirish. Obyektlarni ifodalash vositalari.                                                                                                                                |
| TN3                    | Masalalarni kompyuterda echishning algoritmlash bosqichi. Algoritm tushunchasi. Algoritmning asosiy xossalari. Algoritmni ifodalash usullari. Dasturlash tillari va ularni tasniflash. Algoritmning asosiy turlari.                                                       |
|                        | <b>Ko'nikmalar jihatidan:</b>                                                                                                                                                                                                                                             |
| TN4                    | Chiziqli algoritmlar. Tarmoqlanuvchi algoritmlar. Takrorlanuvchi algoritmlar. Aralash (kombinatsiyalashgan) algoritmlar                                                                                                                                                   |
| TN5                    | Dasturlash tillari. Python dasturlash tilini o'rnatish. Python dasturlash tilida xatoliklar bilan ishlash. Python dasturlash tilining imkoniyatlari. Python dasturlash tili sintaksisi. Python dasturlash tilida izohlar. Ko'p qatorli izohlar                            |
| TN6                    | Pythonda dastur yozish qoidalari, O'zgaruvchilar, ma'lumotlar turlari, Arifmetik amallar, Mantiqiy tip, mantiqiy ifodalar va solishtirish belgilari, Funktsiyalar, Lokal va global o'zgaruvchilar, Modullar Istinolarni boshqarish                                        |
| TN7                    | Python tili sintaksisi, asosiy operatorlari, Bir nechta maxsus holatlar, O'zgaruvchilar, Operatorlar va ifodalar.                                                                                                                                                         |
| TN8                    | Python dasturlash tilida ma'lumot turini aniqlash. Ma'lumot turlarini o'rnatish. Aniq ma'lumot turini o'rnatish. Python dasturlash tilida sonlar. Int (butun sonlar). Float (haqiqiy sonlar). Complex (kompleks sonlar). Sonlarni o'girish. Tasodifiy son (random moduli) |

Fan mazmuni

Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)

|     |                                                          |
|-----|----------------------------------------------------------|
| M1  | "Amaliy dasturlash" faniga kirish.                       |
| M2  | Algoritm turlari va tasvirlash usullari                  |
| M3  | Dastur va dasturlash haqida                              |
| M4  | Python dasturlash tili asoslari                          |
| M5  | Python dasturlash tili alfaviti va ma'lumot turlari      |
| M6  | Python dasturlash tilida satrlar                         |
| M7  | Python dasturlash tilida ma'lumot to'plamlari va turlari |
| M8  | Python dasturlash tilida Tuple (Kortej)                  |
| M9  | Python dasturlash tilida Set (to'plam)                   |
| M10 | Python dasturlash tilida Dictionary                      |



| Mashg'ulotlar shakli: amaliy mashg'ulotlar (A) |                                                                       |  |
|------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------|--|
| A1                                             | Mantiqiy amallar va ifodalar bilan ishlash.                           |  |
| A2                                             | Chiziqli algoritmlar.                                                 |  |
| A3                                             | Tarmoqlanuvchi algoritmlar.                                           |  |
| A4                                             | Takrorlanuvchi algoritmlar.                                           |  |
| A5                                             | Aralash algoritmlar.                                                  |  |
| A6                                             | Pythonda o'zgaruvchilarni tavsiflash.                                 |  |
| A7                                             | Pythonda arifmetik amallarni bajarish.                                |  |
| A8                                             | Pythonda satrlar bilan ishlash.                                       |  |
| A9                                             | Pythonda operator va ifodalar.                                        |  |
| A10                                            | Pythonda sodda masalalarni dasturlash.                                |  |
| A11                                            | Pythonda mantiqiy masalalarni dasturlash.                             |  |
| A12                                            | Pythonda tarmoqlanuvchi algoritmlarni dasturlash If...else operatori. |  |
| A13                                            | Pythonda tarmoqlanuvchi algoritmlarni dasturlash elif operatori.      |  |
| A14                                            | Python da shartli tanlash algoritmlariga dastur tuzish                |  |
| A15                                            | Pythonda takrorlanuvchi algoritmlarni dasturlash for operatori.       |  |
| A16                                            | Pythonda sodda API yaratish. Telegram bot yaratish                    |  |
| A17                                            | Pythonda Tkinter dasturlash. Vidjetlar bilan ishlash                  |  |
| A18                                            | Pythonda Tkinter Button ("Tugma"), Checkbutton yaratish               |  |
| A19                                            | Pythonda Tkinter Canvas bilan ishlash.                                |  |
| A20                                            | Pythonda Tkinter Entry ("Kirish"), Frame, Label                       |  |

| Mashg'ulotlar shakli: Mustaqil ta'lim (MT) |                                                             |   |
|--------------------------------------------|-------------------------------------------------------------|---|
| MT1                                        | Raqamli qurilmalarda mantiq asoslari                        | 3 |
| MT 2                                       | Masalalarni kompyuterda yechish bosqichlari                 | 3 |
| MT 3                                       | Algoritm tushunchasi va uning xossalari                     | 3 |
| MT 4                                       | Algoritm turlari va tasvirlash usullari                     | 3 |
| MT 5                                       | Dastur va dasturlash haqida                                 | 3 |
| MT 6                                       | Python dasturlash tilida o'zgaruvchilar                     | 3 |
| MT 7                                       | Python dasturlash tilida operatorlar                        | 3 |
| MT 8                                       | Pyhon dasturlash tilida ma'lumot turlari                    | 3 |
| MT 9                                       | Python dasturlash tilida satrlar                            | 3 |
| MT 10                                      | Python dasturlash tilida satrlarni formatlash.              | 3 |
| MT 11                                      | Python dasturlash\ tilida ma'lumot to'plamlari va turlari   | 3 |
| MT 12                                      | Python dasturlash tilida Tuple (Kortej)                     | 3 |
| MT 13                                      | Python dasturlash tilida Set (to'plam)                      | 3 |
| MT 14                                      | Python dasturlash tilida Dictionary (lug'at)                | 3 |
| MT 15                                      | Python dasturlash tilida mantiq elementlari va operatorlari | 3 |

|       |                                                                               |    |
|-------|-------------------------------------------------------------------------------|----|
| MT 16 | Python dasturlash tilida shart operatorlari va turlari.                       | 3  |
| MT 17 | Python dasturlash tilida Print operatori.                                     | 3  |
| MT 18 | Python dasturlash tilida F string operatori                                   | 3  |
| MT 19 | Python dasturlash tilida If operatori                                         | 3  |
| MT 20 | Python dasturlash tilida If va else operatorlarini birga qo'llash             | 3  |
| MT 21 | Python dasturlash tilida Elif operatorini qo'llanishi.                        | 3  |
| MT 22 | Python dasturlash tilida For operatori                                        | 3  |
| MT 23 | Python dasturlash tilida While operatori                                      | 3  |
| MT 24 | Python dasturlash tilida Range operatori.                                     | 3  |
| MT 25 | Python dasturlash tilida Ro'yhat elementlarini tanlash                        | 3  |
| MT 26 | Python dasturlash tilida Fayllarni ochish va yopish operatorlari              | 3  |
| MT 27 | Python dasturlash tilida Matnli fayllar. Matnli fayllarga ma'lumotlar yozish. | 3  |
| MT 28 | Python dasturlash tilida Fayllarni o'qish.                                    | 3  |
| MT 29 | Python dasturlash tilida Satrlar bilan ishlash.                               | 3  |
| MT 30 | Python dasturlash tilida Klass va obyektlar bilan ishlash.                    | 3  |
| Jami  |                                                                               | 90 |

| Asosiy adabiyotlar     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |  |
|------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--|
| 1.                     | Sh.A. Mengliyev, O.A. Abdug'aniev, S.Q. Shonazarov, D. Sh. To'rayev Python dasturlash tili. (O'quv qo'llanma). 2021. 158 bet                                                                                                                                                                         |  |
| 2.                     | Ibragimov A, Python asoslari, (O'quv qo'llanma). 2019. 112 bet                                                                                                                                                                                                                                       |  |
| 3.                     | Kenjaboev A.T., Ikramov M.M., Allanazarov A.Sh. Axborot -kommunikatsiya texnologiyalari. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashryoti, 2017 yil. – 408 bet                                                                                                                         |  |
| 4.                     | Шыныбеков Д.А., Ускенбаева Р.К. Сербин В.В., Дузбаев Н.Т., Молдагулова А.Н., Дуйсебекова К.С., Сатыбалдиева Р.Ж., Хасенова Г.И., Урмашев Б. Информационнокоммуникационные технологии. 1-е изд. Учебник. "Издание АО - Международный университет информационных технологий". Алматы, 2017. - 559 стр. |  |
| 5.                     | Misty E. Vermaat, Susan L. Sebok, Steven M. Freund, Jennifer T. Campbell, Mark Frydenberg. Discovering Computers: Tools, Apps, Devices, and the Impact of Technology (textbook). Cengage Learning. 20 Channel Center Street. Boston, MA 02210. USA, 2016 year. – 691 pages                           |  |
| Qo'shimcha adabiyotlar |                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |  |
| 1.                     | Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021. – 52 b.                                                                                                                                                                                    |  |
| 2.                     | Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezigulik va bunyodkorlik-milliy g'oyamizning                                                                                                                                                                                                                        |  |



|                           |                                                                                                                                                                                                                                                             |
|---------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                           | poydevoridir. Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021. – 36 b.                                                                                                                                                                                               |
| 3.                        | Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – 416 b.                                                                                                                                              |
| 4.                        | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5696 son Farmoni.                                                |
| 5.                        | O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagi "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-187-son qarori.                                                                  |
| 6.                        | Вишневецкий В.Ю., Старченко И.Б., Ледяева В.С. Работа с Microsoft Office 2016: Access, Visio. Методическое руководство к выполнению лабораторных работ по курсу «Информационные технологии». – Ростов-на-Дону: Изд-во ЮФУ, 2016. – 39 с. (Elektron resurs). |
| 7.                        | Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. "Toshkent, "Tasvir" nashriyot uyi, 2021. – 52 b.                                                                                                                                           |
| <b>Axborot manbaalari</b> |                                                                                                                                                                                                                                                             |
| 1.                        | www.lex.uz                                                                                                                                                                                                                                                  |
| 2.                        | https://archive.org                                                                                                                                                                                                                                         |
| 3.                        | www.wikipedia                                                                                                                                                                                                                                               |
| 4.                        | https://t.me/GENT_GPT_UZ_bot GENT_AI_UZ                                                                                                                                                                                                                     |
| 5.                        | ChatGPTBot   Midjourney                                                                                                                                                                                                                                     |
| 6.                        | https://t.me/GPT4_Chat_neiroBot                                                                                                                                                                                                                             |
| 7.                        | Чат с YandexGPT   Yandex Foundation Models                                                                                                                                                                                                                  |
| 8.                        | https://chatgpt.org/ru/chat ChatGPT на Русском                                                                                                                                                                                                              |

**Talabani fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:**

**a) 5 baho olish uchun talabani bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:**

- fanning mohiyati va mazmunini to'liq yoritib olsa;
- fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo'l qo'ymas;
- fan bo'yicha mavzu materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa;
- fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olsa;

- berilgan savollarga aniq va lo'nda javob bera olsa;
  - konspektga puxta tayyorlangan bo'lsa;
  - mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa;
  - fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy-xuquqiy xujjatlarni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa;
  - fanga tegishli mavzulardan biri bo'yicha ilmiy maqola chop ettirgan bo'lsa;
  - tarixiy jarayonlarni sharxlay bilsa;
- b) 4 baho olish uchun talabani bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:**

- fanning mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'ymas;
- fanning mazmunini amaliy ahamiyatini tushungan bo'lsa;
- fan bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o'quv dasturi doirasida bajarsa;
- fan bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob bera olsa;
- fan bo'yicha konspektini puxta shakllantirgan bo'lsa;
- fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa;
- fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy xujjatlarni o'zlashtirgan bo'lsa.

**d) 3 baho olish uchun talabani bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:**

- fan haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa;
- fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilmas;
- bayon qilish ravon bolmasa;
- fan bo'yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa;
- fan bo'yicha matn puxta shakllantirilmagan bo'lsa.

**e) quyidagi hollarda talabani bilim darajasi qoniqarsiz 2 baho bilan baholanishi mumkin:**

- fan bo'yicha mashg'ulotlarga tayorgarlik korilmagan bo'lsa;
- fan bo'yicha mashg'ulotlarga doir hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa;
- fan bo'yicha matnlarni boshqalardan ko'chirib olganligi sezilib tursa;
- fan bo'yicha matnda jiddiy xato va chalkashliklarga yo'l qoyilgan bo'lsa;
- fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa;
- fanni bilmasa.

**Fan o'qituvchisi haqida ma'lumot**

|                    |                                                                                                                                                                                                                                                      |
|--------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Mualliflar:</b> | <b>L.U.Safarova</b> – SamDVMCHBU, "Axborot texnologiyalari, tabiiy va aniq fanlar" kafedrasida dotsenti texnika fanlari nomzodi (PhD)<br><b>S.T.Ravshanov</b> – SamDVMCHBU, "Axborot texnologiyalari, tabiiy va aniq fanlar" kafedrasida assistenti. |
|--------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|

|               |                                                                                                                                                                                                                                              |
|---------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| E-mail:       | safarova.lola@gmail.com                                                                                                                                                                                                                      |
| Tashkilot:    | Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Axborot texnologiyalari, tabiiy va aniq fanlar" kafedrası                                                                                         |
| Taqrizchilar: | M.X.Abduraxmonov – O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti "Informatika" kafedrası (PhD) dotsenti<br>A.E.Rashidov – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti "Sun'iy intellekt va axborot tizimlari" kafedrası mudiri, PhD |

Mazkur Sillabus universitet o'quv-uslubiy Kengashning 2025 yil 25 06 dagi 8 sonli yig'ilishi bayoni bilan tasdiqlangan.

Mazkur Sillabus "Axborot texnologiyalari, tabiiy va aniq fanlar" kafedrasining 2025 yil 31 05 dagi 10 sonli yig'ilishi bayoni bilan maqullangan.

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

Fakultet dekani

Kafedra mudiri

Tuzuvchilar

 Sh. Qurbonov  
 E. Berdimuratov  
 L. Safarova  
 L. Safarova  
 S. Ravshanov



### **III. Fanning asosiy o‘quv materiallari.**

# Ma'ruza mashg'ulotlari uchun o'quv materiallari

## 1-mavzu. Amaliy dasturlash faniga kirish.

### Reja.

- 1.1. Mantiq asoslari.
- 1.2. Mantiqiy amallar va ifodalar.
- 1.3. Mantiqiy ifodalarning rostlik jadvalini tuzish.
- 1.4. Mantiqiy sxemalar

### 1.1. Mantiq asoslari.

Mantiq o'zining shakllanish va rivojlanish tarixiga ega. Mantiq masalalari dastlab Parmenid, eleylik Zeno va Geraklit ta'limotida u yoki bu darajada ko'rib chiqilgan. Mantiqqa oid fikrlar, tafakkur shakllari va usullari to'g'risidagi dastlabki ta'limotlar qadimgi Sharq mamlakatlari, xususan, Hindiston va Xitoyda vujudga kelgan bo'lsa-da, qadimda mantiq falsafaning tarkibida bo'lgan, mustaqil fan sifatida shakllanmagan. Qadimgi Yunon mutafakkirlari tomonidan yaratilgan ta'limotlar zamonaviy mantiqning asosi hisoblanadi.


Mantiq ilmining alohida fan sifatida shakllanishi miloddan avvalgi IV asrda yashab o'tgan buyuk yunon olimi Arastu (Aristotel) ismi bilan bog'liq. U birinchi bo'lib mantiq ilmi o'rganadigan masalalar doirasini aniqladi, mantiqqa "ma'lum bilimlardan noma'lum bilimlarni aniqlovchi", "chin fikrni xato fikrdan ajratuvchi" fan sifatida ta'rif berdi. Olim birinchi marta mantiqiy tafakkur shakllarini uning mazmunidan ajratib, mantiq va matematikani uyg'unlashtirishga harakat qildi, dalillar nazariyasiga asos soldi. Formal mantiq ilmining asoslari hamda mantiq jarayonini turli matematik belgilar bilan ifodalashga intilish ham Arastu asarlarida ko'zga tashlanadi. Markaziy osiyolik alloma Abu Nasr Forobiy Arastuning umumiy formal mantiqqa oid qarashlariga tayangan holda mantiq fanini shakllantira olgan.

Kundalik hayotda mantiq atamasi "fikrlar mantig'i", "gap mantig'i", "xatti-harakat mantig'i", "narsalar mantig'i", "voqealar mantig'i" kabi jumalarda fikrni ifodalash maqsadida qo'llaniladi. Mantiq tafakkurning namoyon bo'lish shakllari va taraqqiyotini, shu jumladan, fikrlar o'rtasidagi aloqadorlikni ko'rsatadigan qonun-qoidalar yig'indisini o'rganadi. Hozirda mantiqning formal mantiq, dialektik mantiq va matematik mantiq kabi yo'nalishlari mavjud.

**Mantiq(logika)** atamasi qadimgi yunoncha λογικός – "fikrlash ilmi" atamasiga mos keladi va "so'z", "fikir", "mulohaza", "nutq", "aql" degan ma'nolarni anglatib, bilish jarayoni bilan uzviy bog'liqdir. Mantiqning o'rganish obyektni tafakkurtashkil etadi.


- **Formal** mantiq statik voqelikga oid bo'lib, tafakkur strukturasini fikrning aniq mazmuni va taraqqiyotidan chetlashgan holda, nisbatan mustaqil ravishda o'rganadi. Uning diqqat markazida muhokamani to'g'ri qurish bilan bog'liq qoida va mantiqiy amallar yotadi.
- **Dialektik** mantiqdinamik voqelikga oid bo'lib, tafakkurni uning mazmuni va shakliyaxlitligi hamda rivojlanishi orqali o'rganadi.
- **Matematik mantiq** tafakkurni matematik usullar yordamida tadqiq etadi. U hozirgi zamon matematikasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.





Masalan. Alining yoshi Valining yoshidan katta. Ra'ning yoshi esa Valining yoshidan kichik. Xulosa Alining yoshi Ra'ning yoshidan katta. Mantiqning boshlang'ich tushunchalaridan biri mulohaza tushunchasidir.

Mulohaza deganda, rost yoki yolg'onligi haqida fikr yuritish mumkin bo'lgan darak gapni tushunamiz. So'roq va undov gapli ta'riflar ham mulohaza bo'la olmaydi. Masalan, "2 ga bo'linuvchi songa juft son deyiladi", degan ta'rif mulohaza bo'la olmaydi. Ammo "agar butun son 2 ga bo'linsa, u holda bu son juft son bo'ladi", degan darak gap mulohaza bo'ladi. Bu mulohaza – rost.



Mulohazalar narsa yoki obyektlarning xususiyatlarini, tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarni haqqoniy (to'g'ri) aks ettirsa, rost, aksincha, haqiqatga zid, noto'g'ri bayon qilsa, yolg'on mulohaza bo'ladi. Har qanday mulohaza rost yoki yolg'on bo'ladi. Hech birmulohaza bir vaqtning o'zida ham rost, ham yolg'on bo'la olmaydi. Masalan, "7 < 5", "A – unli harf", "11 – tub son", "kompyuter XVI asrning oxirida ixtiro qilingan", "Covid-19 virusi inson uchun xavfli emas" mulohazalarining birinchisi – yolg'on, ikkinchisi va uchinchisi – rost, to'rtinchi va beshinchisi esa yolg'on mulohazalardir.

Mulohazaning qiymati deganda, biz uning rost yoki yolg'onligini tushunishimiz kerak. Har bir mulohaza faqat bitta: "rost" yoki "yolg'on" mantiqiy qiymatga ega bo'ladi! Mantiqiy o'zgaruvchideganda, istalgan mulohazani anglatuvchi, "rost" yoki "yolg'on" mantiqiy qiymatni qabul qilishi mumkin bo'lgan o'zgaruvchilar tushuniladi. Qulaylik uchun "rost" yoki "yolg'on" mantiqiy qiymatlarni belgilash usullarini keltirib o'tamiz:

|                |   |      |       |   |   |
|----------------|---|------|-------|---|---|
| <b>Rost</b>    | R | Ha   | True  | T | 1 |
| <b>Yolg'on</b> | Y | Yo'q | False | F | 0 |

Mulohazalarni, odatda, lotin alifbosining bosh harflari (A, B, C, .... X, Y, Z) bilan belgilash

qabul qilingan. Masalan: A = “Toshkent – go‘zal shahar”, B = “WWW – butun dunyo o‘rgimchak to‘ri”. Bu misolda A va B mantiqiy o‘zgaruvchilar orqali berilgan mulohazalar rost bo‘lib, bu mulohazalarning qiymati 1 ga teng.

## 1.2. Mantiq asoslari mantiqiy amallar va ifodalar.

Mantiqiy amallar mulohazalar mazmuni yoki hajmining o‘zgarishiga hamda yangi mulohazalarni shakllantirishga olib keladi. Mantiqiy ifodalar A, B, C, ... lotin harflari yordamida belgilangan mulohazalarni konyunksiya, dizyunksiya, inversiya, implikasiya va ekvivalensiya kabi mantiqiy bog‘lovchilar bilan ma‘lum bir qoidaga ko‘ra birlashtirish natijasida hosil qilinadi. Mantiqiy ifodalar unda ishtirok etgan o‘zgaruvchilarning qiymatlariga bog‘liq ravishda rost (mantiqiy 1) yoki yolg‘on (mantiqiy 0) qiymatlardan birini qabul qilishi mumkin. Quyida sodda mulohazalar ustida bajarilishi mumkin bo‘lgan ba‘zi amallar bilan tanishamiz. Ikkita sodda mulohazaning “va” bog‘lovchisi orqali bog‘lanishidan hosil bo‘lgan yangi mulohazaga sodda mulohazalar ko‘paytmasideyiladi.

**1-ta’rif: Ikkita A va B sodda mulohaza bir paytda rost bo‘lgandagina rost bo‘ladigan yangi (murakkaB) mulohazani hosil qilish amali konyunksiya (lot. conjunctio – bog‘layman) – mantiqiy ko‘paytirish amali deb ataladi. Mantiqiy ko‘paytirishni ifodalaydigan quyidagi jadvalga rostlik jadvalideyiladi:**

Quyidagi sodda mulohazalar berilgan bo‘lsin:

A= “Mantiq algebrasining asoschisi Jorj Bul hisoblanadi”;

B= “Klod Shennonning tadqiqotlari mantiq algebrasini hisoblash texnikasida qo‘llash imkonini bergan”.

| A | B | A & B |
|---|---|-------|
| 0 | 0 | 0     |
| 0 | 1 | 0     |
| 1 | 0 | 0     |
| 1 | 1 | 1     |

Mantiqiy ko‘paytmaning natijasi. Mantiq algebrasining asoschisi Jorj Bul hisoblanadi va Klod Shennonning tadqiqotlari mantiq algebrasini hisoblash texnikasida qo‘llash imkonini bergan.

Natijaviy mulohazaning qiymati: rost.

Agar ikkala boshlang‘ich mulohaza bir vaqtning o‘zida rost bo‘lsagina, “Mantiq algebrasining asoschisi Jorj Bul hisoblanadi va Klod Shennonning tadqiqotlari mantiq algebrasini hisoblash texnikasida qo‘llash imkonini bergan”, degan yangi mulohaza ham rost bo‘ladi.

Konyunksiya amali faqat ikkita sodda mulohazalar ustida emas, balki bir nechta mulohazalar ustida ham bajarilishi mumkin. Rostlik jadvaliga boshlang‘ich mulohazalarning barcha mumkin bo‘lgan qiymatlari (A va B ustunlarga) kiritiladi. Odatda, mulohazalarning ikkilik sanoq sistemasidagi qiymatlari jadvalga o‘sish (00, 01, 10, 11) tartibida joylashtiriladi. Oxirgi ustun tegishli operandlar (amallar bajariladigan ma‘lumotlar elementi) uchun bajarilgan mantiqiy amal natijasini o‘z ichiga oladi.

**A va B, A and B,  $A \wedge B$ ,  $A \cdot B$ ,  $A \cap B$ ,  $A \& B$**  ko'rinishlardan biri orqali ikkita A va B mulohazalar konyunksiyasi belgilanadi.

Ikkita sodda mulohazaning “yoki” bog'lovchisi orqali bog'lanishidan hosil bo'lgan yangi mulohazaga sodda mulohazalar yig'indisideyiladi.

**2-ta'rif: Ikkita A va B sodda mulohazaning kamida bittasi rost bo'lganda rost, qolgan holatlarda yolg'on bo'ladigan yangi (murakkaB) mulohazani hosil qilish amali dizyunksiya(lot. disjunctio – farqlayman, ajrataman) – mantiqiy qo'shish amalideb ataladi.**

Mantiqiy qo'shish amaliga mos rostlik jadvaliquyidagi ko'rinishda bo'ladi:

| A | B | $A \vee B$ |
|---|---|------------|
| 0 | 0 | 0          |
| 0 | 1 | 1          |
| 1 | 0 | 1          |
| 1 | 1 | 1          |

Quyidagi sodda mulohazalar berilgan bo'lsin: A= “Mantiqda matematik belgilardan foydalanish g'oyasi Gotfrid Vilgelm Leybnisga tegishli”;

B= “Leybnis binar arifmetikaning asoschisidir”.

Mantiqiy qo'shishning natijasi.Mantiqda matematik belgilardan foydalanish g'oyasi Gotfrid Vilgelm Leybnisga tegishli yoki Leybnis binar arifmetikaning asoschisidir.

Natijaviy mulohazaning qiymati: yolg'on.

**A yoki B, A or B,  $A \vee B$ ,  $A + B$ ,  $A \cup B$**  ko'rinishlardan biri orqali ikkita A va B mulohaza dizyunksiyasi belgilanadi.

Berilgan A mulohazaga “emas” shaklidagi to'liqsiz fe'lni qo'shish orqali hosil qilingan yangi mulohazaga sodda mulohazaning inkorideyiladi.

**3-ta'rif: A mulohazani qiymati rost bo'lganda yolg'on, yolg'on bo'lganda rost qiymatga o'zgartira oladigan amalga inversiya(lot. inversio – to'ntaraman) – mantiqiy inkor amali deyiladi.**

| A | $\neg A$ |
|---|----------|
| 0 | 1        |
| 1 | 0        |

Inkor amaliga mos rostlik jadvaliquyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Inkor amali har bir mulohazaning asl ma'nosiga qarama-qarshi bo'lgan yangi mulohazani hosil qiladi. Masalan, A =“Bizning uyimiz shahar markazida joylashgan” mulohazaning inkori  $\neg A$  =“Bizning uyimiz shahar markazida joylashgan emas” bo'ladi.



**A emas, not A,  $\neg A$ ,  $\bar{A}$**  ko'rinishlardan biri orqali A mulohazaning inversiyasi belgilanadi.

**4-ta'rif: A mulohaza rost, B mulohaza yolg'on bo'lgandagina yolg'on, qolgan holatlarda**

**rost bo'ladigan mulohazaga A hamda B mulohazalarning implikasiyasi deyiladi.**

" $\Rightarrow$ "belgi implikasiya belgisideb ataladi.  $A \Rightarrow B$  mantiqiy ifoda "Agar A bo'lsa, u holda B bo'ladi" yoki "A mulohazadan B mulohaza kelib chiqadi", degan ma'nolarni anglatadi.

Implikasiya amaliga mos rostlik jadvaliquyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Implikasiya so'zi mahkam bog'layapman degan ma'noni anglatadi.

Masalan: A = "Agar 72 soni 9 ga karrali bo'lsa, u holda bu son 3 ga ham karrali bo'ladi". A mulohazaning implikasiyasi rost, chunki murakkab mulohaza tarkibidagi sodda mulohazalarning ikkalasi ham rost.

| A | B | $A \Rightarrow B$ |
|---|---|-------------------|
| 0 | 0 | 1                 |
| 0 | 1 | 1                 |
| 1 | 0 | 0                 |
| 1 | 1 | 1                 |

B = "Agar  $-3 < -1$  bo'lsa, u holda  $9 < 8$  bo'ladi". B mulohazaning implikasiyasi yolg'on, chunki  $-3 < -1$  shart – rost,  $9 < 8$  esa yolg'on.

**$A \Rightarrow B$ ,  $A \rightarrow B$**  ko'rinishlardan biri orqali A mulohazaning implikasiyasi belgilanadi.

**5-ta'rif: A va B mulohazalar bir vaqtda rost yoki bir vaqtda yolg'on bo'lganda rost o'ladigan mulohazaga A va B mulohazalarning ekvivalensiyasideyiladi.**

" $\Leftrightarrow$ "belgi ekvivalensiya belgisideb ataladi.  $A \Leftrightarrow B$  yozuv "A mulohazadan B mulohaza va B mulohazadan A mulohaza kelib chiqadi" yoki "A bo'ladi, faqat va faqat shu holdaki, agar B bo'lsa" yoki "A ekvivalent B" deb o'qiladi. Ekvivalensiya amaliga mos rostlik jadvaliquyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Masalan, A = "972 soni 9 ga karrali", B = "972 soni raqamlarining yig'indisi 9 ga karrali" mulohazalari berilgan bo'lsin. U holda A va B mulohazalarning ekvivalensiyasi "972 soni 9 ga karrali bo'ladi, faqat va faqat shu holdaki, qachon bu son raqamlarining yig'indisi 9 ga karrali bo'lsa" kabi bo'ladi. Bu ekvivalensiya – rost.

| A | B | $A \Leftrightarrow B$ |
|---|---|-----------------------|
| 0 | 0 | 1                     |
| 0 | 1 | 0                     |
| 1 | 0 | 0                     |
| 1 | 1 | 1                     |

$A \Leftrightarrow B$ ,  $A \leftrightarrow B$  ko'rinishlardan biri orqali A mulohazaning ekvivalensiyasi belgilanadi.

Ixtiyoriy murakkab mulohazani mantiqiy ifoda ko'rinishida ham yozish mumkin.

Murakkab mantiqiy ifodalar mantiqiy amallar yordamida bog'langan bir yoki bir nechta oddiy(murakkab) mantiqiy ifodalardan tashkil topadi. Bu mantiqiy ifodalar mantiqiy o'zgaruvchilar, munosabatlar, mantiqiy amallar va qavslarni o'z ichiga oladi.

Masalan,  $(A \vee \neg B) \& (C \Leftrightarrow \neg E)$

**Mantiqiy ifodalarda mantiqiy amallar quyidagi ketma-ketlikda bajariladi: inversiya ( $\neg$ ):**

**konyunksiya ( $\&$ ); dizyunksiya ( $\vee$ ); implikatsiya ( $\Rightarrow$ ); ekvivalensiya ( $\Leftrightarrow$ ).**

Teng kuchli yoki bir xil amallar ketma-ketligi bajarilayotganda, amallar chapdan o'ngga qarab tartib bilan bajariladi. Ifodada qavslar ishtirok etganda, dastlab qavslar ichidagi amallar bajariladi. Ichma-ich joylashgan qavslarda eng ichkaridagi qavs ichidagi amallabirinchi bajariladi.

### **1.3. Mantiqiy ifodalarning rostlik jadvalini tuzish.**

Formal, ya'ni formulalarga tayangan tilda mantiqiy bog'lovchilar deb ataluvchi maxsus belgilar ( $\&$ ,  $\vee$ ,  $\neg$ ,  $\Rightarrow$ ,  $\Leftrightarrow$ )dan foydalaniladi. Biz bu amallar, ularning yozilishi hamda o'qilishi bilan avvalgi darslarda tanishib chiqqan edik.

Mantiqiy formulalar rostlik jadvallari yordamida izohlanadi. Bunday jadvallar mantiqiy bog'lovchi orqali tuzilgan murakkab mulohazaning rost(1) yoki yolg'on(0)ligini tashkil etuvchi mulohazalarning rostligiga qarab aniqlanadi. Mantiqiy amallarning rostlik jadvallaridan foydalanib, murakkabroq mulohazalar uchun rostlik jadvalini tuzish mumkin.

Rostlik jadvalini tuzishda amallarning bajarilish tartibiga rioya qilish shart.

Mulohazalar to'plamida avval inkor amali, keyin konyunksiya, dizyunksiya, implikatsiya va nihoyat ekvivalensiya amallari bajariladi. Agar inkor amali qavslardan tashqarida bo'lsa, u holda dastlab qavs ichidagi amallar bajariladi. Teng kuchli yoki bir xil amallar ketma-ketligi bajarilayotganda, amallar chapdan o'ngga tomon tartib bilan bajariladi. Ichma-ich joylashgan qavslarda eng ichkaridagi qavs ichidagi amallar birinchi bajariladi.

Mulohazalar to'plami va unda bajariladigan barcha  $\&$ ,  $\vee$ ,  $\neg$ ,  $\Rightarrow$ ,  $\Leftrightarrow$  amallar birgalikda mulohazalar algebrasideb yuritiladi. A, B, C,... mulohazalarni mantiqiy bog'lovchilar bilan ma'lum tartibda birlashtirib hosil qilingan murakkab mulohazaga mantiqiy formuladeyiladi.

Mantiqiy ifodaning rostlik jadvalini tuzish ketma-ketligini ko'rib chiqamiz:

|                                                                                                                                                                                                                       |   |       |                 |  |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---|-------|-----------------|--|
| 1. Mantiqiy ifoda tarkibida o'zgaruvchilar soni $n$ ni aniqlash:                                                                                                                                                      |   |       |                 |  |
| AVA&B. O'zgaruvchilar lotin alifbosi harflari bilan belgilanishini bilamiz. $n = 2$ .                                                                                                                                 |   |       |                 |  |
| 2. Mantiqiy amallar soni $k$ ni aniqlash:                                                                                                                                                                             |   |       |                 |  |
| Qatnashgan mantiqiy amallar: $\vee, \&$ . $k = 2$ .                                                                                                                                                                   |   |       |                 |  |
| 3. Qavslar va amallarning bajarilish ketma-ketligini hisobga olgan holda mantiqiy amallarning bajarilish tartibini aniqlash:                                                                                          |   |       |                 |  |
| 1) A&B;<br>2) $A \vee (A \& B)$ .                                                                                                                                                                                     |   |       |                 |  |
| 4. Jadvaldagi ustunlar sonini aniqlash. O'zgaruvchilar soniga amallar soni qo'shiladi: $c = n + k$ :                                                                                                                  |   |       |                 |  |
| $2 + 2 = 4$ .                                                                                                                                                                                                         |   |       |                 |  |
| 5. O'zgaruvchilar va 3-bandda aniqlangan amallar bajarilish ketma-ketligiga muvofiq jadvalning 1-satri (sarlavha satri) to'ldiriladi:                                                                                 |   |       |                 |  |
| A                                                                                                                                                                                                                     | B | A & B | $A \vee A \& B$ |  |
| 6. Jadval satrlari soni $r = 2^n$ formula yordamida aniqlanadi (5-banddagi sarlavha satri hisobga olinmaydi):                                                                                                         |   |       |                 |  |
| $r = 2^2 = 4$ .<br>Kirish o'zgaruvchilari to'plamini 0 dan $2^2 - 1 = 3$ gacha.<br>Ikkilik raqamlar: 00, 01, 10, 11                                                                                                   |   |       |                 |  |
| A                                                                                                                                                                                                                     | B | A & B | $A \vee A \& B$ |  |
| 0                                                                                                                                                                                                                     | 0 |       |                 |  |
| 0                                                                                                                                                                                                                     | 1 |       |                 |  |
| 1                                                                                                                                                                                                                     | 0 |       |                 |  |
| 1                                                                                                                                                                                                                     | 1 |       |                 |  |
| 7. O'zgaruvchilar to'plamining $n$ -razryadli ikkilik raqamlari yoziladi:                                                                                                                                             |   |       |                 |  |
| A                                                                                                                                                                                                                     | B | A & B | $A \vee A \& B$ |  |
| 0                                                                                                                                                                                                                     | 0 | 0     | 0               |  |
| 0                                                                                                                                                                                                                     | 1 | 0     | 0               |  |
| 1                                                                                                                                                                                                                     | 0 | 0     | 1               |  |
| 1                                                                                                                                                                                                                     | 1 | 1     | 1               |  |
| 8. Kiruvchi ma'lumotlarga mos jadval ustunlarida belgilangan mantiqiy amallar ketma-ketligini bajarish va jadvalni to'ldirish. Ya'ni mantiqiy amallarga qarab, kirish ma'lumotlariga mos mantiqiy amallarni bajarish: |   |       |                 |  |
| A                                                                                                                                                                                                                     | B | A & B | $A \vee A \& B$ |  |
| 0                                                                                                                                                                                                                     | 0 | 0     | 0               |  |
| 0                                                                                                                                                                                                                     | 1 | 0     | 0               |  |
| 1                                                                                                                                                                                                                     | 0 | 0     | 1               |  |
| 1                                                                                                                                                                                                                     | 1 | 1     | 1               |  |

#### 1.4. Mantiqiy sxemalar

Mantiq algebrasi matematikaning bir bo'limi hisoblanib, avtomatik qurilmalarni loyihalashtirishda, axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining apparatli va dasturiy vositalarini ishlab chiqishda muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, har qanday axborot diskret ko'rinishda, ya'ni alohida qiymatlarning fiksirlangan (belgilangan) to'plami ko'rinishida taqdim etilishi mumkin.

Diskret qayta ishlovchi qurilma ikkilik signallarni qayta ishlaganidan keyin biror mantiqiy amalning qiymatini chiqarsa, u mantiqiy elementdeb ataladi. Bunday qiymatlar (signallar)ni qayta ishlovchi qurilmalarga esa diskret qurilmalardeyiladi. Mantiqiy



elementlar kompyuterning tarkibiy qismi bo'lib, ikkilik o'zgaruvchilar ustida muayyan mantiqiy amallarni bajarish uchun mo'ljallangan elementlar hisoblanadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalarning barcha hisoblash qurilmalari (kompyuter, mobil qurilmalar) mantiqiy elementlarga asoslangan. Kompyuterning har qanday mantiqiy amali asosiy mantiqiy elementlar yordamida bajariladi. Har bir mantiqiy element bir yoki bir nechta mantiqiy amalning bajarilishini ta'minlaydi. Quyida eng sodda va keng tarqalgan mantiqiy elementlar bilan tanishamiz. Elementlarning o'zi oddiy elektr sxemalardan tuziladi. Bunda sxemaning kirish qismiga kelgan signallarga argument deyilsa, chiqishdagi signallar esa argumentning funksiyasi bo'ladi. Sxemaning ma'lum qismida signalning mavjud bo'lishi bir (1)ni, mavjud emasligi esa nol (0)ni ifodalaydi.

“VA(&)” va “YOKI” mantiqiy funksiyalarining bajarilishi uchun kiruvchi signallar soni kamida ikkita bo'lishi zarur. Ayrim hollarda esa kiruvchi signallar soni ikkitadan ko'p bo'lishi ham mumkin.

Kompyuterning bazaviy mantiqiy elementlari, asosan, uchta mantiqiy amalni bajaradi:

- 1) konyunktor (“VA” mantiqiy elementi) mantiqiy ko'payishni amalga oshiradi;
- 2) dizyunktor (“YOKI” mantiqiy elementi) mantiqiy qo'shishni amalga oshiradi;
- 3) inverter (“EMAS” mantiqiy elementi) rad etishni amalga oshiradi.

Quyidagi jadvalda ikkita kiruvchi A va B elementlar uchun “VA” mantiqiy elementining

rostlik jadvali ko'rsatilgan. Ko'rinib turibdiki, ikkala kiruvchi element bir vaqtning o'zida “1” kirish signali bilan ta'minlangandagina chiquvchi signal orqali “1” signali hosil bo'ladi. Boshqa uchta holatda chiqish signali nolga teng bo'ladi.

Konyunktor – mos tushish sxemasida kamida ikkita (A, B) kiruvchi va bitta (A&B) chiquvchi signal mavjud. Raqamli sxemalarda “VA” mantiqiy elementi 1-rasmda ko'rsatilgandek belgilanadi.

Xorij sxemalarida “VA” elementining belgisi boshqacha ko'rinishga ega (2-rasmga qarang). Uni qisqacha AND element deb atashadi.

Mantiqiy o'zgaruvchi deb, faqat ikkita: 0 va 1 qiymatni qabul qiluvchi kattalikka aytiladi.


Mantiqiy funksiyadeb, argumentlari faqat 0 va 1 qiymatni qabul qiluvchi funksiyaga aytiladi.

Dizyunktor – yig'uvchi sxemada ham kamida ikkita (A, B) kiruvchi va bitta (A yoki B) chiquvchi signal mavjud.

Ikkita (A, B) kiruvchi signal uchun “YOKI” mantiqiy elementi biroz boshqacha ishlaydi.



1-rasm. "VA" mantiqiy elementi



2-rasm. "AND" elementi

Yig'uvchi sxemada ikkita kiruvchi signalning ixtiyoriy bittasi "1" kirish signali bilan ta'minlansagina, chiquvchi signal orqali "1" signali hosil bo'ladi. Boshqa holatda chiqish signali nol (0)ga teng bo'ladi.


| Kiruvchi A | Kiruvchi B | Chiquvchi (A&B) |
|------------|------------|-----------------|
| 0          | 0          | 0               |
| 1          | 0          | 0               |
| 0          | 1          | 0               |
| 1          | 1          | 1               |

Raqamli sxemalarda "YOKI" mantiqiy elementi 3-rasmda ko'rsatilgandek belgilanadi.

Xorij sxemalarida "YOKI" elementining belgisi 4-rasmdagi kabi ko'rinishga ega. Uni qisqacha "OR" elementi deb atashadi.



3-rasm. "YOKI" mantiqiy elementi



4-rasm. "OR" elementi


Invertor sxemasida faqat bitta (A) kiruvchi va bitta (A emas) chiquvchi signal mavjud. Invertor sxemasi "teskari zanjir" deb ham ataladi. Invertor sxemasida kiruvchi signalning qiymati qarama-qarshisiga o'zgaradi. Masalan, kiruvchi signal "1" kirish signali bilan ta'minlansa, chiquvchi signal orqali "0" signali hosil bo'ladi va aksincha. Raqamli sxemalarda "EMAS" mantiqiy elementi 5-rasmda ko'rsatilgandek belgilanadi. Xorij sxemalarida "EMAS" elementining belgisi 6-rasmdagi kabi ko'rinishga ega. Uni qisqacha "NOT" deb atashadi.

| Kiruvchi A | Kiruvchi B | Chiquvchi (A yoki B) |
|------------|------------|----------------------|
| 0          | 0          | 0                    |
| 1          | 0          | 1                    |
| 0          | 1          | 1                    |
| 1          | 1          | 1                    |

| Kiruvchi A | Chiquvchi (A emas) |
|------------|--------------------|
| 0          | 1                  |
| 1          | 0                  |



5-rasm. "EMAS" mantiqiy elementi



6-rasm. "NOT" elementi

Mantiqiy elementlardan arifmetik amallarni bajarish va axborotlarni saqlash uchun mo'ljallangan murakkab raqamli sxemalar yaratiladi. Bir ngcha mantiqiy element va

ularning turli birikmasi yordamida berilgan funksiyalarni bajarishga qodir sxemalarni tuzish mumkin.

Mantiqiy sxema– kompyuter qurilmalarining ishlashini tavsiflovchi har qanday mantiqiy funksiyani bajaradigan elektron qurilma



## **2-mavzu. Algoritm turlari va tasvirlash usullari**

- 2.1.Chiziqli algoritmlar.
- 2.2.Tarmoqlanuvchi algoritmlar.
- 2.3.Takrorlanuvchi algoritmlar.
- 2.4.Aralash (kombinatsiyalashgan) algoritmlar

### **2.1 Chiziqli algoritmlar.**

XX asrning 70-yillarida golland olimi Edsger Deykstra (1930–2002) har qanday algoritm uning nima maqsadda tuzilganligi va murakkabligidan qat'i nazar, uchta: ketma-ketlik, tarmoqlanish va takrorlanish algoritmik konstruksiyadan foydalanilgan holda yozilishi mumkinligi haqidagi g'oyani ilgari surdi va to'liq asoslab berdi.

Algoritm informatikaning asosiy tushunchalaridan biri hisoblanishi hamda algoritm natijaga erishish uchun zarur harakatlar ketma-ketligi ekanligini yaxshi bilamiz.


Har qanday algoritm mantiqiy tuzilishi, ya'ni bajarilish tartibiga ko'ra uchta asosiy turga bo'linadi: chiziqli, tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi. Chiziqli algoritm deb, barcha ko'rsatmalari hech qanday shartsiz, faqat ketma-ket bajariladigan jarayonlarga aytiladi.

Bunga qo'shish yoki ko'paytirish natijalarini hisoblash, bir nechta o'zgaruvchilar qiymatlarini almashtirish, choy damlash, doira yuzini hisoblash kabilarni misol sifatida keltirish mumkin. Chiziqli algoritmlarning so'zlar yordamida berilishi, tavsiflanishiga oid misolni ko'rib chiqaylik. Choy damlash maqsad qilib qo'yilgan bo'lsin. U holda choy damlayotgan shaxs biz uchun odatiy hol bo'lib qolgan quyidagi ishlarni ketma-ketlik tartibida bajarishi lozim:

- 1) choynak qopqog'i ochilsin;
- 2) choynak qaynoq suv bilan chayilsin;
- 3) choynakka bir choy qoshiq miqdorida quruq choy solinsin;
- 4) choynak to'lguncha qaynagan suv quyilsin;
- 5) choynakning qopqog'i yopilsin;
- 6) choynak sochiq bilan yopilib, besh daqiqaga qoldirilsin.

Chiziqli tuzilishga ega bo'lgan algoritmning blok-sxemasi, asosan, algoritmni boshlash tugatish bloki, kiritish/chiqarish bloki hamda funksional (operator) bloki yordamida tuziladi.



Chiziqli tuzilish bir chiziq bo'ylab joylashgan, ketma-ket bajariladigan ko'rsatma (buyruq)lar to'plami ko'rinishida bo'ladi va ular algoritmda qanday tartibda yozilgan bo'lsa, aynan shu tartibda bajariladi (1-rasm). Chiziqli algoritmni ifodalash uchun quyidagi tuzilmadan foydalaniladi:

| So'zlar orqali                                   | Blok-sxema ko'rinishida                                                           | Namuna                                                                                   |
|--------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1-ko'rsatma<br>2-ko'rsatma<br>...<br>n-ko'rsatma |  | Tomonlari $a$ va $b$<br>bo'lgan to'g'ri<br>to'rtburchak perimetri<br>va yuzasini toping. |

1-rasm. Chiziqli algoritmlar

## 2.2.Tarmoqlanuvchi algoritmlar.

Shunday hisoblash jarayonlari ham bo'ladiki, unda qo'yilgan ayrim mantiqiy shartlarning bajarilishiga ko'ra jarayonlar bir ngcha tarmoqqa bo'linadi hamda ulardan hech bo'lmaganda bittasi bajariladi. Bunday jarayonlar bajarilishi uchun tarmoqlanuvchi algoritmlar tuziladi. Agar hisoblash jarayoni qandaydir berilgan shartning bajarilishiga qarab turli tarmoqlar bo'yicha davom ettirilsa va hisoblash jarayonida har bir tarmoq faqat bir marta bajarilsa, bunday hisoblash jarayonlariga tarmoqlanuvchi algoritmlar deyiladi. Tarmoqlanuvchi struktura, odatda, qandaydir mantiqiy shartni tekshirish blokini o'z ichiga oladi. Tekshirish natijasiga ko'ra, tarmoq deb ataluvchi u yoki bu amallar ketma-ketligi bajariladi. Tarmoqlanuvchi tuzilish shart tekshirish natijasiga (ha yoki yo'q) qarab ikki yo'ldan birini tanlash imkoniyatini beradi, ya'ni ko'rsatilgan tarmoqdan faqat bittasining bajarilishini ta'minlaydi. Bu tuzilmalar, asosan, 2 xil – to'liq va qisqartirilgan ko'rinishda berilishi mumkin. Ular quyidagi sxema orqali ifodalanadi:


| Turi                                                       | So'zlar orqali                                                                              | Blok-sxema ko'rinishida                                                             | Namuna                                                                                                                                                                |
|------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| agar – u holda;<br>agar – u holda;                         | agar shart<br>u holda<br>ko'rsatmalar<br>guruhi oxiri                                       |  | Agar berilgan sonning<br>raqamlari yig'indisi 3 ga<br>qoldiqsiz bo'linsa, <b>u holda</b><br>bu son 3 ga karrali bo'ladi.                                              |
| agar – u holda – aks holda;<br>agar – u holda – aks holda; | agar shart<br>u holda<br>ko'rsatmalar<br>guruhi1 aks holda<br>ko'rsatmalar<br>guruhi2 oxiri |  | Agar berilgan sonning<br>raqamlari yig'indisi 3 ga<br>qoldiqsiz bo'linsa, <b>u holda</b> bu<br>son 3 ga karrali bo'ladi, <b>aks<br/>holda</b> 3 ga karrali bo'lmaydi. |

1-misol. Berilgan  $A$  son 0 (nol)dan katta musbat son bo'lsa, u holda uning kvadratini hisoblash algoritmini tuzing:

1) boshlansin;

- 2) Akiritilsin;
- 3) agar  $A > 0$  bo'lsa, u holda 4-bandga o'tilsin;
- 4) natija  $A \cdot A$  deb olinsin;
- 5) tugatilsin.


Bu misolda agar  $A > 0$  bo'lsa, 4-banddagi ko'rsatma bajariladi, aks holda, ya'ni  $A \leq 0$  shart bajarilsa, 3-banddagi ko'rsatma bajarilmaydi



2-misol. Berilgan ikkita A va B sonlardan kichigini topish algoritmini tuzing:

- 1) boshlansin;
- 2) A va B kiritilsin;
- 3) agar  $A < B$  bo'lsa, 4-bandga o'tilsin;  
aks holda, 5-bandga o'tilsin;
- 4) natija A deb olinsin va 6-bandga o'tilsin;
- 5) natija B deb olinsin;
- 6) tugatilsin.

Bu misoldan quyidagicha xulosa chiqarish mumkin: agar  $A < B$  shart bajarilsa, 5-banddagi ko'rsatma bajarilmaydi, aks holda, ya'ni  $A > B$  bo'lsa, 4-banddagi ko'rsatma bajarilmaydi.





### 2.3. Takrorlanuvchi algoritmlar.

Takrorlanuvchi algoritmda, biron bir shart tekshirilishi yoki qandaydir parametrning har xil qiymatlari asosida algoritmda takrorlanish yuz beradigan jarayonlarga aytiladi. Shunday jarayonlar ham borki, ularning ayrim bo'laklari bir ngcha marta takrorlanadi. Masalan, biror fandan test topshira olmagan, ya'ni "qoniqarsiz" baho olgan o'quvchi toki testdan "qoniqarli" baho olgunga qadar fanga oid mavzularni qayta-qayta o'qishiga, testga tayyorlanishiga to'g'ri kelsa,  $9! = 1 \cdot 2 \cdot 3 \cdot 4 \cdot 5 \cdot 6 \cdot 7 \cdot 8 \cdot 9$  ifodani hisoblash uchun esa 8 marta ko'paytirish amalini bajarishga to'g'ri keladi.

Bunday jarayonlar uchun algoritmlar tuzishda takrorlanuvchi algoritmlardan foydalaniladi.

Takrorlanuvchi algoritmlar " $i=i+1$ ", " $S=S+i$ " yoki " $P=P*i$ " ko'rinishidagi ko'rsatmalarning ishtiroki bilan ajralib turadi (\* – ko'paytirish amali). Bunday ko'rsatmalarning mohiyatini tushunish uchun takrorlanishning bir nechta qadamini ko'rib chiqish lozim.

Odatda, yig'indi uchun boshlang'ich qiymat (inglizchadan SUMM, ya'ni yig'indi ma'noli so'zning bosh harfi)  $S=0$  va ko'paytma uchun (inglizchadan PRODUCT, ya'ni ko'paytma ma'noli so'zning bosh harfi)  $P=1$  deb olinadi, chunki bu qiymatlar, ya'ni 0 va 1 lar, mos ravishda, yig'indi va ko'paytmaning natijasiga ta'sir etmaydi:

| Qadamlar | i                      | S               | P               |
|----------|------------------------|-----------------|-----------------|
| 1-qadam: | $i=1$ bo'lsin, u holda | $S=S+i=0+1=1,$  | $P=P*i=1*1=1;$  |
| 2-qadam: | $i=i+1=1+1=2,$         | $S=S+i=1+2=3,$  | $P=P*i=1*2=2;$  |
| 3-qadam: | $i=i+1=2+1=3,$         | $S=S+i=3+3=6,$  | $P=P*i=2*3=6;$  |
| 4-qadam: | $i=i+1=3+1=4,$         | $S=S+i=6+4=10,$ | $P=P*i=6*4=24.$ |

Hisoblash jarayonining ko'p marta takrorlanadigan qismi ichki sikl tanasi (jismi) deb yuritiladi. Takrorlanadigan harakat (ko'rsatma)larni amalga oshirish uchun sikl yoki takrorlash buyruqlari deb nomlangan maxsus algoritmik tuzilmalar mavjud. Takrorlanish tuzilmalari bir ngcha ko'rsatmalar guruhining ko'p marta bajarilishini ta'minlaydi. Bu tuzilmalar 41-betdagi jadval ko'rinishlarida o'rin olgan. Shart oldin tekshiriluvchi (toki) takrorlanuvchi algoritmlarda avval shart tekshiriladi, so'ngra, agar shart qanoatlantirsa (rost bo'lsa), sikl tanasi bajariladi, aks holda hisoblash to'xtatiladi. Shart keyin tekshiriluvchi (gacha) takrorlanuvchi algoritmda avval sikl tanasi bajarilib, so'ngra sikldan chiqish sharti tekshiriladi, ya'ni sikl tanasi qo'yilgan shart bajarilib bo'lguncha takrorlanaveradi.


| Turi                               | Soʻzlar orqali                                                    | Blok-sxema koʻrinishida | Izoh                                                                                                                                                                            |
|------------------------------------|-------------------------------------------------------------------|-------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Toki – shart oldin tekshiriluvchi  | toki (shart) sikl boshi koʻrsatmalar guruhi; sikl oxiri           |                         | Shart oʻrinli boʻlmasa (yolgʻon boʻlsa), sikl toʻxtatiladi. Agar shart boshidanoq yolgʻon boʻlsa, u holda koʻrsatmalar guruhi hech qachon bajarilmaydi.                         |
| Gacha – shart keyin tekshiriluvchi | ... koʻrsatmalar guruhi; gacha (shart)                            |                         | Shart oʻrinli (rost) boʻlsa, sikl toʻxtatiladi.                                                                                                                                 |
| Parametr – dan – gacha             | Parametr A dan B gacha sikl boshi koʻrsatmalar guruhi; sikl oxiri |                         | Koʻrsatmalar guruhining takrorlanishlar soni sikl parametrining boshlangʻich va oxirgi qiymatlariga bogʻliq. Bu sikl takrorlanishlar soni $(B-A+1)$ aniq boʻlganda ishlatiladi. |

Shart oldin tekshiriluvchi va shart keyin tekshiriluvchi sikllar birgalikda iteratsion sikllarhisoblanadi. Takrorlanuvchi jarayonlarga oid misollarni koʻrib chiqaylik.

**1-misol.** Tasavvur qiling, klaviaturadan sonlar (1, 6, 8, 2, –6, 76, 1, –5) kiritilmoqda. Birinchi kiritilgan manfiy son (–6) gacha kiritilgan sonlar (1, 6, 8, 2) yigʻindisini hisoblash algoritmini tuzing. Yechish. Soʻzlar bilan ifodalangan algoritmda blok-sxema bilan mutanosiblikni koʻrsatish uchun qavslar ichida izohlar berib boramiz. Yigʻindini Sorqali, klaviaturadan kiritilayotgan sonni esa Aorqali belgilab olamiz.


- 1) boshlansin;
- 2)  $S=0$ deb olinsin (yaʼni  $S=0$ );
- 3)  $A=0$ deb olinsin (yaʼni  $A=0$ );
- 4) Sga Ani qoʻshib, Sdeb olinsin (yaʼni  $S= S+A$ );
- 5) Akiritilsin;
- 6) agar  $A<0$ boʻlmasa, 4-bandga oʻtilsin;
- 7) natija Sdeb olinsin;

8) tugatilsin.



## 2.4 Aralash (kombinatsiyalashgan) algoritmlar

Tarkibida bir nechta turdagi algoritmlar qatnashgan algoritmgaga aralash (kombinatsiyalashgan) algoritm deyiladi. Aralash algoritmlarga quyidagilar misol bo'ladi. 1-masala. Sinfda 25 nafar o'quvchi bor. Qancha o'quvchi informatikadan "a'lo" baho



olganligini aniqlash algoritmi tuzilsin. Masalani yechishda tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi algoritmlardan foydalanildi.



### **3-mavzu. Dastur va dasturlash haqida.**

#### **Reja.**

- 3.1. Dasturlash tillari. Python dasturlash tilida xatoliklar bilan ishlash
- 3.2. Python dasturlash tilining imkoniyatlari.
- 3.3. Python dasturlash tili sintaksisi, Python dasturlash tilida izohlar.

#### **3.1. Dasturlash tillari. Python dasturlash tilida xatoliklar bilan ishlash**

Bugungi kunda ijtimoiy hayotning qaysi jabhasiga ko'z tashlamaylik, hamma joyda kompyuterlashtirish jarayoni jadal sur'atlarda amalga oshayotganini ko'rish mumkin. Endi telefon nafaqat so'zlashish qurilmasi, u orqali matnli, audio, videoxabarlarini uborishdan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar orqali muloqot qilish ham mumkin. Zamon talabi o'quvchilarimiz oldiga bu qurilma va texnologiyalardan foydalanishni bilishnigina emas, shuningdek, dasturlash yordamida ularni rivojlantirish, raqamlashtirish vazifalarini ham qo'ymoqda.

Ma'lumki, kompyuter – foydalanuvchi uchun turli masalalarni yechishda eng yaqin yordamchi. Xususan, insonga qulaylik yaratish uchun matn, grafik muharrirlar, taqdimot yaratuvchi dasturlar, elektron jadvallar singari ko'plab amaliy dasturlar ishlab chiqilgan. Shuningdek ta'lim, bank ishi, soliq, huquq, tibbiyot sohalari uchun maxsus yozilgan kompyuter dasturlari ham mavjud. Xo'sh, dastur o'zi nima?

Kompyuterda biror masalani hal qilish uchun, eng avvalo, uning modeli va algoritmi tuziladi, so'ngra bu algoritm ma'lum bir qonun-qoidalar nggizida kompyuter tushunadigan ko'rsatma va buyruqlarga aylantiriladi va o'ziga xos alifbo yordamida yoziladi. Yaratilgan matn kompyuter tilidayozilgan dasturdeb ataladi.

Kompyuter dasturi – har qanday masalani yechish uchun kompyuter bajarishi lozim bo'lgan ko'rsatmalarning izchil tartibi. Kompyuter uchun yozilgan dastur chet tiliga o'xshaydi, istagan odam uni tez vaqtda o'rganib olishi mumkin. Faraz qiling, atrofingizdagi deyarli barcha uskuna-yuqurilmalar kompyuter dasturlari orqali boshqariladi, ya'ni bu qurilmalar dasturchi tomonidan ketma-ketlikda yozilgan ko'rsatmalarga amal qiladi. Masalan, kompyuter ilovalari – hujjat yaratish, qo'shiq tinglash, video ko'rish, internrtga bog'lanish kabilar – aslida dasturchilar tomonidan yozilgan va kompyuter amal qiladigan dasturlardir.

*Kompyuter dasturi– biror masalani yechish uchun kompyuter tomonidan ijro etilishi lozim bo'lgan buyruqlarning izchil to'plami.*

*Dasturlash– kompyuter uchun dastur tuzish jarayoni.*

*Dasturchi– dastur tuzuvchi shaxs.*

**Mobil telefonlar.**

Qurilma dasturi qo'ngiroq qilish, xabar yuborish imkonini beradi. Shuningdek, kontaktlar ro'yxatidan o'tgan shaxs ismiga ko'ra, dastur uning telefon raqamini o'zi topadi.

**Kir yuvish mashinasi.**

Qurilma turli rejimlarda kir yuvishga dasturlashtirilgan, shu sababli kod harorat va kir yuvish vaqtini nazoratga oladi.

**Avtomobillar.**

Zamonaviy kompyuter va uning dasturlarisiz avtomobil harakatini tasavvur qilish qiyin. Kompyuter dasturi tezlik, yoqilg'i, harorat kabilarni kuzatib boradi.



**Dasturchi** – kompyuterda ko'rish va bajarish mumkin bo'lgan jarayonlarni nazorat qiluvchi hamda dasturlarni yaratuvchi shaxs.

Inson kabi kompyuter ham o'ziga xos tilda muloqot qiladi. Bu til faqat kompyuter tushunadigan til bo'lib, u cheklangan lug'at va qat'iy yozish qoidalaridan iboratdir. Kompyuter tushunadigan va muloqot olib boradigan "til" dasturlash tilideb ataladi. Istalgan dasturlash tilini bilgan shaxs o'z dasturini bemalol tuza oladi.

Protsessor dasturlash tilida yozilgan dasturni to'g'ridan-to'g'ri tushunmaydi. Buning uchun dasturni protsessor tiliga tarjima qiladigan (raqamli ko'rinishga o'tkazib beruvchi) tarjimon tili – translyatordan foydalaniladi. Tarjimon tilining ikkita turi mavjud:

kompileyator va interpretator. Kompilyator dasturlash tilida yozilgan dastur kodlarini to'laligicha o'qib, mashina kodiga tarjima qiladi va tarjima natijalarini bajariladigan yaxlit bitta faylga yig'adi. Interpretatordasturlash tilida yozilgan kodni bosqichma-bosqich mashina kodiga aylantirib, tahlil qiladi va berilgan buyruqlarni ketma-ketlikda bajaradi. Agar xatolik sodirbo'lsa, o'sha zahoti xabar beradi.

Dasturlash tillari juda ko'p bo'lib, ularning har biridan o'ziga xos masalalarni yechishda foydalanish mumkin. Quyida ularning eng mashhurlari haqidagi ma'lumotlar bilan tanishamiz.

**Dasturlash tili– inson va kompyuter o'rtasidagi rasmiy aloqa tili. U ma'lum qoidalar asosida ma'lumotlarni qayta ishlash dasturlarini yaratish uchun qo'llaniladi.**

**IDE(Integrated Development Environment – integrallashgan dasturlash muhiti) – dasturchilar uchun qo'shimcha funksiyalarga ega bo'lgan maxsus matn muharriri.**

|                   |                                                                    |               |                                                                                            |
|-------------------|--------------------------------------------------------------------|---------------|--------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>C</b>          | kompyuter operatsion tizimlarini yozish uchun mo'ljallangan til.   | <b>JAVA</b>   | kompyuter, mobil telefon va planshetlar uchun dastur yozuvchi til.                         |
| <b>JAVASCRIPT</b> | interfaol web-saytlarni yozish uchun mo'ljallangan til.            | <b>PHP</b>    | dinamik web-saytlar yaratish uchun mo'ljallangan til.                                      |
| <b>SCRATCH</b>    | dasturlarni o'rganish uchun eng mos vizuallashgan dasturlash tili. | <b>PYTHON</b> | turli masalalarni yechish, sun'iy intellekt tizimlari uchun mo'ljallangan dasturlash tili. |

Python dasturlash tilini yaratilishi 1990-yil boshlaridan boshlangan. O'sha paytlarda uncha taniqli bo'lmagan Gollandiyaning CWI institute xodimi Gvido van Rossum ABC tilini yaratilish proektida ishtirok etgan edi. ABCtili Basic tili o'rniga talabalarga asosiy dasturlash konsepsiyalarini o'rgatish uchun mo'ljallangan til edi. Bir kun Gvido bu ishlardan charchadi va 2 hafta davomida o'zining Macintoshida boshqa oddiy tilning interpretatorini yozdi, bunda u albatta ABC tilining ba'zi bir g'oyalarini o'zlashtirdi. Shuningdek, Python 1980-1990-yillarda keng foydalanilgan Algol-68, C, PYTHON, Modul3 ABC, SmallTalk tillarining ko'plab xususiyatlarini o'ziga olgandi. Gvido van Rossum bu tilni interngt orqali tarqata boshladi. Bu paytda o'zining "Dasturlash tillarining qiyosiy taqrizi" veb sahifasi bilan interngtga to 1996-yilgacha Stiv Mayevskiy ismli kishi taniqli edi. U ham Macintoshni yoqtirardi va bu narsa uni Gvido bilan yaqinlashtirdi. O'sha paytlarda Gvido BBC ning "Monti Paytonning havo sirki" komediyasining muxlisi edi va o'zi yaratgan tilni Monti Payton nomiga Python deb atadi (ilon nomiga emas). Til tezda ommalashdi. Bu dasturlash tiliga qiziqqan va tushunadigan foydalanuvchilar soni ko'paydi. Boshida bu juda oddiy til edi. Shunchaki kichik interpretator bir nechta funksiyalarga ega edi. 1991-yil birinchi OYD(Obyektga Yo'naltirilgan Dasturlash) vositalari paydo bo'ldi. Bir qancha vaqt o'tib Gvido Gollandiyadan Amerikaga ko'chib o'tdi. Uni NRI korporatsiyasiga ishlashga taklif etishdi. U o'sha yerda ishladi va korporatsiya shug'ullanayotgan proektlarni Python tilida yozdi va bo'sh ish vaqtlarida tilni interpretatorini rivojlantirib bordi. Bu 1990-yil Python 1.5.2 versiyasi paydo bo'lguncha davom etdi. Gvidoning asosiy vaqti korporatsiyani proektlarini yaratishga ketardi bu esa unga yoqmasdi. Chunki uning Python dasturlash tilini rivojlantirishga vaqti qolmayotgandi. Shunda u o'ziga tilni rivojlantirishga imkoniyat yaratib bera oladigan homiy izladi va uni o'sha paytlarda endi tashkil etilgan BeOpen firmasi qo'llab quvvatladi. U CNRI dan ketdi, lekin shartnomaga 8 binoan u Python 1.6 versiyasini chiqarib berishga majbur edi. BeOpen da esa u Python 2.0 versiyani chiqardi. 2.0 versiyasi bu oldinga qo'yilgan katta qadamlardan edi. Bu versiyada eng asosiysi til va interpretatorni rivojlanish jarayoni ochiq ravishda bo'ldi. Shunday qilib 1.0 versiyasi 1994-yil chiqarilgan bo'lsa, 2.0 versiyasi 2000- yil, 3.0 versiyasi esa 2008-yil ishlab chiqarildi. Hozirgi vaqtda uchinchi versiyasi keng qo'llaniladi. Python dasturlash tili imkoniyatlari Python – bu o'rganishga oson va shu bilan birga imkoniyatlari yuqori bo'lgan oz sonlik zamonaviy dasturlash tillari qatoriga kiradi. Python yuqori darajadagi ma'lumotlar strukturasi va oddiy lekin samarador obyektga yo'naltirilgan dasturlash uslublarini taqdim etadi.

#### Pythonning o'ziga xosligi

1. Oddiy, o'rganishga oson, sodda sintaksisga ega, dasturlashni boshlash uchun qulay, erkin va ochiq kodlik dasturiy ta'minot.
2. Dasturni yozish davomida quyi darajadagi detallarni, misol uchun xotirani boshqarishni hisobga olish shart emas.
3. Ko'plab platformalarda hech qanday o'zgartirishlarsiz ishlay oladi.
4. Interpretatsiya qilinadigan til.

5. Kengayishga moyil til. Agar dasturni biror joyini tezroq ishlashini xoxlasak shu qismni C yoki PYTHON dasturlash tillarida yozib keyin shu qismni python kodi orqali ishga tushirsa(chaqirsA) bo'ladi.

6.Juda ham ko'p xilma-xil kutubxonalarga ega.

7.xml/html fayllar bilan ishlash

8.http so'rovlari bilan ishlash

9. GUI(grafik interfeys)

10.Veb saytlarni yaratish

11.FTP bilan ishlash

12. Rasmi audio video fayllar bilan ishlash

13.Robot texnikada

14.Matematik va ilmiy hisoblashlarni dasturlash

Pythonni katta projeklarda ishlatish mumkin. Chunki, uni chegarasi yo'q, imkoniyati yuqori. Shuningdek, u sodda va universalligi bilan dasturlash tillari orasida eng yaxshisidir.

Aksariyat dasturlash tillari, xususan, PYTHON, Pascal, Java, Python va boshqalar integrallashgan dasturlash muhiti (IDE)ga ega. IDE (Integrated Development Environment – integrallashgan dasturlash muhiti) – dasturiy ta'minot yaratish uchun dasturiy vositalar majmui. Tizimli va amaliy dasturlarni yaratish uchun dasturlash tillaridan foydalaniladi. Dastur yaratish jarayoni katta hajmga ega bo'lib, dasturlash tillarida dastur yozish shu jarayonning bir qismi sanaladi. Avvalgi mavzularimizda kompyuterda masalani yechish bosqichlarini ko'rib chiqqan edik. Kompyuter dasturlarini yaratish jarayonidam kompyuterda masalani yechish jarayoniga o'xshash bo'lib, bir ngcha bosqichni o'z ichiga oladi.

Birinchi bosqichda dastur uchun talab aniqlanadi. Ushbu jarayonda dasturning qanday maqsadda qo'llanilishi, kirish va chiqish ma'lumotlari aniqlanadi. Dastur va resurslarni ishlab chiqish, uni joriy etishning narxi baholanadi.


Ikkinchibosqichda dastur loyihasi ishlab chiqiladi.Dasturchilar uchun texnik topshiriq va vazifalar shakllantiriladi. Ishchi hujjatlar hamda ish rejasining grafigi tuziladi.

Uchinchibosqichda dastur kodi yoziladi. Bu kodlash (dasturlash) jarayoni bo'lib, tuzilgan algoritm dasturlash tilida yoziladi. To'rtinchibosqichda kodlash jarayoni tugab, dasturdagi xatoliklarni aniqlash va testlash boshlanadi. Bu jarayonda dasturning to'g'ri tuzilganligi, ishlash samaradorligi va boshqa parametrlariga aniqlik kiritiladi.Beshinchibosqichda dastur amaliyotga joriy etiladi. Agar dastur aniq buyurtmachi talabiga muvofiq yaratilgan bo'lsa, u holda bu bosqich eng muhim bosqich sanaladi. Bunda avvalgi dasturda foydalanilgan qurilma va ma'lumotlar yangi dasturga moslanadi. Ushbu dastur bilan ishlovchi mutaxassislar o'qitiladi.

Oltinchiso'nggi bosqichda qo'llab-quvvatlash amalga oshiriladi. Bu bosqichda foydalanuvchilarga tavsiyalar beriladi. Shuningdek, foydalanuvchi xohishini inobatga olgan



holda, ish jarayonida yuzaga kelgan kamchilik va takliflar asosida dasturga o'zgartirishlar kiritiladi.



### 3.2. Python dasturlash tilining imkoniyatlari.

Python dasturlash tili yordamida dasturlashni o'rganishni boshlaymiz. Python dunyo miqyosida eng ommalashgan, mukammal dasturiy mahsulotlarni yaratishga mo'ljallangan dasturlash tillaridan biri bo'lib, uning yordamida web-sayt, ilova va o'yinlar yaratiladi. Quyidagi imkoniyatlar bu tilni o'rganish uchun yordamchi omillar hisoblanadi. O'rganish va qo'llashning soddaligi. Python sodda va qulay dasturlash tili bo'lib, boshqa dasturlash tillariga nisbatan uning yordamida dastur tuzish qiyinchilik tug'dirmaydi. Mukammal kutubxonaning mavjudligi. Pythonda dastur tuzish jarayonida kutubxonadagi tayyor funksiyalardan foydalanish mumkin. Bu esa murakkab dasturlarni ham qisqa vaqtda tuzish imkonini beradi.

#### Tayanch tushunchalar

IDLE(Integrated Development and Learning Environment – integrallashgan dasturlash va o'rganish muhiti) – Python tilini o'rganish uchun taqdim etilgan IDE. Interfaol muhit– dastur kodini kiritish, uni fayl sifatida saqlamasdan turib natijasini ko'rish muhiti. Dasturlash muhiti– dastur kodini kiritish, alohida fayl sifatida saqlash va ishga tushirish muhiti.


Operator – dasturlash tili buyruqlari. Mashhur firmalarning ushbu dasturdan foydalanishi. Python mukammal dastur bo'lganligi sababli, bugungi kunda Google, NASA va Pixar kabi firmalar o'z dasturlarini tuzishda undan foydalanishadi. Python interpretatori bepul o'rnatiladi. Ushbu dasturni yuklab olib, kerakli ilovalari bilan bepul ishlatish mumkin. Python dasturlash tilini o'rganish uchun uni o'zining rasmiy saytidan

yuklab olib, keyin o‘rnatish zarur. Python kompyuterga IDLE dasturi bilan birga o‘rnatiladi. IDLE dasturlashni endi boshlaganlar uchun mo‘ljallangan IDE bo‘lib, kod yozish uchun uncha murakkab bo‘lmagan matn muharriri hamda dastur natijasi va xatolarni ko‘rsatib turuvchi oynaga ega.

Python dasturini kompyuterga o‘rnatish bir ngcha bosqichlardan iborat.

1. <https://www.python.org/downloads/windows/> orqali rasmiy veb saytiga

kirib, kompyuteringizning texnik parametrlarini hisobga olgan holda eng so‘nggi versiyasini yuklab olamiz. Kompyuterning texnik parametrlariga, razryadi, (64 bit yoki 32 bit) qaysi operatsion sistema o‘rnatilganligi va boshqa parametrlar kiradi. Biz hozir sizga 64 bitli kompyuter uchun o‘rnatish jarayonini tushuntirib o‘tamiz.






Python dasturini o‘rnatish

1. Pythonning rasmiy saytiga kiriladi. Brauzer qatoriga <http://www.python.org> manzilini kiritib, Downloads bo‘limi tanlanadi.

2. Pythonni yuklab olish. Kompyuter operatsion tizimi (masalan, Windows)ga mos o‘rnatgichning so‘nggi varianti (Python 3.8) yuklab olinadi.

3. O‘rnatish. Yuklab olingan o‘rnatgich fayl ishga tushiriladi va “Установить для всех пользователей” ko‘rsatmasi tanlanadi hamda o‘rnatish jarayonidagi barcha oyna so‘rovlarida “Ngxt” tugmachasi bosiladi.

4. IDLEni ishga tushirish. Dastur xatolarsiz o‘rnatilganligini tekshirish uchun “Пуск” orqali “Все программы” ko‘rsatmasi tanlanadi, Python papkasi ochiladi va IDLE ishga tushiriladi. Dastur kodlarini kiritish uchun Python oynasi ochiladi.



IDLE oynasining ikki xil muhiti mavjud bo‘lib, ular interfaol muhit va dasturlash muhiti deb nomlanadi. IDLEning interfaol muhiti (konsol deb ham yuritiladi) – dastur kodini kiritib, natijasini darhol ko‘rish mumkin bo‘lgan oyna. Bu muhit dastur buyruqlari vazifalarini o‘rganish, kichik dasturlar tuzish, ularning natijasini tezroq ko‘rish uchun ishlatiladi. Interfaol muhitdan kalkulyator sifatida foydalanish ham mumkin.

### 3.3. Python dasturlash tili sintaksisi. Python dasturlash tilida izohlar

IDLEning dasturlash muhiti – dastur kodini kiritish, tahrirlash va ishga tushirish mumkin bo‘lgan oyna. Dastur natijasi interfaol muhitda chiqariladi. Bu muhit katta dasturlarni tuzish jarayonida ularni saqlash va kerakli vaqtda tahrirlash uchun ishlatiladi. Aks holda, dastur kodini takror-takror yozishga to‘g‘ri keladi. Uning yagona kamchiligi – dastur dastlab saqlanadi, undan keyingina ishga tushiriladi. Python dasturlash muhitida birinchi dasturimizni yaratishga harakat qilamiz. Buning uchun `print()` operatoridan foydalanamiz.

`print()` operatoriyordamida o‘zgaruvchi qiymatini ekranga chiqarish mumkin.

IDLE dasturlash muhiti oynasida dastur kodini yozib va saqlab, undan keyin ishga tushirish lozim. Dasturni saqlamasdan turib ishga tushirmang!

Sintaksisi:

**print**(*chiquvchi ma'lumot*)

**print** — operator (yoki funksiya);

**chiquvchi ma'lumot** — ekranga chiqarilishi kerak bo'lgan va vergul bilan ajratilgan o'zgaruvchilar, o'zgarmaslar yoki ifodalar ketma-ketligi.


IDLEning interfaol muhitida dastur tuzish1. IDLE ishga tushiriladi. Bu oyna orqali dastur kodini kiritish, natija va xatolarni ko'rishimiz mumkin.

2. >>>belgisidan so'ng dastur kodi kiritiladi.

Masalan, print ('Salom!');

3. Enter tugmachasini bosib, dastur natijasini ko'rishimiz mumkin.

Yodingizda bo'lsin, keyingi darslarimizda interfaol muhit (konsol oynasi)da dasturlashni quyidagi (moviy) rangda ifodalaymiz:



```
Python 3.8.3 Shell
File Edit Shell Debug Options Window Help
Python 3.8.3 (tags/v3.8.3:6f8c832, May 13 2020, 22:20:19) [MSC v.1925 32 bit (Intel)] on win32
Type "help", "copyright", "credits" or "license()" for more information.
>>> print("salom");
salom
>>>
```

>>> print("salom")  
salom

IDLEning dasturlash muhitida dastur tuzish

1. IDLE ishga tushiriladi. Bu oynada natija va xatolarni ko'rishimiz mumkin. Dastur kodi dasturlash muhitida kiritiladi.

2. Filemenyusidan Ngw Filebuyrug'i tanlanadi. (1)

3. Dasturlash muhiti oynasida dastur kodi kiritiladi. (2)

4. Filemenyusidan Saveyoki Save as buyrug'i tanlanadi. Fayl nomini kiritib, Save tugmachasi orqali dastur saqlanadi.

5. Dasturlash muhiti oynasida Runmenyusida Run Modulebuyrug'i tanlanadi. (3)

6. Natijani IDLE interfaol oynasida ko'rishimiz mumkin.

Yodingizda bo'lsin, keyingi darslarimizda dasturlash muhitida dasturlashni quyidagi (pushti) rangda ifodalaymiz (2):





```
>>> print("salom")
```

Salom

2

```
print("salom")
```

salom



Boshqa dasturlash tillari kabi Pythonda ham turli buyruqlarni kiritish uchun ushbu buyruq sintaksisidan foydalaniladi. Shuningdek, Pythonda kodlashning umumiy qabul qilingan uslubini tavsiflovchi hujjat sifatida PEP8 (Python Enhanced Proposal - Python tilini takomillashtirish bo'yicha takliflar) ham ishlab chiqilgan.

<http://dr.rtm.uz/pep8sahifa> orqali PEP8 ning to'liq tavsifi bilan tanishishingiz mumkin

## 4-mavzu. Python dasturlash tili asoslari.

### Reja.

- 4.1. Python dasturlash tili asoslari, o'zgaruvchilar, ma'lumotlar turlari.
- 4.2. Arifmetik amallar, mantiqiy tip, mantiqiy ifodalar va solishtirish belgilari.
- 4.3. Funksiyalar, lokal va global o'zgaruvchilar, modullar Istisnolarni boshqarish.

#### 4.1. Python dasturlash tili asoslari, o'zgaruvchilar, ma'lumotlar turlari.

**Python** dasturlash tilida jumladan boshqa dasturlash tillarida ham o'zgaruvchilar katta ahamiyatga ega hisoblanadi! **Python** dasturlash tilida boshqa dasturlash tillaridan farqli ularoq tip e'lon qilmaydi, ha aytgancha PHP da ham o'zgaruvchilar e'lon qilinmaydi!

**O'zgaruvchi** - Xotiraning nomlangan qismi bo'lib, o'zida ma'lum bir toifadagi qiymatlarni saqlaydi. O'zgaruvchining nomi va qiymatlari bo'ladi. O'zgaruvchining nomi orqali qiymat saqlanayotgan xotira qismiga murojaat qilinadi. Programma ishlashi jarayonida o'zgaruvchining qiymatini o'zgartirish mumkin. Har qanday o'zgaruvchini ishlatishdan oldin, uni e'lon qilish lozim.

Python dasturlash tilida o'zgaruvchini tipi e'lon qilinmaydi! Dastur kodini yozish jarayonida tipni o'zingiz hohlagan turga o'tkazishingiz mumkin. Buni esa keyingi darslarda ko'rib chiqamiz! Hozir siz bilan dasturlash tilini o'rganish jarayonida qiyinchilikka o'chramasligingiz uchun oddiysidan boshlaymiz!

```
x = 5
y = "Master Sherkulov"
print(x)
print(y)
5
Master Sherkulov
```

O'zgaruvchilarni biron bir aniq turi bilan e'lon qilish shart emas va ular o'rnatilgandan keyin ham turini o'zgartirishi mumkin.

```
x = 4 # x integer turiga mansub
x = "Master Sherkulov" # x string tipi o'zgartirildi. oldingi qiymat yuqoldi!
print(x)
Master Sherkulov
```

#### O'zgaruvchilar nom qo'yish!

O'zgaruvchi qisqa nomga ega bo'lishi mumkin (masalan, x va y) yoki ko'proq tavsiflovchi nom (yosh, karnay, master va h.k). Python o'zgaruvchilar uchun qoidalar:

- O'zgaruvchilar [**a-Z**] harf bilan yoki "\_"pastga belgi bilan boshlanishi zarur!
- O'zgaruvchilar nomi raqam bilan boshlanmaydi!
- O'zgaruvchi [**a-Z**] harf bilan yoki "\_"pastga belgi bilan boshlanib raqamlar ham aralashtirsa bo'ladi. ( \_ali123, son90 va h.k)

- O'zgaruvchi nomida katta va kichik harflar ahamiyatga ega bo'lib misol uchun **Aka** va **aka** ikki xil o'zgaruvchi nomi hisoblanadi! (Aka, aka, AkA, aKA)

PYTHON tilida turli tipdagi o'zgaruvchilardan foydalanish mumkin, shu sababli, har bir tipdagi o'zgaruvchilar qanday tavsiflanishini bilish zarur. PYTHON tilida bitta o'zgaruvchini dastur bajarilishi davomida satr yoki son sifatida ishlatish mumkin. Shu bilan birga PYTHON tilida o'zgaruvchilar bilan ishlanganda oshkor ko'rsatilishi mumkin bo'lgan asosiy ma'lumotlar tiplari to'plami

mavjuE.

- Butun (integer) sonlar – Sonning kasr bo'lmagan son bo'lib, ularda sonning asosi (10 lik), o'n oltilik (asosi 16-prefiksga ega) yoki sakkizlik (asosi 8-prefiksli) sanoq sistemalar ko'rsatiladi.

- Siljuvchi vergulli (float) sonlar – sonning kompyuterda amalga oshiriladigan ekspongntsiol yozuvi. Xuddi shuningdek, “ikkilangan aniqlikga” ega bo'lgan son ham mavjud.

- Satr (string) – simvollar ketma – ketligidan iborat bo'lib, unda har bir simvol bir bayt o'lchamdan, toki maksimal uzunlik 216 gacha bo'lgan joyni egallaydi.

Yakka qavslarga olingan satrlar literallar sifatida qaraladi, ayni paytda ikkilangan qavslar ichidagi satrlar esa (maxsus belgilar, o'zgaruvchilarning qiymatlari va shu kabilar) sifatida talqin qilinadi.

- Bul (boolean) tipi - Mantiqiy ifoda bo'lib, uning qiymati faqat rost (True) yoki yolg'on (False) dan iborat.

- Kompleks (complex) tipi – Sonning birinchi argument sifatida haqiqiy qism, ikkinchi argument sifatida mavhum qism uzatiladi.

- Massiv (array) – bir nechta qiymatlarning tartiblashtirilgan xaritasi bo'lib, undagi kalitlar qiymatlarga mos keladi. Kalitlar – bu indeks nomerlari (ular so'zsiz tushuniladi) yoki aniq ko'rsatilgan nishonlar. misol

- Ob'ekt – bu berilganlarning xossalarini saqlovchi va berilganlarni qayta ishlash metodlaridan iborat bo'lgan sinf.

- Resurs – tashqi resursga havola bo'lib, ular maxsus funksiyalar tomonidan yaratiladi va saqlanadi.

- NULL – qiymatga ega bo'lmagan o'zgaruvchi. Bu o'zgaruvchi, shakllantirilmagan bo'ladi (unga hech bir qiymat berilmagan bo'ladi), agar unga NULL o'zgarvasi ta'minlangan bo'lsa yoki unset() funksiyasi yordamida bekor qilinmagan bo'lsa.

## 4.2. Arifmetik amallar, mantiqiy tip, mantiqiy ifodalar va solishtirish belgilari.

Pythonda, boshqa dasturlash tillaridagi kabi o'zgaruvchilar aniq bir turdagi berilganlarni g' saqlash uchun xizmat qiladi. Pythonda o'zgaruvchilar alfavit belgilari yoki tag chizig'i belgisi bilan boshlanishi va tarkibi son, alfavit belgilari, tag chizig'i belgilaridan iborat bo'lishi, ya'ni bir so'z bilan aytganda identifikator bo'lishi kerak. Bundan tashqari o'zgaruvchi nomi Pythonda ishlatiladigan kalit so'zlar nomi bilan mos tushmasligi shart. Masalan, o'zgaruvchi nomi *and, as, assert, break, class, continue, def, del, elif, else, except, False, finally, for, from, global, if, import, in, is, lambda, Nong, nonlocal, not, or, pass, raise, return, True, try, while, with, yield* kabi kalit so'zlar nomi bilan mos tushishi mumkin emas.

Masalan, o'zgaruvchini aniqlash (hosil qilish) quyidagicha amalga oshiriladi:

Copy

```
a = 14
name = "SDY"
```

Yuqorida *a* va *name* o'zgaruvchilari yaratildi va ularga qiymat berildi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Pythonda o'zgaruvchini dastlab e'lon qilish degan tushuncha mavjud emas (masalan: python tilida *int a* kabi o'zgaruvchi e'lon qilinadi), balki o'zgaruvchi kiritiladi va unga qiymat beriladi (masalan: *a=14*). Berilgan qiymatga ko'ra interpretator o'zgaruvchining turini aniqlaydi. Pythonda o'zgaruvchilarni nomlashning ikki turi: "camel case" va "underscore notation" turlaridan foydalanish tavsiya qilingan.

"camel case" turida o'zgaruvchiga nom berilganda, agar o'zgaruvchi nomi alohida so'zlar birikmasidan tashkil topgan bo'lsa, ikkinchi so'zdan boshlab har bir so'zning birinchi harfi katta harfda (katta registr) bo'lishi talab qilinadi. Masalan:

Copy

```
firstName = "Saidov"
```

"underscore notation" turida esa so'zlar orasiga tag chizig'i "\_" belgisi qo'yiladi. Masalan:

Copy

```
first_name = "Saidov"
```

O'zgaruvchilar biror bir turdagi berilganlarni saqlaydi. Pythonda bir ngcha xildagi berilganlar turlari mavjud bo'lib, ular odatda to'rtta guruhga ajratiladi: sonlar, ketma-ketliklar, lug'atlar va to'plamlar:

*bool* (*boolean*) – True va False mantiqiy qiymatlar uchun;

*int* – butun sonlar uchun, butun turdagi songa kompyuter xotirasida 4 bayt joy ajratiladi;

*float* – suzuvchan nuqtali sonlar (haqiqiy sonlar) uchun, haqiqiy sonlarni saqlash uchun kompyuter xotirasidan 8 bayt joy ajratiladi;



`complex` – kompleks sonlar uchun;

`str` – satrlar uchun, Python 3.x versiyasidan boshlab satrlar bu- Unicode kodirovkasidagi belgilar ketma-ketligini ifodalaydi;

`bytes` – 0-255 diapazondagi sonlar ketma ketligi uchun

`byte array` – baytlar massivi uchun;

`list` – ro'yxatlar uchun;

`tuple` – kortejlar uchun;

`set` – tartiblanmagan unikal ob`ektlar kolleksiyasi uchun;

`frozen set` – set singari, faqat u o'zgartirilishi mumkin emas (immutableE);

`dict` – lug'atlar uchun. Har bir element kalit so'z va qiymat juftligi ko'rinishida ifodalaniladi.

Python –dinamik turlarga ajratuvchi dasturlash tili hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, Pythonda o'zgaruvchi turi unga yuklangan qiymat orqali aniqlanadi. Agarda o'zgaruvchiga bittalik („“) yoki ikkitalik („“,“) qo'shtirnoq yordamida satr yuklansa, o'zgaruvchi `str` turiga ega bo'ladi, agarda o'zgaruvchiga butun son yuklansa – `int`, haqiqiy son yuklansa (masalan: 3.14) yoki eksponentsial ko'rinishdagi qiymat yuklansa (masalan: 11e-1) u `float` turiga ega bo'ladi. Masalan:

Copy

```
user_id = 234 # int
x = 1.2e2 # = 1200.0 float
y = 6.7e-3 # = 0.0067 float
z = 1.223 # float
user_password = "sdy123" # str
b = True # bool
```

Pythonda haqiqiy (float) turidagi o'zgaruvchilar [-10308 , +10308] oraliqdagi sonlar bilan hisoblash ishlarini amalga oshirsa bo'ladi, lekin faqat 18 ta raqamlar ketma-ketligi ko'rinadi (konsol ekraniga chiqarilganda). Ixtiyoriy katta yoki kichik sonlarni o'zgaruvchidagi ifodasi 18 ta belgidan oshib ketsa, u holda eksponentsial orqali yaxlitlab ifodalanadi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, Pythonda o'zgaruvchiga yangi qiymat berish orqali uning turi o'zgartirilishi mumkin. Masalan:

Copy

```
age = 17 # int
print(age)
```

```
age = "o`n etti" # str  
print(age)
```

Ushbu dasturda dastlab `age = 17` ifodasi orqali `age` o'zgaruvchisi `int` turiga ega edi. Keyingi `age = "o`n etti"` ifoda bilan uning turi `str` turiga o'zgartirildi. Bundan keyingi jarayonlarda `age` o'zgaruvchisi eng ohirgi yuklangan qiymat turiga mos bo'ladi.

O'zgaruvchilarning turini aniqlashda `type()` – funksiyasidan foydalaniladi.

Masalan:

Copy

```
age = 17  
print(type(age))
```

```
age = "o`n etti"  
print(type(age))
```

Konsol ekranidagi natija:

```
<class 'int'>  
<class 'str'>
```

### Python dasturlash tilida quyidagi ma'lumot turlari mavjud.

| Code | Result          |
|------|-----------------|
| \'   | Single Quote    |
| \\   | Backslash       |
| \n   | Yangi qator     |
| \r   | Carriage Return |
| \t   | Tab             |
| \b   | Backspace       |
| \f   | Form Feed       |
| \ooo | Octal value     |
| \xhh | Hex value       |

Python dasturlash tilida **type()** Funktsiya yordamida istalgan ob'ekt ma'lumotlarini olishingiz mumkin. misol uchun: `print(type(attributE))`

```
n = 13  
print(type(n))
```

```
<class 'int'>
```

### Maxsus ma'lumot turini o'rnatish

Agar ma'lumotlar turini ko'rsatmoqchi bo'lsangiz, quyidagi konstruktor funksiyalaridan foydalanishingiz mumkin:

|                                                       |                         |
|-------------------------------------------------------|-------------------------|
| <code>x = str("MasterSherkulov")</code>               | <code>str</code>        |
| <code>x = int(13)</code>                              | <code>int</code>        |
| <code>x = float(13.15)</code>                         | <code>float</code>      |
| <code>x = complex(13j)</code>                         | <code>complex</code>    |
| <code>x = list(("KI", "IT", "913-15"))</code>         | <code>list</code>       |
| <code>x = tuple(("KI", "IT", "913-15"))</code>        | <code>tuple</code>      |
| <code>x = range(13)</code>                            | <code>range</code>      |
| <code>x = dict(name="MasterSherkulov", age=24)</code> | <code>dict</code>       |
| <code>x = set(("KI", "IT", "913-15"))</code>          | <code>set</code>        |
| <code>x = frozenset(("KI", "IT", "913-15"))</code>    | <code>frozenset</code>  |
| <code>x = bool(13)</code>                             | <code>bool</code>       |
| <code>x = bytes(13)</code>                            | <code>bytes</code>      |
| <code>x = bytearray(13)</code>                        | <code>bytearray</code>  |
| <code>x = memoryview(bytes(13))</code>                | <code>memoryview</code> |

Pythonda sonlar ustuda amal bajaruvchi ichki funksiyalar juda ko‘p. Xususan, `int()` va `float()` funksiyalari argument sifatida berilgan qiymatlarni mos ravishda butun va haqiqiy sonlarga o‘girish uchun ishlatiladi. Masalan:

Copy

```
a = int(10.0)
print(A) # 10
```

```
b = float("12.3")
print(B) # 12.3
```

```
c = str(12)
print(D) # "12"
```

```
d = bool(D)
print(E) # True
```

Turga keltirish funksiyalari odatda konsol ekranidan kiritilgan qiymatlarni kerakli turga o‘girish (chunki konsoldan kiritilgan ixtiyoriy qiymat `str` turiga tegishli bo‘lishi oldindan qabul qilingan) va ifodalarda bir turdan ikkinchi turga keltirish zarur bo‘lgan hollarda ishlatiladi. Masalan:

Copy

```
son1 = 3
son2 = input()
```

```
print(son1 + son2)
```

Ushbu dastur bajarilishi jarayonida turlar mos kelmasligi (*TypeError: unsupported operand type(s) for +: 'int' and 'str'*) to'g'risidagi xatolik ro'y bergani haqidagi xabarni chiqaradi. Turga keltirish funksiyasidan foydalanib quyidagicha dasturni qayta yozamiz:

Copy

```
son1 = 3
```

```
son2 = "12"
```

```
res = son1 + int(son2) print(res) #15
```

Ushbu dastur konsol ekraniga 15 degan javobni chiqaradi. Demak turga keltirish amali `int()` joyida to'g'ri qallanilgan.

`float()` – turga keltirish funksiyasi ham xuddi yuqoridagidek ishlatiladi. Faqat suzuvchan nuqtali haqiqiy sonlar ustida amallar bajarilganida natija har doim ham biz kutganday bo'lmaydi. Masalan:

Copy

```
son1 = 4.01
```

```
son2 = 5
```

```
son3 = son1 / son2
```

```
print(son3) #0.8019999999999999
```

Ushbu dasturda javob 0.802 chiqishi kerak edi, lekin uni javobi yuqoridagi misolda ko'rinib turganidek 0.8019999999999999 qiymatni ekranga chiqaradi. Bu qiymat hato emas. Haqiqiy sonlarning kompyuter xotirasida saqlanish formati butun sonlarnikidan farqlanadi. Shu sababli suzuvchan nuqtali sonlar qiymati taqriban saqlanadi (absolyut xatolik inobatga olmasa ham bo'ladigan darajada kichik). Shuning uchun haqiqiy sonlarni yahlitlash uchun `round()` funksiyasidan foydalaniladi.

Copy

```
son1 = 4.01
```

```
son2 = 5
```

```
son3 = round (son1 / son2,4)
```

```
print(son3) #0.802
```

`round(a,n)` funksiyasi ikkita parametr qabul qilib, dastlabkisi yahlitlanishi kerak bo'lgan qiymat, ikkinchisi verguldan keyin nechta belgi aniqlikda chiqarilishi kerakligini anglatuvchi son.

### 4.3. Funksiyalar, lokal va global o'zgaruvchilar, modullar Istisnolarni boshqarish.

Funksiyadan tashqarida yaratilgan o'zgaruvchilar (yuqoridagi barcha misollarda bo'lgani kabi) global o'zgaruvchilar deb ataladi.

Global o'zgaruvchilar funksiyalar ichida ham, tashqarisida ham hamma tomonidan foydalanishi mumkin.

Funksiya tashqarisida o'zgaruvchi yaratish va undan funksiya ichida foydalanish:

Copy

```
x = "awesome"
```

```
def myfunc():
```



```
print("Python is " + x)
myfunc()
```

Agar funksiya ichida ham global o'zgaruvchi nomi bir xil nomdagi o'zgaruvchi yaratsangiz, bu o'zgaruvchi local o'zgaruvchi bo'ladi va u faqat funksiya ichida ishlatilishi mumkin. Xuddi shu nomdagi global o'zgaruvchi avvalgidek, global bo'lib qoladi va qiymatini yo'qoymaydi.

Funksiya ichida global o'zgaruvchi nomi bilan bir xil bo'lgan o'zgaruvchi yaratish:  
Copy

```
x = "awesome"
def myfunc():
    x = "fantastic"
    print("Python is " + x)
myfunc()
print("Python is " + x)
```

### **Global kalit so'zi**

Odatda, funksiya ichida o'zgaruvchi yaratganingizda, bu o'zgaruvchi local holatda bo'ladi, va faqatgina funksiya ichida ishlatilishi mumkin.

Funksiya ichida global o'zgaruvchi yaratish uchun, global kalit so'zidan foydalanishingiz mumkin.

Agar siz global kalit so'zdan foydalansangiz, o'zgaruvchi global qamrovga tegishli bo'ladi:

Copy

```
def myfunc():
    global x
    x = "fantastic"
myfunc()
```

```
print("Python is " + x)
```

Bundan tashqari, global o'zgaruvchi qiymayini funksiya ichida o'zgartirmoqchi bo'lsangiz, global kalit so'zdan foydalaning.

Global o'zgaruvchini funksiya ichida o'zgartirish uchun, o'zgaruvchiga global kalit so'zi orqali murojaat qilish:

Copy

```
x = "awesome"
def myfunc():
    global x
    x = "fantastic"
myfunc()
print("Python is " + x)
```

## 5-mavzu. Python dasturlash tili alfaviti va ma'lumot turlari

### Reja.

- 5.1. Python tili sintaksisi, asosiy operatorlari,
- 5.2. Bir nechta maxsus holatlar, O'zgaruvchilar, Operatorlar va ifodalar.
- 5.3. Python dasturlash tilida arifmetik operatorlar. O'zlashtirish operatorlari.
- 5.4. Python dasturlash tilida ma'lumot turini aniqlash. Ma'lumot turlarini o'rnatish.
- 5.5. Aniq ma'lumot turini o'rnatish.
- 5.6. Python dasturlash tilida sonlar. Int (butun sonlar). Float (haqiqiy sonlar). Complex (kompleks sonlar).
- 5.7. Sonlarni o'girish. Tasodifiy son (random moduli).

### 5.1. Python tili sintaksisi, asosiy operatorlari.

Arifmetik amallar va qiymat berish operatori. Berilganlarni qayta ishlash uchun PYTHON tilida amallarning juda keng majmuasi aniqlangan. Amal - bu qandaydir harakat bo'lib, u bitta (unar) yoki ikkita (binar) operandlar ustida bajariladi, hisob natijasi uning qaytariluvchi qiymati hisoblanadi. Tayanch arifmetik amallarga qo'shish (+), ayirish (-), ko'paytirish (\*), bo'lish (/), darajaga ko'tarish (\*\*) va bo'lish qoldig'ini olish (%) amallarini keltirish mumkin. Amallar qaytaradigan qiymatlarni o'zlashtirish uchun qiymat berish amali (=) va uning turli modifikatsiyalari ishlatiladi: qo'shish, qiymat berish bilan (+); ayirish, qiymat berish bilan (-); ko'paytirish qiymat berish bilan (\*); bo'lish, qiymat berish bilan (/); bo'lish qoldig'ini olish, qiymat berish bilan (%) va boshqalar. Ularning umumiy ko'rinishlariga to'xtalamiz. Razryadli mantiqiy amallar. Dastur tuzish tajribasi shuni ko'rsatadiki, odatda qo'yilgan masalani yechishda biror holat ro'y berganligini yoki yo'qligini ifodalash uchun 0 va 1 qiymat qabul qiluvchi bayroqlardan foydalaniladi. Shu maqsadda bir yoki undan ortiq baytli o'zgaruvchilardan foydalanish mumkin. Masalan, bool (mantiqiy) tupdagi o'zgaruvchini shu maqsadda ishlatib bo'ladi. Boshqa tomondan, bayroq sifatida baytning razryadlaridan foydalanish ham mumkin. Chunki razryadlar faqat ikkita qiymatni – 0 va 1 sonlarini qabul qiladi. Bir baytda 8 razryad bo'lgani uchun unda 8 ta bayroqni kodlash imkoniyati

#### Arifmetik operatorlar

Biz bilgan matematik amallarni bajarish uchun arifmetik operatorlardan foydalaniladi.

```
void main() {  
int x = 6, y = 8;  
print(y / x); // bu kabi bo'lishda natija butun va kasr qismdan iborat  
print(y ~/ x); // bu kabi bo'lishda esa faqat butun qism olinadi  
print(y % x); // qoldiq bo'lish ya'ni qoldiq topiladi  
}
```

```
>> 1.3333333333333333
```

```
>> 1
>> 2
```

Qolgan barcha arifmetik operatorlar ishlashi bilan o'zingiz bir tanishib chiqasiz.

### **Tayinlash operatorlari**

O'zgaruvchilarga qiymat berish uchun tayinlash operatorlari foydalaniladi. Masalan, += qiymatni oshirish operatoridan foydalanib o'zgaruvchini qiymatini oshirishni bir misol orqali ko'rib o'taylik :

```
void main() {
int number = 8;
number += 5;
print(number);
}
```

```
>> 13
```

## **5.2. Bir nechta maxsus holatlar, O'zgaruvchilar, Operatorlar va ifodalar.**

Razryadli mantiqiy amallar. Dastur tuzish tajribasi shuni ko'rsatadiki, odatda qo'yilgan masalani yechishda biror holat ro'y berganligini yoki yo'qligini ifodalash uchun 0 va 1 qiymat qabul qiluvchi bayroqlardan foydalaniladi. Shu maqsadda bir yoki undan ortiq baytli o'zgaruvchilardan foydalanish mumkin. Masalan, bool (mantiqiy) tupdagi o'zgaruvchini shu maqsadda ishlatish bo'ladi. Boshqa tomondan, bayroq sifatida baytning razryadlaridan foydalanish ham mumkin. Chunki razryadlar faqat ikkita qiymatni – 0 va 1 sonlarini qabul qiladi. Bir baytda 8 razryad bo'lgani uchun unda 8 ta bayroqni kodlash imkoniyati mavjud. Quyidagi jadvalda Python tilida bayt razryadlari ustida mantiqiy amallar majmuasi keltirilgan.


Bayt razryadlari ustida mantiqiy amalla

| Amallar                      | Mazmuni                    |
|------------------------------|----------------------------|
| <b>And</b> yoki <b>&amp;</b> | Mantiqiy VA (ko'paytirish) |
| <b>Xor</b> yoki <b> </b>     | Mantiqiy yoki (qo'shish))  |
| <b>Or</b> yoki <b>^</b>      | Istisno qiluvchi YOKI      |


Razryadli mantiqiy amallarning bajarish natijalarini jadval ko'rinishida ko'rsatish mumkin.

| A | B | A&B | A B | A^B |
|---|---|-----|-----|-----|
| 0 | 0 | 0   | 0   | 0   |
| 0 | 1 | 0   | 1   | 1   |
| 1 | 0 | 0   | 1   | 1   |
| 1 | 1 | 1   | 1   | 0   |

Razryadli mantiqiy amallarni bajarish natijalari

|                                                                                                                                 |                                                                                    |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------|
| <pre> a=int(input('a=')) b=int(input('b=')) print(a,'&amp;',b,'=',a&amp;b) print(a,' ',b,'=',a b) print(a,'^',b,'=',a^b) </pre> |  |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------|

**1.1-masala.** A butun soni berilgan. Jumlani rostlikka tekshiring: “A soni toq son”.

|                                                     |                                                                                      |
|-----------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------|
| <pre> a=int(input('a=')) print(bool(a%2==1)) </pre> |  |
|-----------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------|

**Operator** – bu ma’lum bir vazifa bajarishga qaratilgan buyruq.

### Taqqoslash operatorlari

Taqqoslash operatorlari ikkita qiymatni yoki o‘zgaruvchilarni solishtirish uchun ishlatiladi. Taqqoslashda qaytariladigan qiymat 0 yoki 1, True (1) va False (0) degan ma’noni anglatadi. Bu biz ishlashimiz uchun juda foydali. Chunki kompyuterga berilgan buyruqlar shu tarzda ishlaydi.

```

void main() {
int x = 6, y = 8;
print("x == y | ${x == y}");
}

```

```
>> x == y | False
```

### Mantiqiy operatorlar



Mantiqiy operatorlar yordamida rost yoki yolgʻon qiymatlarni tekshiringiz mumkin. Mantqiy operatorlar oʻzgaruvchilar yoki qiymatlar orasidagi mantiqni aniqlash uchun ishlatiladi. Agarda matematika fanida siz dizyunksiya, konyunksiya va inkor mantiqiy amallari bilan ishlashni oʻrgangan boʻlsangiz umuman qiynalmaysiz foydalanishda. Bu operatorlar qoʻllanilganda natija doim **True** yoki **False** boʻladi.

```
void main() {  
int x = 6, y = 8;  
var and = x < 5 && y < 10;  
print(ang);  
  
var not = !(x < 5 && y < 10);  
print(not);  
}
```

```
>> False  
>> True
```

### 5.3. Python dasturlash tilida arifmetik operatorlar. Oʻzlashtirish operatorlari.

Murakkab shartli ifodalarni yozish, odatda mantiqiy amallar yordamida amalga oshiriladi. Pythonda quyidagi mantiqiy operatorlar mavjud:

*and* (mantiqiy koʻpaytirish). Murakkab ifodadagi biror bir qism ifodani qiymati *False* boʻlsa, ifodaning yakuniy qiymati *False*, aks holda *True* qiymat qaytaradi. Masalan:

Copy

```
yoshi = 21  
vazni = 72  
natija = yoshi > 17 and vazni == 72  
print(natijA) # True
```

Yuqoridagi dasturda murakkab mantiqiy amal ikki qismdan yoshi > 17 va vazni > 56 qismlardan tashkil topgan boʻlib, ular *and* mantiqiy operatori bilan birlashtirilgan. Agarda ikkala mantiqiy amal *True* qiymat qaytarsa ifodaning qiymati *True* boʻladi, aks holda *False* qiymat qaytaradi.

Matriqiy ifodalarda faqatgina taqqoslash amallaridan foydalanish shart emas. Ixtiyoriy mantiqiy amal yoki *boolean* turidagi qiymatlar (*True*, *False*) ham ishlatilishi mumkin. Masalan:

Copy

```
yoshi = 21  
vazni = 72 t = True  
natija = yoshi > 17 and vazni > 56 and t  
print(natijA) # True
```

*or* (mantiqiy qoʻshish). Agarda ifodadagi biror bir qism ifoda *True* qiymat qaytarsa, yakuniy natija ham *True*, aks holda *False* boʻladi.

Copy

```
yoshi = 21 t = False  
natija = yoshi > 17 or t  
print(natija) # True
```

*not* (mantiqiy inkor). Ifodaning qiymatini *True* bo'lsa, natija *False* va aksincha.

Copy

```
yoshi = 21 t = False  
print(not yoshi > 17) # False  
print(not t) # True
```

*and* operatorining biror bir operandi *False* qiymatga ega bo'lsa, u holda boshqa operand qiymati tekshirib (hisoblaniB) o'tirilmaydi, har doim natija *False* bo'ladi. Bunday xususiyat ish unumdorligini bir oz bo'lsada oshirish imkonini beradi. Xuddi shunaqa xususiyat *or* operatori uchun ham o'rinli. Ya'ni *or* operatorining biror bir operandi qiymati *True* qiymatga ega bo'lsa, boshqa operandlar tekshirilmaydi, natija sifatida har doim *True* qiymati qaytariladi.

Agar bitta ifodada bir nechta mantiqiy operatorlar qatnashgan bo'lsa, u holda ularning ustunligiga (prioritetigA) alohida e'tibor qatarish kerak. Dastlab *not* operatori keyin *and* va eng so'ngra *or* operatori bajariladi. Masalan:

Copy

```
yoshi = 22 xolati = False vazni = 58  
natija = vazni == 58 or xolati and not yoshi > 21 # True  
print(natija)
```

Ushbu dasturda keltirilgan ifodadagi mantiqiy amallar quyidagi ketma- ketlikda bajariladi:

1. *not yoshi > 21* mantiqiy ifoda *False* qiymat qaytaradi;
2. *xolati and False (not yoshi > 21)* esa *False* qiymat qaytaradi;
3. *vazni == 58 or True (xolati and not yoshi > 21)* esa *True* qiymat qaytaradi.

Shuni alohida ta'kidlash kerarki, mantiqiy ifodalarda mantiqiy amallarning bajarilish ketma- ketligini qavslar (, ) yordamida o'zgartirish mumkin.

Operatorlar o'zgaruvchilar va qiymatlar ustida turli amallarni bajarish uchun ishlatiladi.

### Bitli operatorlar

Sonlar ustida ikkilik sanoq sistemasi asnosida amallar bajarishda bitli operatorlardan foydalaniladi. Bitli operatorlar oddiy operatorlarga nisbatan ishlashi ~66% ga tezroqdir. Bitli operatorlar ishlashi Bul algebrasida asoslanadi.

Bitli va (&) operatori ishlashini qisqacha ko'rib o'tsak,

2 & 3 = 2, bunda sonlar avval ikkilik sanoq sistemasiga o'tkazib olinadi. 10 & 11 qilib keyin operator o'z vazifasini bajaradi. & – konyunksiya bo'lib, 1 & 1 = 1, 1 & 0 = 0 natija 0 bo'ladi va uni o'nlikka o'tkazilganda 2 chiqadi.

Operatorlar tuzilishiga ko'ra 2 ta turga bo'linadi : unar va binar.

Unar operatorlar bitta operanddan, binar operatorlar esa ikkita operanddan tashkil topadi.

x & y – misolini olsak, bunda x va y operandlar hisoblanadi. & esa operator va uning ikki tomonida ham operand borligi uchun binar operatorga kiradi. Unar operatorlarda chap tomonida hech qanday operand bo‘lmaydi. Masalan, !x ifodasi.

### **Inkrement va dekrement amallari**

O‘zgaruvchi qiymatini o‘zgartirish uchun ishlatilovchi amallar hisoblanadi. Hamda bular 2 turga bo‘linadi : postfiks (keyin) va prefiks (oldin).

Bu amallar ishlashdagi farqlar qandayligini ko‘rib ketsak,

```
// Postfiks inkrement
void main() {
var x = 5;
var y = x++;
print("$x $y");
}
```

```
>> 6 5
```

Birinchi x qiymati y ga o‘zlashtiriladi va keyin x ning qiymati 1 ga ortadi.

```
// Prefiks inkrement
void main() {
var x = 5;
var y = ++x;
print("$x $y");
}
```

```
>> 6 6
```

Birinchi x ning qiymati 1 ga ortadi va keyin x qiymati y ga o‘zlashtiriladi.

```
// Postfiks dekrement
void main() {
var x = 5;
var y = x--;
print("$x $y");
}
```

```
>> 4 5
```

Birinchi x qiymati y ga o‘zlashtiriladi va x ning qiymati 1 ga kamayadi.

```
// Prefiks dekrement
void main() {
var x = 5;
var y = --x;
print("$x $y");
}
```

Birinchi x ning qiymati 1 ga kamayadi va keyin x qiymati y ga o‘zlashtiriladi.

#### 5.4. Python dasturlash tilida ma’lumot turini aniqlash. Ma’lumot turlarini o‘rnatish.

##### Standart ma'lumotlar turlari

Dasturlashda ma'lumotlar turi muhim tushunchadir.

O‘zgaruvchilar har xil turdagi ma'lumotlarni saqlashlari mumkin, va ular bilan turli xil amallarni qilish mumkin.

Python standart o‘rnatilgan quyidagi ma'lumotlar turlariga ega:

1. Matnli ma'lumot turi: str
2. Sonli ma'lumot turlari: int, float, complex
3. Tartibli ma'lumot turlari: list, tuple, range
4. Lug‘atli ma'lumot turi: dict
5. To‘plamli ma'lumot turlari: set, frozenset
6. Boolean(to‘g‘ri/noto‘g‘ri) ma'lumot turi: bool
7. Binar(ikkilik) ma'lumot turlari: byte, bytearray, memoryview

Hozircha yuqoridagilar haqida qayg‘urmasangiz ham bo‘ladi, bu shunchaki qanday ma'lumotlar turlari borligi haqida tanishib chiqishingiz uchun. Ma'lumot turlari haqida keyinchalik alohida batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

##### Ma'lumotlar turini aniqlash

Ma'lumot turini bilib olish uchun type() funksiyasidan foydalanishingiz mumkin. Istalgan ma'lumotlarni turini bilib olishingiz mumkin:

```
x = 10
```

```
print(type(x))
```

Yuqoridagi misolda type(x) ifodasi x ning turini matn ko‘rinishida qaytaradi va uni konsolda yozib chiqarish uchun doimgidek print() funksiyasidan foydalanamiz.

----> O‘zingiz sinab ko‘ring <----

##### Ma'lumotlar turini belgilash

Python-da, o‘zgaruvchiga qiymat tayinlaganingizda ma'lumotlar turi o‘rnatiladi:

NamunaMa'lumot turiSinab ko‘ring

```
x = "Hello World"strTry it »
```

```
x = 20intTry it »
```

```
x = 20.5floatTry it »
```

```
x = 1jcomplexTry it »
```

```
x = ["apple", "banana", "cherry"]listTry it »
```

```
x = ("apple", "banana", "cherry")tupleTry it »
```

```
x = range(6)rangeTry it »
```

```
x = {"name": "John", "age": 36}dictTry it »
```

```
x = {"apple", "banana", "cherry"}setTry it »
```

```
x = frozenset({"apple", "banana", "cherry"})frozensetTry it »
```

```
x = TrueboolTry it »
```

```
x = b"Hello"bytesTry it »
```

```
x = bytearray(5)bytearrayTry it »  
x = memoryview(bytes(5))memoryviewTry it »
```

### Maxsus ma'lumot turini o'rnatish

Agar ma'lumotlar turini ko'rsatmoqchi bo'lsangiz, quyidagi konstruktor funktsiyalaridan foydalanishingiz mumkin:

#### 5.5. Aniq ma'lumot turini o'rnatish.

Python interpretatorida yuqorida operator va ifodalar mavzusida ko'rib chiqqan barcha operatorlarni oddiy matematika kursida ishlatilganidek bajarilishini ko'rdik. Yab<sup>TM</sup>ni ko'paytirish, qo'shish, ayirish, bo'lish, darajaga ko'tarish va hokazo. Endi esa butun sonlar ustida bajarish mumkin bo'lgan qo'shimcha metodlarni ko'ramiz.

`int.bit_length()`- sonni oldidagi ishora va nollarni hisobga olmasdan uni ikkilik sanoq sistemasida taqdim etish uchun kerakli bo'lgan bitlar soni.

```
>>> n=-37  
>>> bin(n)  
'-0b100101'  
>>> n.bit_length()  
6
```

`int.to_bytes(length, byteorder, *, signed=False)`-shu sonni taqdim etuvchi baytlar atorini qaytaradi.

```
>>> (1024).to_bytes(2, byteorder='big')  
b'\x04\x00'  
>>> (1024).to_bytes(10, byteorder='big')  
b'\x00\x00\x00\x00\x00\x00\x00\x00\x04\x00'  
>>> (-1024).to_bytes(10, byteorder='big', signed=True)  
b'\xff\xff\xff\xff\xff\xff\xff\xff\xfc\x00'  
>>> x=1000  
>>> x.to_bytes((x.bit_length() // 8) + 1, byteorder='little')  
b'\xe8\x03'
```

classmethod `int.from_bytes(bytes, byteorder, *, signed=False)`-berilgan baytlar qatoriga mos sonni qaytaradi.

```
>>> int.from_bytes(b'\x00\x10', byteorder='big')  
16  
>>> int.from_bytes(b'\x00\x10', byteorder='little')  
4096  
>>> int.from_bytes(b'\xfc\x00', byteorder='big', signed=True)  
-1024  
>>> int.from_bytes(b'\xfc\x00', byteorder='big', signed=False)  
64512  
>>> int.from_bytes([255, 0, 0], byteorder='big')  
16711680
```

### Haqiqiy sonlar

Haqiqiy sonlar ham butun sonlar qo'llab quvvatlovchi operatsiyalarni qo'llab quvvatlaydi. Haqiqiy sonlarni ishlatilishiga oddiy misol:



```

>>> c=150
>>> d=12.9
>>> c+d
162.9
>>> k=abs(d-c) # sonning moduli
>>> print(k)
137.1
>>> round(k) # yaxlitlash
137

```

Haqiqiy sonlar ustida amal bajarishda foydalanish mumkin bo'lgan qo'shimcha metodlar:

float.as\_integer\_ratio- shu haqiqiy son bilan juftlik munosabatida bo'lgan butun son.

float.is\_integer()- ko'rsatgich butun son bo'lish bo'lmasligini tekshiradi.

float.hex()-float ni hex ga (o'n oltilik sanoq sistemasigA) o'tkazadi. classmethod float.fromhex(s)- o'n oltilik sanoq sistemasidan floatga otkazadi. YabT™ni float.hex() ni teskarisi.

```

>>> (12.9).is_integer()
False
>>> (13.0).is_integer()
True
>>> (13.0).as_integer_ratio()
(13, 1)
>>> (10.5).hex()
'0x1.5000000000000p+3'
>>> float.fromhex('0x1.5000000000000p+3')
10.5

```

Pythonda sonlar bilan ishlaydigan standart metodlardan tashqari bir qancha modullar ham bor. Math moduli- murakkab matematik funksiyalarni taqdim etadi:

```

>>> import math
>>> math.pi
3.141592653589793
>>> math.sqrt(81)
9.0

```

Random moduli tasodifiy sonlar gengratorini tasodifiy tanlov funksiyasini amalga oshiradi:

```

>>> import random
>>> random.random()
0.3974041754203669

```

## 5.6. Python dasturlash tilida sonlar. Int (butun sonlar). Float (haqiqiy sonlar). Complex (kompleks sonlar).

Pythonda kompleks sonlar ustida arifmetik amallarni butun va haqiqiy sonlar ustida bajarilgani kabi oddiy bajarish mumkin yani matematika kursida kompleks sonlar ustida arifmetik amallar qanday bajarilsa xuddi shunga o'xshab bajariladi.

```

>>> x=complex(1,2)
>>> print(x)
(1+2j)
>>> y=complex(3,4)
>>> print(y)
(3+4j)
>>> z=x+y
>>> print(z)
(4+6j)
>>> z=x*y
>>> print(z)
(-5+10j)
>>> z=x/y
>>> print(z)
(0.44+0.08j)
>>> print(x.imag)# Mavhum qismi chiqaradi
2.0
>>> print(x.real)# Haqiqiy qismni chiqaradi
1.0
>>> pow(3+4j,2)# Darajasini hisoblaydi
(-7+24j)
>>> abs(3+4j)# Kompleks sonni moduli
5.0
>>>

```

### 5.7. Sonlarni o‘g‘irish. Tasodifiy son (random moduli).

Python **random()** tasodifiy raqamni hosil qilish funktsiyasiga ega emas , ammo Python **random** tasodifiy raqamlarni chiqarish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan ichki modulga ega :

```
import random
```

```
print(random.randrange(1, 10))
```

## 6-mavzu. Python dasturlash tilida satrlar

### Reja.

- 6.1. Python dasturlash tilida satrni o'zgaruvchiga biriktirish. Ko'p qatorli satr, Satr – bu massiv.
- 6.2. Satrga oid funksiyalar. Satrlarni tekshirish.
- 6.3. Satrlar formati. Maxsus belgilar.

#### 6.1. Python dasturlash tilida satrni o'zgaruvchiga biriktirish. Ko'p qatorli satr. Satr – bu massiv.

Python dasturlash tilida satrlar bitta yoki ikki qo'sh tirnoq ichida yoziladi. **'Salom'** bilan **"Salom"** ikkisi ham bir xil hisoblanadi. Satrni qora ekranga chiqarish uchun **print()** funksiyasidan foydalanishingiz mumkin.

```
print("Salom")  
print('Salom')
```

```
Salom  
Salom
```

#### Satr turiga ega o'zgaruvchi yaratish.

Bir qatorli satrni o'zgaruvchiga biriktirish uchun to'g'ridan to'g'ri python dasturlash tilida uchramaydigan kalit so'zlarni ishlatmagan holda yozib ketsangiz bo'ladi.

```
a = "Hello"  
print(A)
```

```
Hello
```

#### Ko'p qatorli satrni o'zgaruvchiga biriktirish.

Ko'p qatorli satrni biriktirish uchun 3 ta tirnoq tarkibida yozish imkoni mavjud. quyidagi misolga e'tibor bering.

```
a = """  
Assalomu alaykum bugun siz bilan Python dasturlashini boshlaymiz.  
Ustozinigiz yoki Yo'l boshchingiz.  
Master Sherkulov  
"""  
print(A)
```

```
Assalomu alaykum bugun siz bilan Python dasturlashini boshlaymiz.  
Ustozinigiz yoki Yo'l boshchingiz.  
Master Sherkulov
```

#### Satrlar massiv hisoblanadi.

Boshqa ko'plab dasturlash tillari singari Python dasturlash tilida satrlar ifodalashda baytlardan iborat hisoblanadi. Biroq Python dasturlash tilida belgilar bo'yicha ma'lumot turlari mavjud emas, bitta belgini uzunligini shunchaki 1 deb qabul qilasiz. **[]** kvadrat qavs ichida ma'lumotlar ifodalanadi.

```
a = "Hello, World!"
```

```
print(a[1])
```

Satrni ma'lum bir qismini qirqib olish va uni biron bir o'zgaruvchiga yuklash uchun yoki bo'lmasam ekranga print qilish uchun kvadrat qavs ichiga boshlanishi va tugashini yozamiz va ikkitali nuqta orqali bir biridan ajratiladi. **[boslanish: tugash]**

```
b = "Hello, World!"
```

```
print(b[2:5])
```

**llo**

Teskari qirqish uchun `-` dan foydalanamiz. Bunda oxirgi simbol indeksi birinchi yoziladi.

```
b = "Hello, World!"
```

```
print(b[-5:-2])
```

**orl**

**Qator uzunligini olish uchun `len()` funksiyadan foydalaning .**

```
a = "Hello, World!"
```

```
print(len(A))
```

**13**

**Satrni barcha elementlarini kichik qillish uchun `lower()` funksiyasidan foydalaniladi.**

```
a = "Hello, World!"
```

```
print(A.lower())
```

**hello, world!**

**Satrni barcha elementlarini katta qillish uchun `upper()` funksiyasidan foydalaniladi.**

```
a = "Hello, World!"
```

```
print(A.upper())
```

**HELLO, WORLD!**

**Satrlarda ishlatiladigan belgilar.**

Maxsus belgilar: Pythonda boshqa tillardagi kabi quyidagi maxsus belgilar mavjud:

– tabulyatsiya belgisi;

– yangi satrga o'tish belgisi;

`\'` – apostrof belgisi;

`\''` – qo'shtirnoq belgisi.

Quyidagi misolda yuqoridagi barcha maxsus belgilarni qo'llangan holat uchun dastur keltirilgan.

Copy

```
print("1-chi kurs\n\"O'MU\" talabasi")
```

Konsol ekraniga quyidagicha natija chiqariladi:

```
1-chi kurs
```

```
"O'MU" talabasi
```

Satrlarni taqqoslash: Satrlarni taqqoslashda satrda ishtirok etayotgan belgilarning registriga alohida e'tibor qaratish lozim. Har qanday raqam ixtiyoriy alfavit belgisidan shartli kichik hamda katta registrli alfavit belgilari kichik registrli avfavit belgilaridan shartli kichik sanaladi. Masalan:

Copy

```
str1 = "1a"
str2 = "ab"
str3 = "Aa"
print(str1 > str2) # False, chunki str1 ning birinchi
                  # belgisi raqam
print(str2 > str3) # True, chunki str2 ning birinchi
                  # belgisi kichik registrga ega
```

Yuqoridagi dasturda `"1a">"ab"` sharti *False* qiymat qaytaradi. Chunki raqam alfavit belgisidan shartli kichik hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ikki satr solishtirilganda ularning mos tarkibiy elementlari solishritiladi(`"1a">"ab"` holatda, dastlab 1 va "a" tekshiriladi). Agarda solishtirish natijasi teng bo'lsa navbatdagi mos elementlari solishtiriladi. Jarayon birinchi teng bo'lmagan holat topilganda yoki satrlardan birining oxiriga yetib kelinganda tugatiladi. Agar satrlarning dastlabki barcha mos elementlari teng, faqat ularning uzunliklari farqli bo'lsa, u holda uzunligi katta satr shartli katta bo'ladi.

Masalan: `"abcd"<"abcde"` sharti *True*

Bundan tashqari satrlar ustuda amal bajaradigan `upper()` va `lower()` funksiyalari mavjud bo'lib, satr tarkibidagi alfavit belgilarni mos ravishda kichik va katta registrli lariga almashtirish uchun ishlatiladi. Masalan:

Copy

```
str1 = "Kitob"
str2 = "kitob"
print(str1 == str2) # False - chunki ularni birinchi
                  # harflari turli registrda
print(str1.lower() == str2.lower()) # True chunki ikkala
                  # satr ham kichik registrga keltirilgan
```

## 6.2. Satrga oid funksiyalar. Satrlarni tekshirish.

Massiv bir vaqtning o'zida bir nechta qiymatlarni o'z ichiga oladigan maxsus o'zgaruvchidir. masalan quyidagi misolga qarang.

```
cars = ["Ford", "Volvo", "BMW"]
```

### Massiv elementlarini o'qish

Massiv elementlarini o'qish jarayonida siz **indeks** ga murojaat qilishinigiz kifoya.

```
print(cars[0])
```

**Ford**

**Eslatma:** Massiv elementlari **0** dan indekslanadi.

### Massive uzunligi

Massiv uzunligi `len()` ko'makchi funksiyasidan foydalanib topish mumkin.



```
x = len(cars)
```

3

### Massiv elementlarini alohida o'qish

**for in** kommandasidan foydalanib massiv elementlarini ajratib alohida print qilishingiz mumkin.

```
for x in cars:  
    print(x)
```

**Ford**  
**Volvo**  
**BMW**

### Massivga element qo'shish

**append()** Massivga element qo'shish uchun usuldan foydalanishingiz mumkin. Quyidagi misol ga etiboringiz qarating.

```
cars.append("UzAvto ;(")
```

**Ford**  
**Volvo**  
**BMW**  
**UzAvto ;(**

### Massivga element olib tashlash.

**pop()** va **remove()** ko'makchi funksiyalaridan foydalanishingiz mumkin.

```
cars.pop(1)  
cars.remove("UzAvto ;(")
```

## 6.3. Satrlar formati. Maxsus belgilar.

Satr Unicode kodirovkasidagi belgilar ketma-ketligini ifodalashda qo'llaniladi. Satrlarning alohida belgilariga kvadrat qavs ichida indekslarini ko'rsatish orqali murojaat qilishimiz mumkin:

Copy

```
string = "hello world" c0 = string[0] # h print(c0)
```

```
c6 = string[6] # w
```

```
print(c6)
```

```
c11 = string[11] # xatolik IndexError: satr indeksi chegaradan chiqib ketdi
```

```
print(c11)
```

Indekslash noldan boshlanadi, shuning uchun satrning birinchi belgisi 0 indeksiga ega bo'ladi. Agar satrda mavjud bo'lmagan indeksga murojaat qilinsa, *IndexError* istisno xatoligi yuzaga keladi. Masalan, yuqoridagi holatda, satr 11 ta belgidan iborat bo'lib, uning belgilari 0 dan 10 gacha indekslarga ega bo'ladi

Satrni oxirdan boshlab uning belgilariga murojaat qilish uchun manifiy indekslashdan foydalanish mumkin. Ya'ni, satrdagi eng oxirgi belgini -1 index orqali, oxirdan bitta oldingi belgisini -2 indeks orqali va hakoza tartibda olish mumkin.

Copy

```
string = "hello world" c1 = string[-1] # d print(c1)
c5 = string[-5] # w
print(c5)
```

Satrlar o'zgaraydigan (immutable) tur hisoblanadi, shuning uchun ham satrni o'zgartirishga harakat qilinsa xatolik yuzaga keladi, masalan:

Copy

```
ss = "hello world"
ss[1] = "R"
```

Bu erda `ss` satrning 2-chi belgisiga yangi qiymat berish uchun `ss[1] = "R"` tarzda amal yozilgan. Natijada xatolik ro'y beradi. Chunki satr tarkibidagi belgilarni uning indeksi orqali o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

Faqatgina satrga boshqa qiymat yozish orqali satrni to'liq o'zgartira olamiz.

### Satr ostilarini olish

Agar zarur bo'lsa, satrdan nafaqat bitta belgini, balki satr ostisini ham olishimiz mumkin.

Buni amalga oshirish uchun quyidagi sintaksisdan foydalanamiz:

- `string[: end]` – 0-indeksdan boshlab `end`gacha belgilar ketma-ketligini oladi;
- `string[start: end]` – `start` indeksdan `end` indeksigacha bo'lgan belgilarni oladi;
- `string[start: end: step]` – `step` qadam bilan `start` indeksdan boshlab `end` indeksigacha bo'lgan belgilar ketma-ketligini oladi.

Satr ostisini olish uchun barcha variantlardan foydalanamiz:

Copy

```
string = "hello world"
# 0 dan 5 gacha belgilar sub_string1 = string[:5]
print(sub_string1) # hello
# 2 dan 5 gacha belgilar sub_string2 = string[2:5]
print(sub_string2) # llo
# 2 dan 9 gacha bitta belgi tashlab
sub_string3 = string[2:9:2]
print(sub_string3) # lowr
ord va len funksiyalar
```

Agar satr Unicode belgilaridan tashkil topgan bo'lsa, u holda `ord()` funksiyasi yordamida belgining Unicode kodlashdagi sonli qiymatini olish mumkin:

Copy

```
print(ord("A")) # 65
```

Satr uzunligi (satrdagi belgilar soni)ni olish uchun `len()` funksiyasidan foydalanish mumkin:

Copy

```
string = "hello world"
length = len(string) print(length) # 11
```

### Satrdan izlash

Satrdan `term` satr ostisini qidirish uchun `term in string` ifodasidan foydalanamiz. Agar satr ostisi topilsa ifoda `True` qiymat qaytaradi, aks holda `False` qiymat qaytaradi:

Copy

```
string = "hello world" exist = "hello" in string
print(exist) # True
```

```
exist = "sword" in string print(exist) # False
```

Satrlarni ajratish

*for* sikl operatori yordamida satrning barcha elementlarini ajratib olish mumkin:

Copy

```
string = "hello world" for char in string:
```

```
print(char)
```

## 7-mavzu. Python dasturlash tilida ma'lumot to'plamlari va turlari.

### Reja.

7.1. Python dasturlash tilida list (ro'yxat). Python dasturlash tilida list() konstruktori. Elementlarga murojaat.

7.2. Manfiy indeks. Indeks oralig'i. Element qiymatini o'zgartirish. Ro'yxat bo'ylab sikl. Elementning mavjudligini tekshirish.

7.3. Ro'yxatning funksiya va metodlari. Ro'yxat uzunligi. Element qo'shish. Elementni o'chirish. Ro'yxatdan nusxa olish.

7.4. Ro'yxatlarni qo'shish. count() va index(). sort() va reverse()

### 7.1. Python dasturlash tilida list (ro'yxat). Python dasturlash tilida list() konstruktori.

#### Elementlarga murojaat.

Python dasturlash tilida to'rtta ma'lumotlar to'plami mavjud:

- **List** - bu o'zgartirilishi mumkin bo'lgan to'plam. Takroriy a'zolarga ruxsat beradi.
- **Tuple** - bu o'zgarmas to'plam. Takroriy a'zolarga ruxsat beradi.
- **Set** bu tartiblanmagan va ko'rib chiqilmagan to'plamdir. Takroriy a'zolar yo'q.
- **Dictionary** - bu tartiblanmagan, o'zgartiriladigan va indekslangan to'plam. Takroriy a'zolar yo'q.

#### List - Ma'lumot to'plami.

**List**- bu o'zgartirilishi mumkin bo'lgan to'plam. Python-da ro'yxatlar kvadrat qavslar bilan yoziladi.

```
thislist = ["apple", "banana", "cherry"]  
print(thislist)
```

```
['apple', 'banana', 'cherry']
```

#### Indeks raqamiga murojaat

Siz indeks raqamiga murojaat qilib ro'yxat elementlariga kirishingiz mumkin:

```
thislist = ["apple", "banana", "cherry"]  
print(thislist[1])
```

```
banana
```

#### Teskari Indeks raqamiga murojaat,

Teskari indeksatsiya degani oxiridan boshiga **-1**, oxirgi bandga, **-2**ikkinchi oxirgi bandga va boshqalarga ishora qiladi.

```
thislist = ["apple", "banana", "cherry"]  
print(thislist[-1])
```

```
cherry
```

#### Indekslar oralig'i

Siz indekslar oralig'ini qayerdan boshlashni va qayerda tugashini belgilash orqali belgilashingiz mumkin. Oraliqu belgilashda, qaytarilgan qiymat ko'rsatilgan elementlar bilan yangi ro'yxat tashkil qiladi.

```
thislist = ["apple", "banana", "cherry", "orange", "kiwi", "melon", "mango"]  
print(thislist[2:5])
```

```
['cherry', 'orange', 'kiwi']
```

**Izoh:** Qidiruv 2-indeksdan (shu jumladan) boshlanadi va 5-indeksda (kiritilmaydi).

### Qiymatni List ichidan tekshirish.

Belgilangan narsa ro'yxatda mavjudligini aniqlash uchun **inkalit** so'zdan foydalaning .

```
thislist = ["apple", "banana", "cherry"]
if "apple" in thislist:
    print("Yes, 'apple' is in the fruits list")
```

```
Yes, 'apple' is in the fruits list
```

### List uzunligi.

**List**da nechta element mavjudligini aniqlash uchun ushbu **len()** funktsiyadan foydalaning :

```
thislist = ["apple", "banana", "cherry"]
print(len(thislist))
```

```
3
```

### Elementlarni qo'shish.

Ro'yxat oxiriga biror narsa qo'shish uchun **append()** usulidan foydalaning:

```
thislist = ["apple", "banana", "cherry"]
thislist.append("orange")
print(thislist)
```

```
['apple', 'banana', 'cherry', 'orange']
```

### Elementni olib tashlash.

Ro'yxatdan elementlarni olib tashlashning bir ngcha usullari mavjud: **remove()** Usuli belgilangan ob'ektni tozalaydi:

```
thislist = ["apple", "banana", "cherry"]
thislist.remove("banana")
print(thislist)
```

```
['apple', 'cherry']
```

**pop()**Usuli belgilangan katalog, (yoki indeks ko'rsatilmagan bo'lsa oxirgi elementni) olib tashlanadi:

```
thislist = ["apple", "banana", "cherry"]
thislist.pop()
print(thislist)
```

```
['apple', 'banana']
```

**del**Kalit so'z belgilangan katalog olib tashlanadi:

```
thislist = ["apple", "banana", "cherry"]
del thislist[0]
print(thislist)
```



```
['banana', 'cherry']
```

**Izoh:** ~~del~~Kalit so‘z ham butunlay ro‘yxatini o‘chirishingiz mumkin:

**clear()**Usuli ro‘yxatini bo‘shatmoqda:

```
thislist = ["apple", "banana", "cherry"]
thislist.clear()
print(thislist)
```

```
[]
```

### List ni nusxalash.

Siz oddiygina yozib ro‘yxatini nusxa olmaydi **list2 = list1**: chunki, **list2** faqat bir o‘ladi *yozuvlar* uchun **list1**, va qilingan o‘zgarishlar **list1** avtomatik ravishda ham amalga oshiriladi **list2**. Nusxalashning usullari mavjud, bittasi - o‘rnatilgan ro‘yxat usulidan foydalanish **copy()**.

```
thislist = ["apple", "banana", "cherry"]
mylist = thislist.copy()
print(mylist)
```

```
['apple', 'banana', 'cherry']
```

### Ikkita List ni qo‘shish.

Python-da ikkita yoki undan ko‘p ro‘yxatlarga qo‘shilish yoki bog‘lashning bir ngcha yo‘li mavjud. Eng oson usullardan biri bu + operatoridan foydalanish .

```
list1 = ["a", "b", "c"]
list2 = [1, 2, 3]
```

```
list3 = list1 + list2
print(list3)
```

Ikkita ro‘yxatga qo‘shilishning yana bir usuli - bu barcha elementlarni 2-listdan list1-ga bitta-bitta qo‘shish.

```
list1 = ["a", "b", "c"]
list2 = [1, 2, 3]
```

```
for x in list2:
    list1.append(x)
```

```
print(list1)
```

Yoki siz bitta **extend()** usuldan elementlarni boshqa ro‘yxatga qo‘shish uchun usuldan foydalanishingiz mumkin : 1- **extend()**ro‘yxat oxiriga list2 qo‘shish uchun usuldan foydalaning :

```
list1 = ["a", "b", "c"]
list2 = [1, 2, 3]

list1.extend(list2)
```

```
print(list1)
```

## **7.2. Manfiy indeks. Indeks oralig'i. Element qiymatini o'zgartirish. Ro'yxat bo'ylab sikl. Elementning mavjudligini tekshirish.**

Ro'yxatni yaratgandan so'ng uning ustida turli amallarni bajarish kerak bo'ladi, albatta, buning uchun esa Pythonni o'ziga kiritilgan bir qancha funksiya va metodlar bor.

Metod Vazifasi

List.append(x) Ro'yxat oxiridan element qo'shish

List.extend(L) Oxiriga hamma elementlarni qo'shib list ro'yxatini kengaytiradi.

List.insert(i,x) i-elementga x qiymatini kiritadi

List.remove(x) Ro'yxatdan x qiymatga ega elementni o'chiradi

List.pop([i]) Ro'yxatning i-elementini o'chiradi va qaytaradi. Agarda indeks ko'rsatilmagan bo'lsa oxirgi element o'chiriladi

List.index(x,[start],[end]) X qiymatga teng start dan end gacha birinchi elementni qaytaradi

List.count(x) X qiymatga teng elementlar sonini qaytaradi

List.sort([key=funksiya]) Funksiya asosida ro'yxatni saralaydi

List.reverse() Ro'yxatni ochadi

List.copy() Ro'yxatning nusxalaydi

List.clear() Ro'yxatni tozalaydi

Keling list ya'ni ro'yxatda metodlarni qo'llanilishini misollar yordamida ko'rib chiqamiz.

Ro'yxat uzunligi

Ro'yxatda nechta element borligini aniqlash uchun len() funksiyasi ishlatiladi.

```
meva = ["olma", "banan", "apelsin", "nok", "uzum"]
```

```
print(len(meva))
```

Element qo'shish

append() funksiyasi bilan ro'yxat oxiridan yangi element qo'shish mumkin:

```
meva = ["olma", "banan", "apelsin", "nok", "uzum"]
```

```
meva.append("anor")
```

```
print(meva)
```

```
['olma', 'banan', 'apelsin', 'nok', 'uzum', 'anor']
```

Agar elementni ro'yxat oxiriga emas, balki uning ma'lum bir o'rniga qo'shmoqchi bo'lsak insert() funksiyasini ishlatamiz. Buning uchun qo'shmoqchi bo'lgan o'rnimizning indeksi ham kiritiladi.

Masalan hozir ro'yxatning boshiga yangi elementni qo'shamiz:

```
meva = ["olma", "banan", "apelsin", "nok", "uzum"]
```

```
meva.insert(0, "anor")
```

```
print(meva)
```

```
['anor', 'olma', 'banan', 'apelsin', 'nok', 'uzum']
```

Elementni o'chirish

Ro'yxatdan elementni o'chirishning bir nechta usullari bor.

`remove()` funksiyasi belgilangan elementni ro'yxatdan o'chiradi. Bunda uning indeks emas balki o'zi ko'rsatiladi:

```
meva = ["olma", "banan", "apelsin", "nok", "uzum"]
meva.remove("banan")
print(meva)
['olma', 'apelsin', 'nok', 'uzum']
```

`pop()` funksiyasi ko'rsatilgan indeks bo'yicha elementni ro'yxatdan o'chiradi. Agar indeks

ko'rsatilmasa avtomatik tarzda ro'yxat oxiridagi elementni o'chiradi:

```
meva = ["olma", "banan", "apelsin", "nok", "uzum"]
meva.pop()
print(meva)
['olma', 'banan', 'apelsin', 'nok']
```

`del` kalit so'zi bilan ko'rsatilgan indeks bo'yicha element ro'yxatdan o'chiriladi. Agar shunchaki ro'yxat nomi ko'rsatilsa, butun ro'yxat o'chiriladi. Hozir misolimizda, avvalo, bir elementni o'chiramiz, so'ngra ro'yxatning o'zini o'chiramiz:

```
meva = ["olma", "banan", "apelsin", "nok", "uzum"]
del meva[1]
print(meva)
del meva
print(meva)
```

`clear()` funksiyasi ro'yxat elementlarini tozalaydi, ya'ni ro'yxat bo'm-bo'sh bo'lib qoladi:

```
meva = ["olma", "banan", "apelsin", "nok", "uzum"]
meva.clear()
print(meva)
[]
```

### **7.3. Ro'yxatning funksiya va metodlari. Ro'yxat uzunligi. Element qo'shish. Elementni o'chirish. Ro'yxatdan nusxa olish.**

Bir ro'yxatdan ikkinchi ro'yxatni `list2 = list1` tarzida hosil qilib bo'lmaydi. Chunki bunda `list2` `list1`ga yo'llanma(silkA) bo'lib qoladi. Shu sababli `list1` da bo'lgan o'zgarishlar `list2` ga ham ta'sir qiladi.

Shuning uchun bir ro'yxat ikkinchisiga nusxalanadi. Shunda 2 ta bir xil alohida ro'yxatlar hosil bo'ladi.

Ro'yxatdan nusxa olish uchun `copy()` funksiyasi ishlatiladi.

```
meva1 = ["olma", "banan", "apelsin", "nok", "uzum"]
meva2 = meva1.copy()
print(meva2)
['olma', 'banan', 'apelsin', 'nok', 'uzum']
```

Ro'yxatdan nusxa olishning boshqa usuli `list()` funksiyasi:

```
meva1 = ["olma", "banan", "apelsin", "nok", "uzum"]
meva2 = list(meva1)
print(meva2)
```

### Ro'yxatlarni qo'shish

Pythonda ikki yoki undan ko'p ro'yxatlarni o'zaro qo'shishning turli usullari bor. Eng oson yo'li "+" operatoridan foydalanish.

Shuni eslatish lozimki, ro'yxat nafaqat satr va harflar, baki sonli o'zgaruvchilardan ham iborat bo'la oladi:

```
a = [1, 2, 3, 4, 5]
b = [5, 6, 7]
c = a + b
print(D)
[1, 2, 3, 4, 5, 5, 6, 7]
```

Bir ro'yxatga boshqasini qo'shishning yana bir yo'li – ikkinchi ro'yxatning elementlarini bittalab qo'shib chiqish:

```
mashina1 = ["Audi", "Mustang", "Ferrari"]
mashina2 = ["BMW", "MErcedes", "Porsche"]
for x in mashina2:
    mashina1.append(mashina2)
print(mashina1)
```

extend() funksiyasi ham bir ro'yxatdagi elementlarni ikkinchisiga qo'shib chiqadi.

Qo'shilayotgan elementlar avtomatik tarzda ro'yxat oxiridan boshlab qo'shiladi.

```
a = [1, 2, 3, 4, 5]
b = [5, 6, 7]
A.extend(B)
print(A)
```

### 7.4. Ro'yxatlarni qo'shish. count() va index(). sort() va reverse()

count() va index()

- count() funksiyasi belgilangan qiymatga teng elementlar sonini aniqlaydi.
- index() funksiyasi belgilangan elementning indeksini aniqlaydi. Agar bunday elementlar bir nechta bo'lsa, faqat birinchisining indeksini aniqlaydi.

Hozir ro'yxatda nechta 5 soni borligi va uning indeksini aniqlaymiz:

```
a = [1, 2, 3, 4, 5]
x = A.count(5)
print(x)
x = A.index(5)
print(x)
sort() va reverse()
```

- sort() funksiyasi ro'yxatni tartiblaydi. Agar ro'yxat sonlardan tashkil topgan bo'lsa, o'sish tartibida, satr yoki farflardan tashkil topgan bo'lsa, alifbo bo'yicha tartiblaydi.

- reverse() funksiyasi ro'yxatning joriy holatdagi tartibini teskarisiga o'zgartiradi.

Hozir ikki xil ro'yxatni avval tartiblaymiz, so'ngra ularni teskarisiga o'zgartiramiz:

```
meva = ["olma", "banan", "apelsin", "nok", "uzum"]
```

```
a = [1, 2, 3, 4, 5]
```

```
meva.sort()
```

```
A.sort()
```

```
print(meva)
```

```
print(A)
```

```
meva.reverse()
```

```
A.reverse()
```

```
print(meva) print(A)
```

```
['apelsin', 'banan', 'nok', 'olma', 'uzum']
```

```
[1, 2, 3, 4, 5]
```

```
['uzum', 'olma', 'nok', 'banan', 'apelsin'] [5, 4, 3, 2, 1]
```



## 8-mavzu. Python dasturlash tilida Tuple (Kortej)

### Reja.

- 8.1. Python dasturlash tilida bir elementli to'plam. Elementlarga murojaat.
- 8.2. Manfiy indeks. Indeks oralig'i. Element qiymatlarini o'zgartirish.
- 8.3. Ro'yxat bo'ylab sikl. Elementning mavjudligini tekshirish.
- 8.4. Kortejning funksiya va metodlari. Tuplening uzunligi. Element qo'shish. Tuple larni qo'shish. count() va index()

### 8.1. Python dasturlash tilida bir elementli to'plam. Elementlarga murojaat.

Kortejlar bir nechta ob'yektlarni birgalikda saqlashga xizmat qiladi. Ularni ro'yxatlarga o'xshatish mumkin. Lekin ular ro'yxatlar kabi boy funktsionallikka ega emas. Ularning asosiy jihati qatorlarga o'xshab o'zgarmasliklaridir. Kortej- elementlar orasini vergul bilan ajratish orqali hosil qilinadi.

Kortejga ma'no jihatdan o'zgarmas ro'yxat deb ta'rif berdik. Shu o'rinda savol tug'iladi. Ro'yxat bo'lsa kortej nimaga kerak:

- Turli holatlardan himoyalangan. Bu degani kortej o'zgartirishlardan himoyalangan bo'ladi, rejali (bu yomon) va tasodifiy (bu yaxshi) o'zgarishlardan xalos bo'ladi.

- Kichik hajm. So'zlar bilan ifodalamasdan.

```
>>> a = (1, 2, 3, 4, 5, 6)
>>> b = [1, 2, 3, 4, 5, 6]
>>> a.__sizeof__()
72
>>>
>>> b.__sizeof__()
88
```

Kortejdan lug'at kaliti sifatida foydalanish mumkin:

```
>>> d = {(1, 1, 1) : 1}
>>> d
{(1, 1, 1): 1}
>>> d = {[1, 1, 1] : 1}
Traceback (most recent call last):
  File "<pyshell#7>", line 1, in <module>
    d = {[1, 1, 1] : 1}
TypeError: unhashable type: 'list'
```

Kortej afzalliklari haqida bilib oldik. Endi kortej bilan qanday ishlashni ko'ramiz. Bu xuddi ro'yxatlar bilan ishlashga o'xshaydi.

Tuple ro'yxati tartiblangan, o'zgarmas ro'yxat. Uning elementlarini o'zgartirib bo'lmaydi. Bu ro'yxatni oddiy qavslar bilan yoki tuple() konstruktori bilan hosil qilinadi:

```
a = ("kitob", "daftar", "ruchka")
b = tuple(("qog'oz", "qalam", "qaychi"))
print(A)
print(B)
```

Bir elementli to'plamdan Bitta elementli tuple kortejini hosil qilish uchun element qiymatidan so'ng vergul qo'yish kerak.

Aks holda bunday kortej hosil bo'lmaydi:

```
a = ("kitob",)
print(type(A))
b = ("kitob")
print(type(B))
```

### **8.2. Manfiy indeks. Indeks oralig'i. Element qiymatlarini o'zgartirish.**

Tuple elementiga murojaat qilish uning indeksini ko'rsatish bilan amalga oshiriladi:

```
a = ("kitob", "daftar", "ruchka")
print(a[0])
Manfiy indeks
```

Manfiy indeks sanoqning oxiridan boshlanishini anglatadi. Masalan, -1 eng oxirgi, -2 oxiridan ikkinchi element va hokazo.

```
a = ("kitob", "daftar", "ruchka")
print(a[-1])
ruchka
Indeks oralig'i
```

Ro'yxatning ma'lum qismidagi bir nechta elementni tanlab olish uchun o'sha indekslar oralig'ini kiritamiz. Bunda uning boshlanish va oxirgi nuqtalari kiritiladi. Element tanlashda oxirgi nuqta hisobga kirmaydi. Ya'ni boshlang'ich nuqtadan boshlanib oxirgi nuqtadan bitta oldingi elementgacha olinadi.

Hozir ekranga ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi elementlarni tanlab ekranga chiqaramiz:

```
a = ("kitob", "daftar", "ruchka", "qog'oz", "qalam")
print(a[1:4])
('daftar', 'ruchka', 'qog'oz')
```

### **8.3. Ro'yxat bo'ylab sikl. Elementning mavjudligini tekshirish.**

Tuple to'plamidagi elementni to'g'ridan-to'g'ri o'zgartirib bo'lmaydi. Yuqorida aytganimizdek u o'zgarmas. Biroq bu muammoning ham yechimi bor. Tuple ro'yxatini avval list ro'yxatiga aylantirib, so'ngra istalgan elementni o'zgartiriladi va yana tuple ro'yxatiga aylantiriladi:

```
a = ("kitob", "daftar", "ruchka")
b = list(A)
b[2] = "qalam"
a = tuple(B)
print(A)
('kitob', 'daftar', 'qalam')
```

Ro'yxat bo'ylab sikl Tuple to'plamida ham for siklidan foydalanib elementlarni tanlab olish mumkin. Hozir shu usulda elementlarni ekranga chiqaramiz:

```
a = ("kitob", "daftar", "ruchka")
```

```
for x in a:
```

```
    print(x)
```

Elementning mavjudligini tekshirish

Biror elementning to'plamda mavjudligini in kalit so'zi orqali tekshiramiz. Masalan, ro'yxatimizda

kitob borligini tekshiramiz:

```
a = ("kitob", "daftar", "ruchka")
```

```
if "kitob" in a:
```

```
    print("kitob bor")
```

```
else:
```

```
    print("Kitob yo'q")
```

Kortejning funksiya va metodlari

- count(x) - kortejdagi x elementi sonini qaytaradi.
- index(x) - kortejdagi x elementining indeksini qaytaradi.
- any() - agar kortej elementi mavjud bo'lsa True qiymat qaytaradi, aks holda (kortej bo'sh bo'lsa False qiymat qaytaradi.
- max() - kortejning maksimal elementini qaytaradi.
- min() - kortejning minimal elementini qaytaradi.
- len() - kortejning uzunligini qaytaradi.
- sorted() - kortej elementlaridan iborat yangi tartiblangan ro'yxatni qaytaradi.
- sum() - kortej elementlari yig'indisini qaytaradi.

#### **8.4. Kortejning funksiya va metodlari. Tuplening uzunligi. Element qo'shish. Tuple larni qo'shish. count() va index()**

Keling tuple ya'ni kortejda metodlarni qo'llanilishini misollar yordamida ko'rib chiqamiz

```

k=('2','12','9','78','15','12',)
j=tuple()
print(k)
print('kortejdagi x element soni',k.count('12'))
print('kortejdagi x element indeksi',k.index('78'))
print('kortejni tekshirish',any(k))
print('kortejni tekshirish',any(j))
print('max element:',max(k))
print('min element:',min(k))
print('kortej uzunligi:',len(k))

```

```

('2', '12', '9', '78', '15', '12')
kortejdagi x element soni 2
kortejdagi x element indeksi 3
kortejni tekshirish True
kortejni tekshirish False
max element: 9
min element: 12
kortej uzunligi: 6
['12', '12', '15', '2', '78', '9']

```

Tuplarning uzunligi Tuple to'plamining uzunligi, yani nechta elementdan tashkil topganligini len() funksiyasi bilan aniqlash mumkin:

```

a = ("kitob", "daftar", "ruchka")
print(len(A))

```

Element qo'shish Tuple korteji o'zgarmas bo'lgani uchun unga element qo'shib bo'lmaydi. U boshida nechta element hosil qilgan bo'lsa, shuncha element bilan qoladi. Ammo istisno tariqasida, yuqorida elementning qiymatini o'zgartirganimiz kabi shu usulda yangi element qo'shsa bo'ladi.

Tuple larni qo'shish Ikki yoki undan ortiq tuple larni o'zaro qo'shish uchun "+" operatori kifoya:

```

a = ("kitob", "daftar", "ruchka")
b = ("qalam", "qog'oz")
c = a + b
print(D)

```

count() va index()

- count() funksiyasi belgilangan qiymatga teng elementlar sonini aniqlaydi.

- index() funksiyasi belgilangan elementning indeksini aniqlaydi. Agar bunday elementlar bir nechta bo'lsa, faqat birinchisining indeksini aniqlaydi.

Hozir kortejda nechta 3 soni borligi va uning indeksini aniqlaymiz:

```

toq_son = (1, 3, 5, 3, 3, 7)
x = toq_son.count(3)
print(x)
y = toq_son.index(3)
print(y)  3 1

```

## 9-mavzu. Python dasturlash tilida Set (to‘plam)

### Reja.

9.1. Python dasturlash tilida Set to‘plaminig funksiya va metodlari. To‘plamni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zgartiradigan operatsiyalar.

9.2. Elementlarga murojaat. Element qo‘shish. To‘plam uzunligi.

9.3. Elementni o‘chirish. clear().To‘plamni qo‘shish. Nusxa olish. Muhim funksiyalar.

### 9.1. Python dasturlash tilida Set to‘plaminig funksiya va metodlari. To‘plamni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zgartiradigan operatsiyalar.

Set (to‘plam)

Pythonda to‘plamlar bilan ishlash uchun maxsus set deb nomlanuvchi ro‘yxat turi mavjud.

Pythondagi to‘plam- tasodifiy tartibda va takrorlanmaydigan elementlardan tashkil topgan

“konteyngr” deyiladi. To‘plam elementlari tartiblanmagan va indekslanmagan tarzda bo‘ladi. To‘plamni hosil qilish uchun maxsus qavslardan foydalaniladi. Yoki set() konstruktori ishlatiladi:

```
toq_son = {1, 3, 5, 7, 9}
```

```
print(toq_son)
```

```
juft_son = set((2, 4, 6))
```

```
print(juft_son)
```

Set to‘plaminig funksiya va metodlari

- len(s) - to‘plamdagi elementlar soni(to‘plam hajmi).
- x in s - ‘x’ ‘s’ to‘plamga tegishli bo‘ladimi yo‘qmi shuni tekshiradi
- set.isdisjoint(other) -agarda set va other umumiy elementlarga ega bo‘lmasalar rost qiymat qaytaradi.

- set==other - set ning hamma elementlari otherga tegishli bo‘ladilar othorni hamma elementlari setga tegishli bo‘ladilar.

- set.issubset(other) yoki set<=other-set ning hamma elementlari other ga tegishli bo‘ladilar.

- set.issuperset(other) yoki set>=other -analogik holat.

- set.union(other, ...) yoki |other|...-bir qancha to‘plamlar birlashmasi.

- set.intersection(other, ...) yoki &other&... - kesib olish.

- set.difference(other, ...) yoki -other-... - other ga tegishli bo‘lmagan set ning hamma elementlar to‘plami.

- set.symmetric\_difference(other); set^other- birinchi to‘plamda uchraydigan, lekin ularning ikkala to‘plamning kesishmasida uchramaydigan elementlar.

- set.copy-to‘plam nusxasi

### 9.2. Elementlarga murojaat. Element qo‘shish. To‘plam uzunligi.

- Set.update(other, ...); set|=other| ... - to‘plam birlashmasi

- Set.intersection\_update(other, ...); set&=other&... - to‘plam kesishmasi

- Set.difference\_update(other, ...); set -= other | ... -to‘plam ayirmasi



- `Set.symmetric_difference_update(other); set ^= other` - birinchi to'plamda uchraydigan, lekin ularning ikkala to'plamning kesishmasida uchramaydigan elementlar tashkil topgan to'plam.
- `Set.add(elem)`- to'plamga element qo'shadi.
- `Set.remove(elem)`- to'plamdagi elementni o'chiradi. Agarda ko'rsatilgan element to'plamda mavjud bo'lmasa `KeyError` ni qaytaradi.
- `Set.discard(elem)`- gar to'plamda ko'rsatilgan element bo'lsa uni o'chiradi.
- `Set.pop()`- to'plamdagi birinchi elementni o'chiradi, lekin to'plam elementlari tartib bilan joylashmagani uchun birinchi element qaysiligini aniq ko'rsatib bo'lmaydi.
- `Set.clear()`- to'plamni tozaydi.

### **9.3. Elementni o'chirish. `clear()`. To'plamni qo'shish. Nusxa olish. Muhim funksiyalar.**

To'plamlar tartiblanmagan ro'yxat bo'lganligi uchun ularning elementlariga indeks orqali murojaat qilib bo'lmaydi. To'plam elementlariga murojaat qilish uchun for siklidan yoki aniq bir element borligini tekshirish uchun in kalit so'zidan foydalanamiz:

```
toq_son = {1, 3, 5, 7, 9}
for x in toq_son:
    print(x)
    print("-----\n")
    print(3 in toq_son)
```

#### **Element qo'shish**

To'plam hosil qilingandan so'ng uning elementlarini o'zgartirib bo'lmaydi, ammo yangi element qo'shish mumkin. Agar to'plamga bitta element qo'shish kerak bo'lsa, `add()` funksiyasi, agar bir nechta element qo'shish kerak bo'lsa, `update()` funksiyasi ishlatiladi.

```
toq_son = {1, 3, 5, 7, 9}
toq_son.add(9)
print(toq_son)
toq_son.update([11, 13, 15])
print(toq_son)
```

#### **To'plam uzunligi**

To'plamning uzunligi, ya'ni nechta elementdan tashkil topganligini `len()` kalit so'zi bilan aniqlanadi:

```
meva = {"nok", "banan", "shaftoli"}
print(len(meva))
```

#### **Elementni o'chirish**

Elementni to'plamdan o'chirish uchun `remove()` va `discard()` funksiyalari ishlatiladi. Bu funksiyalarning farqi shundaki, `remove()` funksiyasi bilan o'chirmoqchi bo'lgan elementimiz to'plamda mavjud bo'lmasa, kod ishga tushganda xatolik ro'y beradi. `discard()` funksiyasi bilan esa bu holat kuzatilmaydi.

Hozir ikkala usul bilan ham elementlarni o'chirib ko'ramiz:

```

toq_son = {1, 3, 5, 7, 9}
toq_son.remove(1)
print(toq_son)
toq_son.discard(5)
print(toq_son)

```

Elementni to‘plamdan pop() funksiyasi bilan ham o‘chirish mumkin. Ammo pop() funksiyasi xususiyatiga ko‘ra ro‘yxat oxiridagi elementni o‘chiradi. To‘plam esa tartiblanmagan ro‘yxat.

Shuning uchun bu funktsiya aynan qaysi elementni o‘chirishini oldindan bilolmaymiz. Biroq o‘chirilgan elementni aniqlash mumkin:

```

meva = {"nok", "banan", "shaftoli"}
x = meva.pop()
print(meva)
clear()

```

clear() funksiyasi to‘plamni bo‘shatadi, ya’ni barcha elementlarini o‘chiradi:

```

meva = {"nok", "banan", "shaftoli"}
meva.clear()
print(meva)

```

del kalit so‘zi to‘plamni butunlay o‘chiradi:

```

meva = {"nok", "banan", "shaftoli"}
del meva
print(meva)

```

To‘plamni qo‘shish

To‘plamlarni o‘zaro bir-biriga qo‘shish uchun maxsus funksiyalar mavjud:

union() funksiyasi ikkala to‘plam elementlarini boshqa bir yangi to‘plamga o‘zlashtiradi. Agar to‘plamlarda bir xil elementlar uchrab qolsa, ularning faqat bittasi olinadi.

```

harf1 = {"a", "b", "c", "d"}
harf2 = {"c", "e", "e", "f"}
harf3 = harf1.union(harf2)
print(harf3)

```

update() funksiyasi bir to‘plam elementlarini boshqa biriga qo‘shadi. Bunda ham bir xil elementlar uchrab qolsa, ularning faqat bittasi olinadi.

### **Nusxa olish**

Biror to‘plamning aynan o‘zidek yana bitta to‘plam hosil qilish uchun nusxa olish kerak. Buning uchun copy() funksiyasidan foydalanamiz:

```

harf1 = {"a", "b", "c", "d"}
harf = harf1.copy()
print(harf)

```

### **Muhim funksiyalar**

Hozir biz ko‘rib chiqmoqchi bo‘lgan funksiyalar to‘plamlar bilan ishlash uchun zarur funksiyalardir. Ular to‘plamlarning o‘ziga xos xususiyatlariga tayangan holda ishlab chiqilgan.

difference(), difference\_update()

– difference() funksiyasi x to‘plamda bor, lekin y to‘plamda yo‘q bo‘lgan elementlardan tashkil topgan to‘plam hosil qiladi.

– difference\_update() funksiyasi agar ikkala to‘plamda bir xil elementlar mavjud bo‘lsa, o‘sha elementni o‘chiradi.

```
x = {"a", "b", "c", "d"}
```

```
y = {"g", "c", "e", "d"}
```

```
z = x.difference(y)
```

```
print(z)
```

```
x.difference_update(y)
```

```
print(x)
```

intersection(), intersection\_update()

– intersection() funksiyasi qaysi elementlar ikkala to‘plamda ham mavjud bo‘lsa, o‘sha elementlardan tashkil topgan yangi to‘plam hosil qiladi.

– intersection\_update() funksiyasi x to‘plamdagi element y to‘plamda ham mavjud bo‘lsa, o‘sha elementni qoldiradi. Qolganlarini esa o‘chirib yuboradi.

```
x = {"a", "b", "c", "d"}
```

```
y = {"g", "c", "e", "d"}
```

```
z = x.intersection(y)
```

```
print(z)
```

```
x.intersection_update(y)
```

```
print(x)
```

isdisjoint()

isdisjoint() funksiyasi agar x to‘plamdagi birorta ham element y to‘plamda mavjud bo‘lmasa, rost qiymat qaytaradi.

Quyidagi kodimizda rost qiymat qaytariladi. Chunki x to‘plamdagi elementlarning hech biri y to‘plamda mavjud emas:

```
x = {"a", "b", "c"}
```

```
y = {"l", "m", "n", "o"}
```

```
z = x.isdisjoint(y)
```

```
print(z)
```

issubset(), issuperset()

– issubset() funksiyasi agar x to‘plamdagi barcha elementlar y to‘plamda ham mavjud bo‘lsa, rost qiymat qaytaradi.

– issuperset() funksiyasi esa teskarisi, ya’ni agar y to‘plamdagi barcha elementlar x to‘plamda ham mavjud bo‘lsa, rost qiymat qaytaradi.

Quyidagi misolimizda x to‘plamdagi barcha elementlar y to‘plamda mavjud, ammo y to‘plamdagi barcha elementlar ham x to‘plamda mavjud emas. Shuning uchun avval rost, keyin esa yolg‘on qiymat ekranga chiqadi:

```
x = {"a", "b", "c"}
```

```
y = {"l", "m", "n", "o", "k", "q", "t", "b"}
```

```
z = x.issubset(y)
```

```
print(z)
```

```
z = x.issuperset(y)
```

```
print(x)
```

```
symmetric_difference(), symmetric_difference_update()
```

- `symmetric_difference()` funksiyasi ikkala to‘plamda ham mavjud bo‘lgan bir xil elementlardan tashqari barcha elementlarni olib yangi to‘plam hosil qiladi.
- `symmetric_difference_update()` funksiyasi `x` to‘plamga `y` to‘plamdan o‘zida mavjud bo‘lmagan barcha elementlarni olib qo‘shadi.

```
x = {"a", "b", "c"}  
y = {"l", "c", "a", "o", "k", "t", "b"}  
z = x.symmetric_difference(y)  
print(z)  
z = x.symmetric_difference_update(y)  
print(x)
```

## 10-mavzu. Python dasturlash tilida Dictionary

### Reja.

- 10.1. Python dasturlash tilida dict() konstruktori. Elementlarga murojaat.
- 10.2. Qiymatlarni o'zgartirish. Sikldan foydalanish. Kalit so'z mavjudligini aniqlash.
- 10.3. Lug'atning funksiya va metodlari. Dictionary uzunligi. Element qo'shish. Elementlarni o'chirish. Nusxa olish.
- 10.4. Joylashtirilgan to'plamlar. setdefault() .update()

### 10.1. Python dasturlash tilida dict() konstruktori. Elementlarga murojaat.

dictionary (lug'at) Python'dagi lug'atlar kalit bo'yicha kirishga ruxsat etuvchi erkin obyektlarning tartiblangan jamlanmasi. Ularni yana assotsiativli massivlar yoki hesh jadvallar deb nomlaydilar. Sodaroq qilib aytadigan bo'lsak lug'at xuddi manzillar kitobiga o'xshaydi, ya'ni biror insonning ismini bilgan holda uning manzili yoki u bilan bo'g'lanish ma'lumotlarini olish mumkin.

Dictionary – tartiblanmagan, o'zgaruvchan va indeksli to'plam. Bu to'plamda kalit-qiyamat (keyvalue) tushunchasi mavjud, ya'ni maxsus kalit va ularga mos keluvchi qiymatlar juftligidan tashkil topgan. Chap tarafda kalitlar, o'ng tomonda esa ularga mos keluvchi qiymatlar joylashgan bo'ladi.

Buni hoir dictionary to'plamini hosil qilib bilib olamiz. Bu quyidagicha amalga oshiriladi:

```
avto = {  
    "brend": "Chevrolet",  
    "model": "Malibu",  
    "yil": 2016  
}  
print(avto)  
dict() konstruktori
```

dict() konstruktori bilan ham yangi to'plam hosil qilish mumkin. Bu quyidagicha amalga oshiriladi:

```
avto = dict(brend="chevrolet", model="Malibu", yil=2016)  
print(avto)
```

### Elementlarga murojaat

Dictionary elementlariga murojaat qilish uchun ularning kalitlarini kvadrat qavs ichida ko'rsatish

yoki get() funksiyasidan foydalanish mumkin. Hozir ikkala usuldan ham foydalanamiz:

```

avto = {
    "brend": "Chevrolet",
    "model": "Malibu",
    "yil": 2016
}
x = avto["model"]
y = avto.get("yil")
print(x)
print(y)

```

## 10.2. Qiymatlarni o‘zgartirish. Sikldan foydalanish. Kalit so‘z mavjudligini aniqlash.

Qiymatlarni o‘zgartirish Istalgan qiymatni o‘zgartirish uchun unga kalit orqali murojaat qilamiz, so‘ngra qiymatini o‘zgartiramiz. Masalan quyidagi avtomobil haqidagi ma’lumotda yilni o‘zgartiramiz:

```

avto = {
    "brend": "Chevrolet",
    "model": "Malibu",
    "yil": 2016
}
avto["yil"] = 2018
print(avto)

```

Sikldan foydalanish Dictionary to‘plamida for sikldan foydalangan holda uning elementlariga murojaat qilish mumkin. Bunday holatda qiymatlarga emas, balki kalitlarga murojaat bo‘ladi. Hozir to‘plamdagi kalitlarni ekranga chiqaramiz:

```

avto = {
    "brend": "Chevrolet",
    "model": "Malibu",
    "yil": 2016
}
for x in avto:
    print(x)

```



Agar qiymatlarning o'ziga murojaat qilmoqchi bo'lsak, values funksiyasidan foydalanamiz yoki yuqoridagidan biroz boshqacharoq tarzda amalga oshiramiz. Quyidagi kodimizda har ikkala usuldan ham foydalangan holda qiymatlarni ekranga chiqaramiz:

```
avto = {  
    "brend": "Chevrolet",  
    "model": "Malibu",  
    "yil": 2016  
}
```

#1-usul

```
for x in avto:  
    print(avto[x])
```

#2-usul

```
for x in avto.values():  
    print(x)
```

Agar kalit va qiymatlarning ikkalasiga ham bir vaqtda murojaat qilmoqchi bo'lsak, items()

funksiyasidan foydalanamiz:

```
avto = {  
    "brend": "Chevrolet",  
    "model": "Malibu",  
    "yil": 2016  
}
```

```
for x,y in avto.items():  
    print(x,y)
```

Kalit so'z mavjudligini aniqlash

Biror kalit to'plamda bor yoki yo'qligini aniqlash uchun in kalit so'zi ishlatiladi:

```
avto = {  
    "brend": "Chevrolet",  
    "model": "Malibu",  
    "yil": 2016  
}
```

```
if "yil" in avto:  
    print("Ha, mavjud")
```

else:

```
print("Yo‘q mavjud emas")
```

### 10.3. Lug‘atning funksiya va metodlari. Dictionary uzunligi. Element qo‘shish.

#### Elementlarni o‘chirish. Nusxa olish.

#### Lug‘atning funksiya va metodlari

- Dict.clear()- lug‘atni tozalaydi.
- Dict.copy()-lug‘at nusxasini qaytaradi.
- Classmethod dict.fromkeys(seq[, value])- Seq dan kalitni va Value qiymatlariga ega bo‘lgan lug‘atni yaratadi.
- Dict.get(key[, default])-kalit qiymatini qaytaradi, lekin u bo‘lmasa xatolik beradi, default (jimlikda Nong) qaytaradi.
- Dict.items()-juftliklarni qaytaradi(kalit, qiymat)
- Dict.keys()- lug‘atdagi kalitlarni qaytaradi
- Dict.pop(key[default])-kalitni yo‘qotib qiymatni qaytaradi. Agarda kalit bo‘lmasa defaultni qaytaradi.
- Dict.popitem()- juftlikni o‘chirib qaytaradi (kalit, qiymat). Agarda lug‘at bo‘sh bo‘lsa KeyError istisnolari chaqiradi. Esingizda tursin lug‘atlar tartibli emas.
- Dict.setdefault(key [, default])-kalit qiymatni qaytaradi, lekin u bo‘lmasa xatolik bermaydi, default qiymatga ega kalitni yaratadi (jimlikda Nong).
- Dict.update([other])- other dan juftliklarni (kalit, qiymat) kiritib lug‘atni to‘ldiradi. Mavjud bo‘lgan kalitlar qaytadan yoziladilar. Nong (eski lug‘at) qaytaradi.
- Dict.values()-lug‘atdagi qiymatni qaytaradi.

Keling tuple ya‘ni kortejda metodlarni qo‘llanilishini misollar yordamida ko‘rib chiqamiz.

```
d=dict(ismi='Gulnoza', yoshi='8', maktabi='1')
print()
print('lug‘atning qiymati:',dict.values(d))
print()
print('lugatdagi juftliklar yani kalit va uning qiymatlari:',dict.items(d))
print()
print('lugatning kalitlari:',dict.keys(d))
print()
print('lugatning nusxasi:',dict.copy(d))
```

Natija: lug‘atning qiymati: dict\_values(['Gulnoza', '8', '1'])  
lugatdagi juftliklar yani kalit va uning qiymatlari:dict\_items([('ismi','Gulnoza'), ('yoshi', '8'), ('maktabi', '1')]) lugatning kalitlari: dict\_keys(['ismi', 'yoshi', 'maktabi'])  
lugatning nusxasi: {'ismi': 'Gulnoza', 'yoshi': '8', 'maktabi': '1'}

#### Dictionary uzunligi

Dictionary to‘plamida nechta element, yani kalit-qiymat juftligi borligini aniqlash uchun len()

```
funksiyasidan foydalanamiz:
avto = {
    "brend": "Chevrolet",
    "model": "Malibu",
    "yil": 2016
}
print(len(avto))
```

#### **10.4. Joylashtirilgan to‘plamlar. setdefault() .update()**

##### **Element qo‘shish**

Yangi elementni, ya’ni kalit-qiyamat juftligini qo‘shish quyidagicha amalga oshiriladi. Masalan, biz mashinamizning rangi haqida ma’lumot beruvchi element qo‘shamiz:

```
avto = {
    "brend": "Chevrolet",
    "model": "Malibu",
    "yil": 2016
}
avto["rang"] = "qora"
print(avto)
```

Elementlarni o‘chirish

Dictionary to‘plamidan elementni o‘chirishning turli xil yo‘llari mavjud. Barchasini birma-bir ko‘rib chiqamiz:

Birinchi usul – pop() funksiyasi yoki del kalit so‘zi. Ikkalasi ham ko‘rsatilgan kalit bo‘yicha elementni o‘chiradi. Hozir ularni qanday ishlatishni ko‘ramiz:

```
avto = {
    "brend": "Chevrolet",
    "model": "Malibu",
    "yil": 2016
}
avto.pop("model")
print(avto)
del avto["yil"]
print(avto)
```

Keyingi usul – popitem() funksiyasi to‘plamga oxirgi bo‘lib kiritilgan elementni o‘chiradi (Python

3.7 dan oldingi versiyalarda bu funksiya ixtiyoriy biror elementni o‘chiradi).

```
avto = {
    "brend": "Chevrolet",
    "model": "Malibu",
    "yil": 2016
```

```
}  
avto.popitem()  
print(avto)
```

Oxirgi usul – esa `clear()` funksiyasi. Bu funksiya to‘plamni bo‘shatadi, ya’ni barcha elementlarini o‘chiradi. Natijada to‘plam bo‘m-bo‘sh holatga keladi.

`del` kalit so‘zi bilan to‘plamning o‘zini butkul o‘chirish ham mumkin. Bilamizki, to‘plam nomi bilan undagi biror kalitni ko‘rsatsak, `del` o‘sha kalit bo‘yicha elementni o‘chiradi. Ammo endi faqat to‘plam nomini kiritsak, bu kalit so‘zi butun to‘plamni o‘chiradi.

Quyidagi kodimizda dastlab, to‘plamni bo‘shatamiz, so‘ngra uni butkul o‘chiramiz:

```
avto = {  
    "brend": "Chevrolet",  
    "model": "Malibu",  
    "yil": 2016  
}  
avto.clear()  
print(avto)  
del avto  
print(avto)
```

### **Nusxa olish**

Agar biror dictionary to‘plamidan nusxa olib ayna uning o‘zidek to‘plam hosil qilmoqchi bo‘lsak, buni maxsus yo‘l bilan qilish kerak bo‘ladi. Bunday holatda bizga `copy()` yoki `dict()` maxsus funksiyalari yordamga keladi. Har ikkala funsiyadan ham foydalanish mumkin. Hozir buni misolda ko‘rib chiqamiz:

```
avto = {  
    "brend": "Chevrolet",  
    "model": "Malibu",  
    "yil": 2016  
}  
avto2 = avto.copy()  
print(avto2)  
avto3 = dict(avto)  
print(avto3)
```

### **Joylashtirilgan to‘plamlar**

Bitta dictionary to‘plamini o‘z ichiga bir nechta ana shunday to‘plam saqlashi mumkin. Buning uchun ularni quyidagicha hosil qilish kerak:

```
avto = {  
    "avto1": {  
        "model": "Ngxia",  
        "yil": 2016
```

```

    }
    "avto2": {
      "model": "Spark",
      "yil": 2018
    }
    "avto3": {
      "model": "Captive",
      "yil": 2019
    }
  }
  print(avto)

```

Agar allaqachon mavjud to'plamlarni bitta to'plamga yig'moqchi bo'lsangiz, quyidagicha amalga oshiriladi:

```

avto1 = {
  "model": "Ngxia",
  "yil": 2016 }
avto2 = {
  "model": "Spark",
  "yil": 2018 }
avto3 = {
  "model": "Captive",
  "yil": 2019 }
avto = {
  "avto1": avto1,
  "avto2": avto2,
  "avto3": avto3 }
print(avto)
setdefault()

```

setdefault() fuksiyasi ko'rsatilgan kalit bo'yicha element qiymatini qaytaradi. Agar bunday kalit to'plamda mavjud bo'lmasa, shu kalit va biz ko'rsatgan qiymatni yangi element sifatida to'plamga qo'shadi.

Hozir tekshirib ko'ramiz, agar model kaliti to'plamda mavjud bo'lsa, bizga uning qiymati

ko'rsatilsin. Aks holda shunday kalitga Captiva qiymatini biriktirib, to'plamga qo'shilsin.

```

avto = {
  "brend": "Chevrolet",
  "model": "Malibu",
  "yil": 2016
}
x = avto.setdefault("model", "Captive")
print(avto)

```

```
update()
update() funksiyasi to'plamga yangi element (kalit-qiyamat juftligi) qo'shadi. Bunda
har bir
vaqtning o'zida istalgancha element qo'shish mumkin.
Hozir biz to'plamga yangi element qo'shamiz:
avto = {
    "brend": "Chevrolet",
    "model": "Malibu",
    "yil": 2016
}
avto.update({"rang": "qora"})
print(avto)
```



### **III. I. Amaliy mashgʻulotlari.**

## 1-Amaliy mashg'ulot: Mantiqiy amallar va ifodalar bilan ishlash.

### Reja.

1.1. Mantiq asoslari va mantiqiy amallar ustida amallar bajarish

1.2. Mantiqiy ifodalarning rostlik jadvalini tuzish. Mantiqiy sxemalar yaratish

**1.1. Nazariy qimi:** Mantiq – mantiqiy tafakkur shakli va qonunlari haqidagi fan. Mantiq fanining obyekti – tafakkur qonunlari, shakllari, uslublari va amallaridir. Mantiq fani u o'rganadigan predmet ohasining turi bo'yicha ikki bo'limdan iborat: formal mantiq va dialektik mantiq. Formal mantiq statik borliqqa, dialektik mantiq dinamik borliqqa oiddir.

Mulohazalar sodda va murakkab bo'lishi mumkin. Biror shart yoki usul bilan bog'lanmagan hamda faqat bir holatni ifodalovchi mulohazalar sodda mulohazalar deyiladi. Sodda mulohazalar ustida amallar bajarib, murakkab mulohazalarni hosil qilish mumkin. Odatda, murakkab mulohazalar sodda mulohazalardan "VA", "YoKI" kabi bog'lovchilar, "EMAS" shaklidagi ko'makchilar yordamida tuziladi. Mulohazalarni lotin alifbosi harflari bilan belgilash (masalan, A="Bugun havo issiq") qabul qilingan. Har bir mulohaza faqat ikkita: "rost" yoki "yolg'on" mantiqiy qiymatga ega bo'lishi mumkin. Qulaylik uchun "rost" qiymatni 1 raqami bilan, "yolg'on" qiymatni esa 0 raqami bilan belgilab olamiz.

A va B sodda mulohazalar bir paytda rost bo'lgandagina rost bo'ladigan yangi (murakkaB) mulohazani hosil qilish amali mantiqiy ko'paytirish amali deb ataladi.

Bu amalni konyunksiya(lot. conjunctio – bog'layman) deb ham atashadi. Mantiqiy ko'paytirish amali ikki yoki undan ortiq sodda mulohazalarni "VA" bog'lovchisi bilan bog'laydi hamda "A va B", "A and B", " $A \wedge B$ ", " $A \cdot B$ " kabi ko'rinishda yoziladi. Mantiqiy ko'paytirishni ifodalaydigan quyidagi jadval rostlik jadvalideb ataladi:

| A | B | $A \wedge B$ |
|---|---|--------------|
| 1 | 1 | 1            |
| 1 | 0 | 0            |
| 0 | 1 | 0            |
| 0 | 0 | 0            |

A va B mulohazalarning kamida bittasi rost bo'lganda rost bo'ladigan yangi murakkab mulohazani hosil qilish amali mantiqiy qo'shish amali deb ataladi.

Bu amalni dizyunksiya(lot. disjunctio – ajrataman) deb ham atashadi. Mantiqiy qo'shish amali ikki yoki undan ortiq soda mulohazalarni "YOKI" bog'lovchisi bilan bog'laydi hamda "A

yoki B", "A or B", " $A \vee B$ ", " $A + B$ " kabi ko'rinishlarda yoziladi.

Mantiqiy qo'shish amalining rostlik jadvali quyidagicha:

| A | B | $A \vee B$ |
|---|---|------------|
| 1 | 1 | 1          |
| 1 | 0 | 1          |
| 0 | 1 | 1          |
| 0 | 0 | 0          |

A mulohaza rost bo'lganda yolg'on, yolg'on bo'lganda esa rost qiymat oladigan mulohaza hosil qilish amali mantiqiy inkor amalideb ataladi.

Bu amalni inversiya (lot. inversio – to'ntaraman) deb ham atashadi Mantiqiy inkor amali “A EMAS”, “not A”, “ $\neg A$ ”, “A – ” ko'rinishlarda yoziladi. Mantiqiy inkor amalining rostlik jadvali quyidagicha:

| A | $\neg A$ |
|---|----------|
| 1 | 0        |
| 0 | 1        |

Ko'rinib turibdiki, mantiqiy o'zgaruvchilar, munosabatlar, mantiqiy amallar va qavslar yordamida mantiqiy ifodalar hosil qilish mumkin ekan. Mantiqiy ifodalarda mantiqiy amallar quyidagi tartibda bajariladi: inkor ( $\neg$ ), mantiqiy ko'paytirish ( $\wedge$ ), mantiqiy qo'shish ( $\vee$ ). Teng kuchli yoki bir xil amallar ketma-ketligi bajarilayotganda amallar chapdan o'ngga qarab tartib bilan bajariladi, ifodada qavslar ishtirok etganda dastlab qavslar ichidagi amallar bajariladi. Ichma-ich joylashgan qavslarda eng ichkaridagi qavs ichidagi amallar birinchi bajariladi.

## 1.2. Amaliy qismi:

Mantiqiy amallarga misollar keltiramiz.

1-misol. A mulohaza rost qiymat qabul qilsa, “A va (A EMAS)” mulohazaning qiymatini aniqlang.

Yechish. A rost qiymat qabul qilganligi uchun (A EMAS) yolg'on qiymatga ega bo'ladi. U holda rost va yolg'on qiymatlarning ko'paytmasidan (“VA” amali) yolg'on natijaga ega bo'lamiz. Shunday qilib, javob “yolg'on” ekan. Javob: yolg'on.

2-misol. A va B mulohazalar rost qiymat qabul qilganda  $A \wedge B \vee A$  mulohazaning qiymatini aniqlang.

Yechish. I usul. A va B mulohazalar rost qiymatli bo'lganligi uchun  $A \wedge B$  amal rost qiymat qabul qiladi. U holda jadvalga ko'ra ikkita rost qiymatni mantiqiy qo'shishdan rost qiymat hosil bo'ladi. Javob: rost. II usul.  $1 \cdot 1 + 1 = 1 + 1 = 1$ . Javob: rost.

3-misol.  $(A > E) \wedge A \wedge \neg B$  mantiqiy ifodaning qiymatini  $D = 3,2$  va  $E = -2,4$ ,  $A =$  “rost” va  $B =$  “rost” bo'lganda hisoblang.

Yechish. I usul.  $(-2,4 > 3,2)$  munosabat noto'g'ri bo'lganligidan bu mulohaza "yolg'on" bo'ladi. Demak, A mulohazaning qiymati "rost" bo'lsa ham  $(A > E) \wedge A$  mulohaza qiymati "yolg'on" bo'ladi. B mulohazaning qiymati "rost", shuning uchun  $\neg B$  mulohaza "yolg'on" qiymatli bo'ladi. U holda  $(A > E) \wedge A \wedge \neg B$  mantiqiy ifoda "yolg'on" qiymat qabul qiladi.

Javob: yolg'on. II usul.  $(-2,4 > 3,2) \cdot 1 \cdot 0 = 0 \cdot 0 = 0$ . Javob: yolg'on.

4-misol.  $D \vee \neg B \wedge A$  mantiqiy ifodaga mos rostlik jadvalini tuzing.

Yechish. Avval jadvalning birinchi uch ustuniga A, B, D mulohazaning qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatlarini yozib olamiz (7-sinfidagi ovoz berish natijalari jadvalini eslang). So'ng bajarilish tartibiga asosan amallarni yozib boramiz:

| A | B | D | $\neg B$ | $\neg B \wedge A$ | $D \vee \neg B \wedge A$ |
|---|---|---|----------|-------------------|--------------------------|
| 1 | 1 | 1 | 0        | 0                 | 1                        |
| 1 | 1 | 0 | 0        | 0                 | 0                        |
| 1 | 0 | 1 | 1        | 1                 | 1                        |
| 1 | 0 | 0 | 1        | 1                 | 1                        |
| 0 | 1 | 1 | 0        | 0                 | 1                        |
| 0 | 1 | 0 | 0        | 0                 | 0                        |
| 0 | 0 | 1 | 1        | 0                 | 1                        |
| 0 | 0 | 0 | 1        | 0                 | 0                        |

Mantiqiy amallar mantiq ilmidagi ham, algoritmik tafakkurni rivojlantirishda ham juda katta ahamiyatga ega. Masalan, quyidagi masalani qaraylik:

5-masala. Bir kishi aytdi: "Men yolg'onchiman yoki qora sochliman". U kishi kimligini aniqlang.

Yechish. Masala shartidagi mulohazalar uchun belgilashlar kiritamiz:

D= "Men yolg'onchiman yoki qora sochliman";

A= "Men yolg'onchiman"; B= "Qora sochliman".

U holda masala shartidagi murakkab mulohazani shunday yoza olamiz:  $D=A \vee B$ . Bu amal uchun rostlik jadvali quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:

| A       | B       | $D=A \vee B$ |
|---------|---------|--------------|
| rost    | rost    | rost         |
| rost    | yolg'on | rost         |
| yolg'on | rost    | rost         |
| yolg'on | yolg'on | yolg'on      |

Endi masala yechimini topish uchun quyidagicha mulohaza yuritamiz:

A) agar A mulohaza “rost” bo‘lsa, u holda masala shartidagi mulohazani aytgan kishi yolg‘onchi bo‘ladi va shuning uchun uning hamma gapi yolg‘on. Demak, D mulohaza “yolg‘on” bo‘lishi kerak. Lekin jadvaldan ko‘rinadiki, A mulohaza “rost” bo‘lganda D mulohaza “yolg‘on” bo‘la olmaydi.

B) agar A mulohaza “yolg‘on” bo‘lsa, u holda masala shartidagi mulohazani aytgan kishi rostgo‘y bo‘ladi va, tabiiyki, uning hamma gapi rost. Demak, D mulohaza “rost” bo‘lishi kerak.

Jadvaldan ko‘rinadiki, bunday hol faqat A mulohaza “yolg‘on” va B mulohaza “rost” bo‘lsagina o‘rinli.

Javob: masala shartidagi da‘voni aytgan kishi rostgo‘yva qora sochliekan.

### Amaliy ish vazifalari:

1. Quyidagi mantiqiy mulohazalarga mos rostlik jadvalini tuzing:

A)  $\neg(A \vee B)$ ; B)  $\neg A \vee B$ ; E)  $\neg A \vee \neg B$ ; E)  $\neg(A \vee \neg B)$ ; f)  $\neg(\neg A \vee \neg B)$ .

2. Quyidagi mantiqiy mulohazalarga mos rostlik jadvalini tuzing:

A)  $\neg(A \wedge B)$ ; B)  $\neg A \wedge B$ ; E)  $\neg A \wedge \neg B$ ; E)  $\neg(A \wedge \neg B)$ ; f)  $\neg(\neg A \wedge \neg B)$ .

3. A= rost,  $\hat{A}$ = rost, D = rost qiymatlar uchun quyidagi amallarni bajaring:

A)  $A \wedge B \wedge D$ ; B)  $A \vee B \vee D$ ; E)  $A \vee B \wedge D$ ; E)  $\neg A \vee B \wedge D$ ; f)  $\neg A \vee B \wedge \neg E$ .

4. Agar D = 5,3, E = 4,0, A= rost, B = yolg‘on bo‘lsa, quyidagi amallarni bajaring:

A)  $(D = \hat{A}) \wedge A \wedge B$ ; B)  $(D > E) \wedge \neg A$ ;

E)  $A \vee (D < E) \wedge A \vee B$ ; E)  $\neg(D < E) \wedge (D < E)$ .

5. Agar A= “1012= 410”, B= “O‘zbekiston – mustaqil davlat” bo‘lsa, quyidagi amallarni bajaring:

A)  $A \wedge B$ ; B)  $A \vee B \vee \neg A$ ; E)  $\neg A \vee B$ ; E)  $\neg A \vee B \wedge A$ ; f)  $(\neg A \vee B) \wedge \neg A$ .

6.  $A = X \wedge Y \vee X \vee Y \vee X$  formula orqali berilgan mantiqiy mulohazaning rostlik jadvalini tuzing.

7. Quyidagi munosabatlar o‘rinlimi?

A)  $\neg(A \vee B) = \neg A \wedge \neg B$ ; B)  $\neg(A \wedge B) = \neg A \vee \neg B$ ; E)  $\neg(\neg B) = B$ ?

(yo‘llanma: avvalgi dars mashqlaridagi rostlik jadvalarini taqqoslang).

8. Mantiqiy ifodalarni “VA” amalisiz shunday yozingki, uning qiymati o‘zgarmasin.

A)  $A \wedge \neg A$ ; B)  $A \wedge B \wedge C$ ; E)  $A \vee \neg B \wedge C$ ; E)  $A \wedge B \vee \neg A$ .

(yo‘llanma: 3-mashq natijalaridan foydalaning).

9. Mantiqiy ifodalarni “YOKI” amalisiz shunday yozingki, uning qiymati o‘zgarmasin.

A)  $A \vee \neg A$ ; B)  $A \wedge B \vee C$ ; E)  $A \wedge \neg B \vee C$ ; E)  $A \wedge B \vee \neg A$ .

(yo‘llanma: 3-mashq natijalaridan foydalaning).

**10. Quyidagi misollarda amallarning bajarilish tartibini aniqlang va barcha mulohazalar rost bo‘lganda hisoblang:**

A)  $A \wedge B \vee (\neg E)$ ; B)  $A \vee B \vee D \wedge E$ ;

E)  $(A \vee B) \wedge \neg(A \wedge B)$ ; E)  $(A \vee B) \vee (\neg B) \wedge (\neg E)$ .

## 2-Amaliy mashg'ulot: Chiziqli algoritmlar.

### Reja.

- 2.1. Chiziqli algoritmlarga mos algoritmlar tuzish
- 2.2. Sohaga doir chiziqli algoritmlarga mos masalalarni yechish

#### 2.1. Nazariy qismi:

Barcha hisoblash jarayonlarini uchta sinfga ajratish mumkin bo'ladi:

chizig'li, tarmoqlangan va davriy(siklik). Chiziqli hisoblash jarayoni. Hisoblash jarayonlarining shunday turiga chiziqli deb aytiladiki, unda hisoblashning barcha bosqichlari qog'ozda yozilganidek chizig'li ketma-ketlik ko'rinishida bajariladi. Bunda hisoblashlarning yo'nalishi birlamchi ma'lumot yoki oraliq natijalarga bogliq bo'lmaydi.

Birinchi blokda o'zgaruvchilar  $X$ ,  $S$  kiritish ko'rsatilgan, chunki ular birlamchi ma'lumotlar bo'lib xizmat qiladi. 2,3,4 bloklarda hisoblashlar bajarilgandan so'ng  $D, E, A$  qiymatlari olinib, 5 blokning bajarilish jarayonida chiqariladi.

#### 2.2. Amaliy qismi:


**1-misol.** Sayyoh qishloqdan chiqib, shahar tomon jo'nadi. U  $a$  kilometr piyoda yurganidan keyin avtobusga o'tirdi va avtobusda  $t$  soatda shaharga yetib keldi. Agar avtobus  $60$  km/soat tezlik bilan harakat qilgan bo'lsa,  $a = 5$  va  $t = 0,5$  bo'lganda, qishloq bilan shahar orasidagi masofani hisoblash algoritmini tuzing.

Yechish: Masofani hisoblash formulasini esga olamiz:  $S = v \cdot t$ . Sayyoh avtobusda  $t$  soatda  $S_1 = 60t$  kilometr yo'l bosgan. Shuning uchun qishloq bilan shahar orasidagi masofa  $S = a + 60t$  formulasini bilan ifodalanadi.  $a = 5$  va  $t = 0,5$  bo'lganda,  $S = 5 + 60 \cdot 0,5 = 35$  km bo'ladi.

Endi masofani hisoblash algoritmini so'zlar va blok-sxema orqali ifodalaymiz:

- 1) boshlansin;
- 2)  $a$ ,  $t$  larning qiymatlari kiritilsin;
- 3) sayyoh avtobusda  $t$  soatda bosib o'tilgan yo'l:  $S_1 = 60 \cdot t$ ; hisoblansin;
- 4) qishloq bilan shahar orasidagi masofa:  $S = a + S_1$ ; hisoblansin;
- 5)  $S$  ning qiymati yozilsin;
- 6) tugatilsin.





### 2.3. Amaliy ish vazifalari.

1. Algoritmning mantiqiy tuzilishiga ko‘ra qanday turlari mavjud?

2. Qanday algoritmlarga chiziqli algoritmlar deyiladi?

3. Chiziqli algoritmlarga oid hayotiy misollar keltiring.

4. Chiziqli algoritmlar blok-sxemasi qanday tuzilishga ega?

5. Uydan maktabga kelish algoritmini aytib bering

1. Algoritm uchun quyidagi jadvalda keltirilgan harakat (buyruq)lar to‘g‘ri tartibini aniqlang va uni jadvalning 2-ustuniga yozing. Algoritmga nom bering.

|                                                           |  |
|-----------------------------------------------------------|--|
| 1) poyabzalni joyiga qo‘yish;                             |  |
| 2) zinadan chiqish;                                       |  |
| 3) cho‘tkasi bilan poyabzal yaltiragunga qadar ishqalash; |  |
| 4) poyabzal changini mato bilan tozalash;                 |  |
| 5) barchasini xonaga olib kelish;                         |  |
| 6) poyabzal cho‘tkasi va kremini joyiga qo‘yish;          |  |
| 7) poyabzal cho‘tkasi va kremini olish;                   |  |
| 8) kremni poyabzalga surtish;                             |  |
| 9) poyabzalni olish.                                      |  |

2. Agar uchburchakning ikki tomoni va ular orasidagi burchak ma’lum bo‘lsa, uchburchak yuzini topish algoritmini so‘zlar va blok-sxema orqali ifodalang.

### 3-Amaliy mashg'ulot: Tarmoqlanuvchi algoritmlar.

#### Reja.

3.1. Tarmoqlanuvchi algoritmlarga mos algoritmlar tuzish.

3.2. Sohaga doir tarmoqlanuvchi algoritmlarga mos masalalarni yechish.


#### 3.1. Nazariy qisim:

Tarmoqlangan hisoblash jarayoni. Hisoblash jarayonlarining shundayiga tarmoqlangan deb ataladiki, unda u birlamchi yoki oraliq ma'lumotlar xususiyatidan kelib chiqqan holda bir yoki bir nechta yo'nalish bo'yicha bajarilishi mumkin bo'ladi. Bunda har bir yo'nalish hisoblash jarayonining tarmog'i hisoblanadi. U yoki bu tarmoqning tanlanishi mantiqiy shartlarning bajarilishini tekshirish asosida ta'minlanadi. Aniq bir holda jarayon faqat tarmoqlarning bittasi bo'yicha bajariladi.

Boshqa tarmoqlanishlarning bajarilishi mumkin emas.

#### 3.2. Amaliy qism:


1-misol: Quyida misolni yechish alagaritimini tuzing.



2-misol: Quyidagi ifodani hisoblashning blok-chizmasini tuzing.

$\left\{ \begin{array}{l} fx > 0 \text{ bo'lganda, } x + 5 \end{array} \right.$


$fx < 0$  bo'lganda,  $x - 5$



Shunday qilib, masalaning algoritmidan kelib chiqib ikkita blokdan bittasi yoki 3-blok, yoki 4-blok bajarilishi mumkin.


3-misol:

$$y = \begin{cases} x < 0 \text{ bo'lganda, } x^2, \\ x = 0 \text{ bo'lganda, } 25, \\ x > 0 \text{ bo'lganda, } 1-x. \end{cases}$$



Murakkab tarmoqlangan jarayoni algoritmning blok-chizmasi keltirilgan. Bu yerda tarmoqlanish uchta yo‘nalish bo‘yicha bo‘lishi mumkin: 2,4,7; 2,3,5,7; 2,3,6.

4- misol: Berilgan uchta A, B, S sonlarning eng kichigi kvadratini topish algoritmining blok-chizmasini tuzing. Natijani R harfi bilan belgilaymiz.



### 3.1. Amaliy ish vazifalari.

1. Qanday algoritmlarga tarmoqlanuvchi algoritmlar deyiladi?
2. Tarmoqlanuvchi algoritmlarga oid hayotiy misollar keltiring.
3. Tarmoqlanuvchi algoritmlarning qanday tuzilishlari mavjud?
4. Tarmoqlanuvchi algoritmlarning to‘liq va qisqartirilgan ko‘rinishlari farqlarini tushuntiring?
5. Tarmoqlanuvchi algoritmlarning to‘liq ko‘rinishiga misollar keltiring.
1. Berilgan ason 5 dan katta bo‘lsa, uning kvadrat ildizini hisoblash algoritmini tuzing.
2. Berilgan butun sonning absolyut qiymatini aniqlash algoritmini tuzing.
3.  $ax^2 + bx + c = 0$  ko‘rinishidagi kvadrat tenglama ildizini topish algoritmini tuzing
2. Tarmoqlanuvchi tuzilmaga oid masalalar:
  - A) a, b va c sonlar berilgan. Agar ularning yig‘indisi manfiy bo‘lsa, ular har birining kvadrat ildizini, aks holda, ularning har biridan 30 ni ayirib chiqaruvchi algoritm tuzing.
  - B) a=10 va b=1,5 qiymatlar uchun quyidagi funksiya qiymatini hisoblash algoritmini tuzing

## 4-amaliy mashg'ulot Takrorlanuvchi algoritmlar.

### Reja.

4.1. Takrorlanuvchi algoritmlarga mos algoritmlar tuzish.

4.2. Sohaga doir takrorlanuvchi algoritmlarga mos masalalarni yechish.

### 4.1. Nazariy qismi:

Davriy (siklik) hisoblash jarayonlari Hisoblash bosqichlarini ko'p marta qaytarishi mumkin bo'lgan hisoblash jarayonlari davriy deyiladi. Davrlar shaxsiy kompyuterda masalalarni algoritmlashtirish va dasturlashtirishning asosini tashkil qiladi.

Davriy algoritmlar quyidagilarga ajraladi:

- davr tanasining algoritmining turi bo'yicha;
- davriy jarayonni boshqarish xususiyatiga ko'ra.

Davriylik tanasi algoritmi chiziqli, tarmoqlangan va davriy bo'lishi mumkin. Algoritmning turiga ko'ra davriylik tanasidagi davriy algoritmlar oddiy va murakkab bo'lishi mumkin. Agar davming tanasi chiziqli yoki tarmoqlangan hisoblash jarayonlaridan iborat bo'lsa unda u oddiy davriy algoritm deyiladi. Agar davming tanasi davriy hisoblash jarayonlaridan iborat bo'lsa unda u murakkab davriy algoritm deyiladi.

Boshqaruvchi qismning xususiyatiga ko'ra davming qaytarilishlar soni aniq bo'lgan bo'lishi va aniq bo'lmagan bo'lishi ham mumkin. Aniq bo'lgandan davming ngcha marta qaytarilishi ko'rsatiladi, masalan 20, 50, 100. Aniq bo'lmaganda ma'lum bir natural son orqali ifodalanadi, masalan N, M, K. Davriy algoritmning tasniflanish chizmasi.



Davriy algoritmning asosiy qismlaridan bo'lib quyidagilar hisoblanadi:


davming tanasi (DT), boshqaruvchi qism (BQ), yangi qiymatlar shakllantirish (YaQSh) va yangi qiymatlar kiritish (YaQK). Ushbu qismlarning bajarilishi ketma-ketligi turlicha bo'lishi ham mumkin.

### 4.2. Amaliy qismi:

1- Misol Ushbu ifodani hisoblashning blok-chizmasini tuzing.

$$K = \sum_{X=1}^{100} X$$

X ning qiymati 1 dan 100 gacha o'zgaradi, y a'ni 1-100 gacha bo'lgan natural sonlarning jamlanish jarayoni amalga oshadi.



Bu yerda indeksli o'zgaruvchi k o'rilayotgan massiv elementi nomidir. Elementning massivdagi o'ri uning indeksning qiymati bo'lmish elementlar ketma-ketligida joylashgan tartib raqami bilan aniqlanadi. Indeksning qiymati davrning takrorlanish jarayonida o'zgaradi.


Davr tanasining algoritmi massivdagi barcha elementlarga nisbatan qo'llaniladi.

**2-misol:**

$$S = \sum_{i=1} a_i - b^2$$



| Davr<br>parametri<br>qiymati | $S = S + a_i$                   | $i = i + 1$ | $i \leq J$ | Boshqaruvni<br>qabul qiluvchi<br>blok |
|------------------------------|---------------------------------|-------------|------------|---------------------------------------|
| 1                            | $S = 0 + 8$                     | 2           | 2 J        | 4                                     |
| 2                            | $S = 0 + 8 + 7$                 | 3           | 3 J        | 4                                     |
| 3                            | $S = 0 + 8 + 7 + 3$             | 4           | 4 J        | 4                                     |
| 4                            | $S = 0 + 8 + 7 + 3 + 2$         | 5           | 5 J        | 4                                     |
| 5                            | $S = 0 + 8 + 7 + 3 + 2 + 5$     | 6           | 6 J        | 4                                     |
| 6                            | $S = 0 + 8 + 7 + 3 + 2 + 5 + 1$ | 7           | 7 J        | 7                                     |



#### 4.3. Amaliy ish vazifalari.

1. Qanday algoritmlar takrorlanuvchi algoritmlar deb ataladi? Misol keltiring.
2. Takrorlanuvchi tuzilmalari haqida ma'lumot bering. Ularning bir-biridan farqini tushuntiring.
3. Sharti oldin tekshiriluvchi algoritmlarni tushuntirib bering va misol keltiring.

4. Sharti keyin tekshiriluvchi algoritmgga hayotiy misol keltiring.
5. Uchta sondan eng kichigini aniqlab beruvchi algoritm tuzing.
  1. 3 xil takrorlanish tuzilmalaridan foydalanib, 1 dan 100 gacha bo'lgan sonlar yig'indisini hisoblash algoritmini tuzing.
  2. Quyidagi algoritmgga mos masala sharhini aniqlang va blok-sxema tuzing:
    - 1) boshlansin;
    - 2)  $S=0$  deb olinsin;
    - 3)  $i$  ning qiymati 1 deb olinsin;
    - 4)  $P$  ni  $i$  ga ko'paytirib,  $P$  deb olinsin;
    - 5)  $i$  ga 1 ni qo'shib,  $i$  deb olinsin;
    - 6) agar  $i \leq 50$  bo'lsa, 4-bandga o'tilsin;
    - 7) natija  $P$  deb olinsin;
    - 8) tugatilsin.

## 5-Amaliy mashg'ulot: Aralash algoritmlar.

### Reja.

5.1. Aralash algoritmlarga mos algoritmlar tuzish.

5.2. Sohaga doir aralash algoritmlarga mos masalalarni yechish.

### 5.2. Amaliy qismi:

**1-masalA.** Berilgan ikkita natural sonning eng katta umumiy bo'luvchisi (EKUB)ni topish algoritmini so'zlar va blok-sxema yordamida ifodalang.

#### ARALASH (KOMBINATSIYALASHGAN) ALGORITMLAR

Bizga avvaldan ma'lumki, Yevklid algoritmi aynan aralash algoritmgga misol bo'la oladi.

Quyida keltirilgan ikkita natural sonning eng katta umumiy bo'luvchisi (EKUB)ni topishning Yevklid algoritmi ham barcha natural sonlar uchun o'rinalidir.

A va B natural sonlarning eng katta umumiy bo'luvchisi topilsin:

1) boshlansin;


2) agar  $A = B$  bo'lsa, N natija deb olinsin va 6-bandga o'tilsin;

3) A va B sonlarning kattasi aniqlansin;


4) A va B sonlarning kattasi o'zi bilan kichik sonning ayirmasiga teng deb olinsin;

5) 2-bandga o'tilsin;

6) tugatilsin.



**2-masala.**  $ax^2 + bx + c = 0$  ko'rinishidagi kvadrat tenglamaning yechimlarini topish algoritmiga mos blok-sxema tuzing.



### 5.3. Amaliy ish vazifalari:

1. Qanday algoritmlar aralash algoritm deb ataladi?
  2. Aralash algoritmlarga oid hayotiy misollar keltiring.
  3. Aralash algoritmlardan qayerlarda foydalanish mumkin?
  4. Aralash algoritmlar tarkibida qanday algoritmlar bo'lishi mumkin?
1. 8 ta turli son berilgan. Ular orasidagi musbat sonlar ko'paytmasini hisoblash algoritmini tuzing.
  2. Sinfda 18 nafar o'quvchi bor. Qancha o'quvchi matematika fanidan "yaxshi" baho olganligini aniqlash algoritmi tuzilsin.
  3. 12 ta son berilgan. Manfiy sonlar va toq sonlar yig'indisini toping.
- 3-masala.  $ax^2 + bx + c = 0$  ko'rinishidagi kvadrat tenglamaning yechimlarini topish algoritmiga mos blok-sxema tuzing.?

## **6-Amaliy mashg'ulot: Pythonda o'zgaruvchilarni tavsiflash.**

### **Reja.**

- 6.1. Python dasturlash tilida sohaga doir o'zgaruvchilarni hosil qilish.
- 6.2. Sohaga doir Python dasturlash tilida o'zgaruvchilar ustida amallar bajarish.

#### **6.1. Nazriy qismi:**

Biror ma'lumotni saqlash va uning ustida turli amallarni bajarish uchun bizga o'zgaruvchilar yordam beradi. O'zgaruvchining qiymati, o'z nomi bilan aytib turibdiki, o'zgarishi mumkin. Unda xohlagan qiymatni saqlash mumkin. O'zgaruvchilar kompyuter xotirasidagi joy bo'lib, u yerda siz biror ma'lumotni saqlaysiz. O'zgaruvchining konstantadan farqi, o'zgaruvchiga dastur ishlashi davomida (run time) murojaat qilib, uning qiymatini o'zgartira olamiz. Konstantaga esa oldindan ma'lum bir qiymat beriladi va bu qiymatni o'zgartirib bo'lmaydi.

Pythonda o'zgaruvchilar ularni qiymatlarini tenglashtirish bilan hosil qilinadi. O'zgaruvchilarning turini alohida e'lon qilish shart emas. Pythonda barchasi avtomatik tarzda ishlaydi:

```
x = 5
y = "Salom dunyo"
```

#### **6.2. Amaliy qismi:**

##### **O'zgaruvchilarni hosil qilish**

O'zgaruvchilar ma'lum bir turdagi qiymatni o'zida saqlovchi konteynrlardir. Boshqa dasturlash tillaridan farqli, Python o'zgaruvchilarni e'lon qilish uchun alohida buyruqqa ega emas.

O'zgaruvchilar ularga qiymatni tenglashtirish orqali hosil qilinadi. Quyida biz 2 ta o'zgaruvchini

xil trudagi qiymatga biriktiramiz va ekranga chiqaramiz:

```
x = 5
y = "Python"
print(x)
print(y)
```

O'zgaruvchilarni qaysi turda ekanligini e'lon qilish shart emas. Buni Python avtomatik tarzda aniqlaydi. O'zgaruvchilarning turlarini kodning istalgan qismida o'zgartirish ham mumkin.

```
x = "Dastur" # x-satr
x = 5 # x endi butun son
print(x)
```

Satrlı o'zgaruvchilar qo'shtirnoq yoki bittalik tirnoqlar ichiga yozilish bilan e'lon qilinishi mumın:

```
x = "Dastur"
# ikkala o'zgaruvchi ham bir xil
y = 'Dastur'
```

##### **O'zgaruvchi nomlari**

O'zgaruvchilar harflar yoki so'zlar bilan ifodalanishi mumkin. Ularni ifodalash uchun ayrim

qoidalar mavjud:

- O‘zgaruvchi nomi harf yoki tag chiziq bilan boshlanishi kerak;
- O‘zgaruvchi nomi raqam bilan boshlanmasligi kerak;
- O‘zgaruvchi nomi faqat harflar, raqamlar va tag chiziqdan iborat bo‘lishi mumkin;
- O‘zgaruvchi nomlari katta-kichik harflarni farqlaydi (ism, iSm, ISM – bular 3 xil o‘zgaruvchilar);
- O‘zgaruvchi nomi orasida bo‘shliq (probel) bo‘lmasligi kerak;

# To‘g‘ri nomlangan o‘zgaruvchilar:

```
myvar = "Python"
my_var = "Python"
_myvar = "Python"
myVar = "Python"
MYVAR = "Python"
myvar2 = "Python"
```

# Noto‘g‘ri nomlangan o‘zgaruvchilar:

```
2myvar = "Python"
my-var = "Python"
my var = "Python"
```

Bir nechta o‘zgaruvchiga qiymat o‘zlashtirish

Pythonda bir nechta o‘zgaruvchiga qiymatlarni bir qatorning o‘zida o‘zlashtirish mumkin:

```
x, y, z = "Olma", "Banan", "Nok"
print(x)
print(y)
print(z)
```

Va aksincha, bir qiymatni bir nechta o‘zgaruvchiga o‘zlashtirish ham mumkin:

```
x = y = z = "Meva"
print(x)
print(y)
print(z)
```

O‘zgaruvchilarni ekranga chiqarish

Pythonda o‘zgaruvchilarni yoki natijalarni ekranga chiqarish uchun print funksiyasidan foydalaniladi. Biror matnga satr o‘zgaruvchisini biriktirish uchun “+” belgisi ishlatiladi:

```
x = "maroqlidir"
print ("Dasturlashni o‘rganish "+x)
```

Bundan tashqari “+” belgisini o‘zgaruvchilarni o‘zaro biriktirish uchun ham ishlatib bo‘ladi:

```
x = "Dasturlashni"
y = "o‘rganamiz"
print (x+y)
```

Sonli o'zgaruvchilar uchun "+" belgisi matematik amal sifatida ta'sir qiladi:

```
x = 5
```

```
y = 10
```

```
print (x+y)
```

Satr o'zgaruvchini sonli o'zgaruvchiga qo'shmoqchi bo'lsak Python xato yuz berganini ma'lum

qiladi:

```
x = 5
```

```
y = "besh"
```

```
print (x+y)
```

### **Global o'zgaruvchilar**

Funksiyadan tashqarida hosil qilingan o'zgaruvchilar global o'zgaruvchilar hisoblanadi.

Global o'zgaruvchilar kodning istalgan qismida (funksiya ichida ham, tashqarisida ham) ishlatilishi mumkin. Quyidagi kodda funksiya tashqarisida o'zgaruvchi hosil qilamiz va uni funksiya ichida ishlatamiz:

```
x = "qiziq"
```

```
def funksiya():
```

```
print("Dasturlash juda "+ x)
```

```
funksiya()
```

Funksiya ichida hosil qilingan o'zgaruvchi lokal o'zgaruvchi deyiladi. Agar lokal va global o'zgaruvchilarni nomlari bir xil bo'lsa, funksiya ichida lokal o'zgaruvchining qiymati funksiya tashqarisida esa global o'zgaruvchining qiymati olinadi:

```
x = "shirin"
```

```
def funksiya():
```

```
x = "foydali"
```

```
print("Olma "+ x)
```

```
funksiya()
```

```
print ("Olma "+ x)
```

Bundan tashqari "+" belgisini o'zgaruvchilarni o'zaro biriktirish uchun ham ishlatsa bo'ladi:

```
x = "Dasturlashni"
```

```
y = "o'rganamiz"
```

```
print (x+y)
```

Sonli o'zgaruvchilar uchun "+" belgisi matematik amal sifatida ta'sir qiladi:

```
x = 5
```

```
y = 10
```

```
print (x+y)
```

Satr o'zgaruvchini sonli o'zgaruvchiga qo'shmoqchi bo'lsak Python xato yuz berganini ma'lum

qiladi:

```
x = 5
```

```
y = "besh"
```



```
print (x+y)
```

### **Global o'zgaruvchilar**

Funksiyadan tashqarida hosil qilingan o'zgaruvchilar global o'zgaruvchilar hisoblanadi. Global o'zgaruvchilar kodning istalgan qismida (funksiya ichida ham, tashqarisida ham) ishlatilishi mumkin. Quyidagi kodda funksiya tashqarisida o'zgaruvchi hosil qilamiz va uni funksiya ichida ishlatamiz:

```
x = "qiziq"
def funksiya():
    print("Dasturlash juda "+ x)
funksiya()
```

Funksiya ichida hosil qilingan o'zgaruvchi lokal o'zgaruvchi deyiladi. Agar lokal va global o'zgaruvchilarni nomlari bir xil bo'lsa, funksiya ichida lokal o'zgaruvchining qiymati funksiya tashqarisida esa global o'zgaruvchining qiymati olinadi:

```
x = "shirin"
def funksiya():
    x = "foydali"
    print("Olma "+ x)
funksiya()
print ("Olma "+ x)
```

### **6.3. Amaliy ish vazifalari.**

1. Quyidagi o'zgaruvchilar turini aniqlang:

alfa = 579413; beta = 'Aqlbek'; d = True; s = 0; resp = 'd'; b = 100; max = False;  
fc = 'True34'; t = 102.5; res = '2500'; a = '-50'; b = 45.67.

2. Ikkita qayiq turg'un suvda bir-biriga tomon a km/soat va b km/soat tezlik bilan suzmoqda. Ular orasidagi masofa S km bo'lsa, ular qancha vaqtda uchrashadi? a va b foydalanuvchi tomonidan kiritiladi.

3. Xonaning bo'yi (x) va eni (y) metr foydalanuvchi tomonidan kiritiladi. Xonaning yuzasi (S) va perimetri (P) ni topish dasturini tuzing.

4. Uchburchak asosining uzunligi (D) va balandligi (h) foydalanuvchi tomonidan kiritiladi. Uchburchak yuzasi (S) ni hisoblash dasturini tuzing.

5. Avtomobilning o'rtacha tezligi v (km/soat) va bosib o'tgan yo'li s (km) foydalanuvchi tomonidan kiritiladi. Avtomobilning yurgan vaqti t (soat) ni hisoblash dasturini tuzing.

6. Doiraning radiusi r ga teng. Doiraning yuzi (s) va aylana uzunligi (l) ni topish dasturini tuzing. Doiraning radiusi foydalanuvchi tomonidan kiritiladi (PI=3.14).

## 7-Amaliy mashg'ulot: Pythonda arifmetik amallarni bajarish Reja.

7.1. Python dasturlash tilida sonli ma'lumotlar ustida turli arifmetik amallarni bajarish.

7.2. Pythonda sohaga doir arifmetik amallarni bajarish.

### 7. 1. Nazariy qismi:

Operatorlar o'zgaruvchi va qiymatlar ustida amallar bajarish uchun ishlatiladi. Python operatorlari quyidagilar:

- Arifmetik operatorlar
- O'zlashtirish operatorlar
- Taqqoslash operatorlari
- Mantiq operatorlari
- Aniqlash operatorlari
- A'zolik operatorlari
- Bitli operatorlar

Arifmetik operatorlar Arifmetik operatorlar odatiy matematik amallarni bajarish uchun ishlatiladi:

+ Qo'shish  $x+y$   
- Ayirish  $x-y$   
\* Ko'paytirish  $x*y$   
/ Bo'lish  $x/y$   
% Qoldikli bo'lish  $x\%y$   
// Butunli bo'lish  $x//y$

### 7.2. Amaliy qism:

Ularni amalda sinab ko'rsak yaxshiroq tushunamiz:

```
x = 10
y = 3
print(x + y) 13
print(x - y) 7
print(x * y) 30
print(x / y) 3.3333333333333335
rint(x % y) 1
print(x ** y) 1000
print(x // y) 3
```

### O'zlashtirish operatorlari

|     |         |            |
|-----|---------|------------|
| =   | x = 5   | x=5        |
| +=  | x += 3  | x = x + 3  |
| - = | x -= 3  | x= x - 3   |
| *=  | x *= 3  | x= x * 3   |
| /=  | x /= 5  | x = x / 5  |
| %=  | x %= 5  | x = x % 5  |
| //= | x //= 5 | x = x // 5 |
| **= | x **= 5 | x = x ** 3 |

|     |         |            |
|-----|---------|------------|
| &=  | x &= 3  | x = x & 3  |
| =   | x  = 3  | x = x  3   |
| ^=  | x ^= 3  | x = x ^ 3  |
| >>= | x >>= 3 | x = x >> 3 |
| <<= | x <<= 3 | x = x << 3 |

```
x +=3  
print(x)  
x -=3  
print(x)  
x *=3  
print(x)
```

### Taqqoslash operatorlari

Taqqoslash operatorlari qiymatlarni o'zaro taqqoslash uchun ishlatiladi:

|    |                         |        |
|----|-------------------------|--------|
| == | <b>Teng</b>             | x == y |
| != | <b>Teng emas</b>        | x != y |
| >  | <b>Katta</b>            | x > y  |
| <  | <b>Kichik</b>           | x < y  |
| >= | <b>Katta yoki teng</b>  | x >= y |
| <= | <b>Kichik yoki teng</b> | x <= y |

### Mantiq operatorlari

Mantiq operatorlar shartlarni birlashtirib ishlatish uchun kerak:

- and - Agar ikkala shart ham rost bo'lsa, rost qiymat qaytaradi.
- or - Kamida bitta shart rost bo'lsa ham rost qiymat qaytaradi.
- not - Shart qiymatini teskarisiga o'zgartiradi, ya'ni rost bo'lsa yolg'on, yolg'on bo'lsa rost

```

bo'ladi.
a = 5
print (a>3 and a<10)
print (a>3 or a<4)
print (not(a>3 and a<10))
True
True
False

```

### Aniqlash operatorlari

Aniqlash operatorlari o'zaro 2 ta obyektlarni solishtiradi. Bunda ularning o'zaro qiymatlarini tengligi bo'yicha emas, haqiqatdan ham ular bir xil obyekt ekanligi va bir xil xotira yo'nalishiga ega ekanligi bo'yicha taqqoslanadi. Bu operatorlar 2 ta:

- is - Ikkala o'zgaruvchi ham bir xil obyekt bo'lsa rost, aks holda yolg'on qiymat qaytaradi.

- is not - Obyektlar bir xil bo'lmasa rost, aks holda yolg'on qiymat qaytaradi.

```

x = ["olma", "banan"]
y = ["olma", "banan"]
z = x
print(x is z)
print(x is y)
print(x == z)
#-----print(x is not z)
print(x is not y)
print(x != z)
True
False
True
False
True
False

```

### A'zolik operatorlari

A'zolik operatorlari biror ketma-ketlik obyektga tegishli ekanligini tekshiradi:

- in - Belgilangan qiymat obyektga mavjud bo'lsa, rost qiymat qaytaradi.

- not in - Belgilangan qiymat obyektga mavjud bo'lmasa, rost qiymat qaytaradi.

```

x = ["audi", "mustang"]
print("audi" in x)
print("audi" not in x)
True
False

```

### Bitli operatorlar

Bitli operatorlar ikkilik sanoq sistemasi bilan ishlashda kerak bo'ladi:

- & (AND) - Ikkala bit ham 1 ga teng bo'lsa, 1 ga o'rnatiladi.
- | (OR) - Kamida bitta bit 1 ga teng bo'lsa, ikkala bitni ham 1 ga o'rnatadi.
- ^ (XOR) - Faqat bitta bit 1 ga teng bo'lsa, ikkala bitni ham birga o'rnatadi.
- ~ (NOT) - Barcha bitlarni invertlaydi (teskarisiga o'zgartiradi)

- << - O'ngdan chapga nollarni siljitib, chapdagi chetki bo'laklarni tushirib yuboradi.
- >> - Chapdan o'ngga bitlarning nusxalari kiritilib siljitib boriladi. O'ngdagi chetki bitlar tushib qoladi.

### **7.3. Amaliy ish vazifalari:**

1. Hovuzning bo'yi 6 metr, eni 4 metr va chuqurligi 3 metr. Berilganlar asosida quyidagi topshiriqlar uchun dastur tuzing:
  - A) Hovuz ichiga kafel qoplash uchun qancha kvadrat metr kafel kerak bo'ladi?
  - B) Hovuzni to'ldirish uchun qancha litr suv kerak bo'ladi ( $1l = 1000 \text{ cm}^3$ )?
2. Yuqoridagi masalada hovuz bo'yi, eni va chuqurligi kattaliklari foydalanuvchi tomonidan kiritiladigan hol uchun dastur tuzing.
3. 10 288 sekundni soat, minut va sekunlarda ifodalang.
4. Berilgan ikki xonali son xonalarining ko'paytmasini hisoblash dasturini tuzing.
5. Berilgan uch xonali son xonalarining yig'indisi va ko'paytmasini hisoblash dasturini tuzing.

## 8-Amaliy mashg'ulot: Pythonda satrlar bilan ishlash.

### Reja.

8.1. Python dasturlash tilida satrlarni bir-biriga bog'lash.

8.2. Pythonda sohaga doir satrlar ustida amallarni bajarish.

### 8.1. Nazariy qisim:

Satrlar – bu belgilar ketma-ketligi. Ko'p hollarda satrlar so'zlar jamlanmasidan tashkil topadi. Pythonda satrlar bilan ishlash juda qulay. Bir qancha satr literallari mavjud. Pythonda satrlar qo'shtirnoq yoki bittalik tirnoqlar bilan ifodalanadi. Ularni print() funksiyasi bilan ekranga chiqaramiz.

```
print ("Salom")
print ('Python')
```

Apostrof va qo'shtirnoqdagi satrlar bir narsa. Uni ikki xil variantda keltirilishiga sabab literallarga postrof va qo'shtirnoq belgilarini maxsus xizmatchi belgilardan foydalanmasdan kiritish mumkinligi deb hisoblanadi.

Ism = "San'atbek"

Gap = 'Men "Python dasturlash tili" nomli kitob yozdim'

Satrni o'zgaruvchiga biriktirish

Satrni o'zgaruvchiga biriktirish uchun tenglik belgisi ishlatiladi:

a = "Salom"

print(A)

**Ko'p qatorli satr** Ko'p qatorli satrni hosil qilish uchun uchtalik qo'shtirnoq yoki tirnoqlardan foydalaniladi. Bunda satr qanday holatda yozilgan bo'lsa shundayligicha natija beradi:

a = """ Bu ko'p qatorli satr """

b = " Bu ham ko'p qatorli satr "

```
print(A)
print(B)
```

Satr konstantalarini birlashtirish uchun ularni yonma-yon joylashtirishning o'zi kifoyA. Python avtomat ularni birlashtiradi. Misol uchun: "Ismingiz" "kim?" avtomat "Ismingiz kim?" ga aylanadi.

Eslatma: Bir tirnoq va qo'sh tirnoqdagi satrlar bir-biridan hech ham farq qilmaydi.

Satr – bu massiv Satrni alohida belgilar ketma-ketligidan tashkil topgan massiv deb hisoblash mumkin. Pythonda belgini ifodalovchi ma'lumot turi yo'qligi uchun bitta belgi deb, bitta elementdan tashkil topgan satrga aytiladi. Satrning istalgan elementiga murojaat qilish mumkin. Buning uchun kvadrat qavslardan foydalanamiz va elementning satrdagi o'rnini kiritamiz.

Eslatma: Elementning satrdagi o'rnini ifodalash uchun sanoq o dan boshlanadi. Ya'ni satrdagi

birinchi elementning o'rne 0 ga, ikkinchi elementning o'rne 1 ga teng va hokazo.

Quyidagi misolimizda biz ikkinchi elementni ekranga chiqaramiz:

a = "Dasturlash"

print(a[1])

## 8.2. Amaliy qismi:

### Satrlar ustida amallar

Shunday qilib satrlar bilan ishlash haqida gapirdik, endi satrlarning funksiyalari va metodlari haqida gapiramiz. Quyida satrlarning barcha funktsiya va metodlari keltirilgan.

#### ❖ **Konkatenatsiyalash** (qo'shish)

```
>>> s1='spam'
>>> s2='eggs'
>>> s1+s2
'spameggs'
```

#### ❖ **Satrni takrorlash** (dublikat qilish)

```
>>> print('dunyo'*3)
dunyodunyodunyo
```

#### ❖ **Satr uzunligi** (len() funksiyasi)

```
>>> gap='bu satrning uzunligi qancha'
>>> len(gap)
27
```

#### ❖ **Indeks bo'yicha chiqarish**

```
>>> s='spam'
>>> s[0]
's'
>>> s[2]
'a'
>>> s[-2]
'a'
```

Misoldan ko'rinib turibidiki Python manfiy indeks bo'yicha chiqarishga ruxsat etadi, lekin hisoblash qator oxiridan boshlanadi. Satrdan qism ajratib olishni uning oxiridan boshlash uchun manfiy indeks ishlatiladi.

– Satrdan qism ya'ni kesma ajratib olish. Satrdan bir nechta elementdan tashkil topgan qismini ajratib olish mumkin. Buning uchun ajratilayotgan qismining boshlang'ich elementining satrdagi o'ri va oxirgi elementining satrdagi o'ri olinadi. Ularni bildirgan sonlar orasiga: belgisi qo'yilgan holda kvadrat qavs ichiga yoziladi.

Kesmani ajratib olish operatori:[X:Y].

X- kesmaning boshi, Y esa –oxiri. Y raqamli belgi kesmaga kirmaydi. Jimlik holatida birinchi indeks 0 ga teng, ikkinchi indeks esa qator uzunligiga teng bo'ladi.



```
>>> s='spameggs'
>>> s[3:5]
'me'
>>> s[2:-2]
'ameg'
>>> s[:6]
'spameg'
>>> s[1:]
'pameggs'
>>> s[: ]
'spameggs'
```

Bundan tashqari kesmani ajratib olishda qadamni belgilash mumkin:

```
>>> s[::-1]
'sggemaps'
>>> s[3:5:-1]
''
>>> s[2::2]
'aeg'
```

Satrga oid funksiyalar Pythonda satr bilan ayrim amallarni bajarish uchun maxsus funksiyalar bor. Ularning soni ancha ko'p, hammasini eslab qolish esa qiyin. Shuning uchun kerakli fuksiyani manbadan tanlab foydalangan ma'qul. Hozir esa shulardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz.

Metodlarni chaqirganga Pythondagi satrlar o'zgarmaydigan ketma-ketliklar darajasiga kirishini inobatga olishimiz kerak. Bu degani hamma funksiyalar va metodlar faqat yangi satrni tuzishi mumkin.

```
>>> s='spam'
>>> s[1]='b'
Traceback (most recent call last):
  File "<pyshell#27>", line 1, in <module>
    s[1]='b'
TypeError: 'str' object does not support item assignment
>>> s=s[0]+'b'+s[2:]
>>> s
'sbam'
```

Shuning uchun hamma metodlar yangi satrni qaytaradilar, va u keyin boshqa nomga ega bo'ladi.

S = 'str'; S = "str"; S = ''str''; S = ""str"" - Satrlarni literallari

S = "s\np\ta\nbbb" - ekran bilan ishlash ketma-ketliklari

S = r"C:\temp\ngw" - Formatlashtirilmagan satrlar

S = b"byte" - Baytlar qatori

S1+S2 - Konkatenatsiya (qo'shish)

S1\*3 - Satrni takrorlash

S[i] - Indeks bo'yicha murojaat

S[i:j:step] - Step qadamli i elementdan boshlab j elementgacha bo'lgan kesmani ajratib olish.

len()- Satr uzunligini hisoblaydi. Bunda har bir harf, belgi, xatto bo'shliq ham hisobga olinadi.

```
>>> gap='bu satrning uzunligi qancha'
>>> len(gap)
27
```

S.find(str,[start],[end])- Satrdan satr ostini izlash. Satr ostining birinchi belgisini o`rinini qaytaradi, agar satrda satr osti bo`lmasa -1 ni qaytaradi.

```
>>> s='salom bu Python dasturi'
>>> s.find('Python',1, 5)
-1
>>>
>>> s.find('Python',1, 50)
9
```

S.rfind(str,[start],[end])- Satrdan satr ostini axtarish. Oxirgi kirish raqamini yoki 1 ni qaytaradi

S.index(str,[start],[end])- Satrdan satr ostini axtarish. Birinchi kirish raqamini qaytaradi yoki

ValueError istisnosini chaqiradi

S.rindex(str,[start],[end])- Satrdan satr ostini axtarish. Oxirgi kirish raqamini qaytaradi yoki

ValueError istisnosini chaqiradi.

S.isdigit() - Satrda raqamlar ishtirok etganligini tekshirish.

S.isalpha() - Satr faqat harflardan iboratligini tekshirish.

S.isalnum() - Satr harf yoki raqamlardan iboratligini tekshiradi.

S.islower() - Satr quyi registrdagi belgilardan iboratligini tekshiradi.

S.isspace()-Satrda ko`rinmaydidan belgilar borligini tekshirish (probel, sahifani o`tkazish

belgisi(`p`), yangi satrga o`tish(`n`), koretkani qaytarish(`r`), gorizontal tabulyatsiya(`t`) va vertikal tabulyatsiya)

S.istitle() - Satrda so`zlar bosh harf bilan boshlanishini tekshirish.

S.startswith(str)- S satr str shablonidan boshlanishini tekshirish.

S.endswith(str)- S satr str shabloni bilan tugashini tekshirish.

S.join(ro`yxat)- S ajratuvchiga ega ro`yxatdan qatorni yig`ish.

Ord(belgi)- Belgiga mos ASCII kodni qaytaradi.

Chr(son)- ASCII kodga mos belgini qaytaradi.

S.capitalize()-Satrning birinchi belgisi yuqori registrdagi qolganlarini quyi registrga o`tkazadi.

S.center(width,[fill])- Chegaralari bo`yicha fill (jimlik holatida probel) belgisi turuvchi markazlashtirilgan satrni qaytaradi.

S.expandtabs(tabsize)- Joriy ustungacha bir yoki bir qancha probellar bilan tabulyatsiyaning

hamma belgilari almashtirilgan satr nusxasini qaytaradi. Agarda TabSize ko`rsatilmagan bo`lsa tabulyatsiya hajmi 8 probelga teng bo`ladi.

S.lstrip([chars])- Satr boshidagi probel belgilarini olib tashlash.

S.rstrip([chars]) - Satr oxiridan probel belgilarini olib tashlash.

S.strip([chars]) - Satr boshidan va oxiridan probel belgilarini olib tashlash.

S.partition(shablon) - Birinchi shablon oldida turuvchi qismni keyin shablonni o`zini va

shablondan keyin turuvchi qismga ega kortejni qaytaradi. Agarda shablon topilmasa satrga ega bo`lgan kortejni qaytaradi, avval ikki bo`sh satr keyin satrni o`zini.

S.rpartition(sep)- Oxirgi shablon oldida turuvchi qismni keyin shablonni o`zini va shablondan keyin turuvchi qismni qaytaradi. Kortej qator o`zidan va undan keyin ikkita bo`sh qatordan iborat bo`ladi.

S.swapcase()-Quyi registrdagi belgilarni yuqori registrga, yuqorilarni esa quyi o`tkazadi.

S.title() - Har bitta so`zning birinchi harfini yuqori registrga qolganlarini esa quyi registrga o`tkazadi.

S.zfill(width) - Qator uzunligini Widthdan kam qilmaydi agar kerak bo`lsa birinchi nollar bilan to`ldiradi.

S.strip() funksiyasi satrning boshi va oxirida bo`shliqlar bo`lsa, olib tasdiqlaydi:

```
a = " Dastur "
```

```
print(A.strip())
```

S.lower() funksiyasi satrdagi barcha so`zlarni kichik harf bilan yozilishini ta`minlaydi:

```
a = "Markaziy Osiyo"
```

```
print(A.lower())
```

S.upper() funksiyasi satrdagi barcha so`zlarni katta harflar bilan yozadi:

```
a = "Markaziy Osiyo"
```

```
print(A.upper())
```

S.replace() funksiyasi satrdagi bir so`z yoki harfni boshqasi bilan almashtiradi:

```
a = "Bor"
```

```
b = "Markaziy Osiyo"
```

```
print (A.replace("r", "y"))
```

```
print (B.replace("Markaziy", "O`rta"))
```

```
Boy
```

```
O`rta Osiyo
```

S.split() funksiyasi satrni ko`rsatilgan belgi bo`yicha qismlarga bo`lib chiqadi. Masalan, vergul

ko`rsatilsa satrdagi har bir vergulgacha bo`lgan so`z yoki harflar bitta alohida qism deb olinadi.

Yoki probel (bo`shliq) ko`rsatilsa har bir probelgacha bo`lgan qismi ajratiladi.

```
a = "Python bilan ishlash qiziqarli"
```

```
print(A.split(" "))
```

```
['Python', 'bilan', 'ishlash', 'qiziqarli']
```

### Satrlarni tekshirish

Aniq bir jumla yoki harf(belgi) satrda bor yoki yo'qligini in yoki not kalit so'zlari bilan tekshirish mumkin. Bunday holatda qidirilaytogan jumla bor bo'lsa True (rost) , aks holda False (yolg'on) qiymati qaytariladi. Quyidagi kodimizda "ol" jumlasini borligini tekshirib ko'ramiz:

```
txt = "Olmaxon yerdagi olmani olib ketdi"  
x = "ol" in txt  
print(x)
```

Endi satrda "ol" jumlasini yo'qligini tekshiramiz. Bu yerda "ol" jumlasini satrda borligi uchun False

(yolg'on) qiymati qaytariladi:

```
txt = "Olmaxon yerdagi olmani olib ketdi"  
x = "ol" not in txt  
print(x)
```

### Satrlar formati

Biz satr va sonli o'zgaruvchilarni birgalikda to'g'ridan to'g'ri ishlata olmaymiz. Satr ichida sonli o'zgaruvchini qo'llash uchun format() funksiyasidan foydalaniladi. Bu funksiya sonli qiymatni olib satrli o'zgaruvchiga aylantiradi va {} belgisi qo'yilgan joy o'rnida o'sha qiymatni joylashtiradi.

```
yosh = 21  
matn = "Mening yoshim {} da"  
print(matn.format(yosh))  
format() funksiyasi bilan istalgancha sonli qiymatlarni bir satrga joylash mumkin. Uning o'zi  
qiymatlarni tartib bo'yicha tegishli joylarga qo'yib chiqadi:  
raqam = 2  
kilo = 3  
pul = 5000  
savdo = "{}-do'kondan {} kg olmani {} so'mga sotib oldim"  
print(savdo.format(raqam, kilo, pul))
```

2-do'kondan 3 kg olmani 5000 so'mga sotib oldim

Qiymatlarni joylashtirish tartibini o'zingiz aniq belgilab bermoqchi bo'lsangiz indeks sonlaridan

foydalanishingiz kerak bo'ladi. Eslatib o'tamiz dasturlashda sanoq 0 dan boshlanadi:

```
raqam = 2  
kilo = 3  
pul = 5000  
savdo = "{} {1} kg olmani {0}-do'kondan {2} so'mga sotib oldim"  
print(savdo.format(raqam, kilo, pul))
```

3 kg olmani 2-do'kondan 5000 so'mga sotib oldim

Satrlarni formatlashni yana bir nechta xil usullari bor. Ular bilan keyingi darsda tanishamiz.

## Maxsus belgilar

Ekran bilan ishlash ketma-ketliklari- klaviatura yodamida kiritish murakkab bo'lgan belgilarni yozishga imkon beradi. Ayrim belgilar borki, ularni satr ichida to'g'ridan to'g'ri qo'llab bo'lmaydi. Ularni satr ichida qo'llanganda doimo \ (backslash) belgisi ham bo'lishi shart.

Masalan, qo'shtirnoqni satr ichida shunchaki qo'llasak, dasturda xatolik yuz beradi:

```
txt = "Akam bilan "Paxtakor" metrosida ko'rishamiz"
```

```
print(txt)
```

Dasturda xatolik bo'lmasligi uchun qo'shtirnoqni \" ko'rinishida belgilaymiz.

```
txt = "Akam bilan \"Paxtakor\" metrosida ko'rishamiz"
```

```
print(txt)
```

Satr ichida qo'llanadigan boshqa maxsus belgilardan namuna:

- \ ' bittalik qo'shtirnoq
- \\ backslash belgisi
- \n yangi qatorga o'tish
- \t tabulyatsiya (so'zni bir harf kengligida surish)

| Xizmatchi belgilar | Vazifasi                                            |
|--------------------|-----------------------------------------------------|
| \n                 | Keyingi qatorga o'tish                              |
| \a                 | Qo'ng'iroq                                          |
| \f                 | Keyingi betga o'tish                                |
| \r                 | Koretkani qaytarish                                 |
| \t                 | Gorizontal tabulatsiya                              |
| \v                 | Vertical tabulatsiya                                |
| \N{id}             | Unicode ma'lumotlar bazasining ID identifikatori    |
| \uhhhh             | Unicode ning 16 lik ko'rinishidagi 16 bitli belgisi |
| \Uhhhh...          | Unicode ning 32 lik ko'rinishidagi 32 bitli belgisi |
| \xhh               | Belgining 16 lik kodi                               |
| \ooo               | Belgining 8 lik kodi                                |
| \0                 | Null belgisi (satr oxiri belgisi emas)              |

Satrnı formatlash format() funksiyasi bilan amalga oshiriladi. Bu narsa bizga satr ichiga qiymatlarini joylashtirish uchun kerak bo'lgan joyga maxsus qavslar qo'yiladi va format() funksiyasi bilan kerakli qiymat joylashtiriladi.

```
narx = 30
```

```
satr = "Mahsulot narxi { } so'm"
```

```
print(satr.format(narx))
```

Mahsulot narxi 30 so'm

Ko'proq qiymatlarda formatlash

Satr ichiga ko'proq qiymatlarni ham joylashtirsa bo'ladi. Maxsus qavslar ham shuncha bo'lishi kerak:

```
sana = 5
```

```
oy = "avgust"
```

```
yil = 2020
```

```
bugun = "Bugun { } - { }, { } - yil"
```

```
print(bugun.format(sana, oy, yil))
```

Bugun 5 - avgust, 2020 - yil

Indeks raqamlari orqali formatlash

Qiyamatlar to‘g‘ri joylashishiga amin bo‘lishi uchun ularning tartibini indeks bilan ko‘rsatsa bo‘ladi:

```
sana = 5
```

```
oy = "avgust"
```

```
yil = 2020
```

```
bugun = "Bugun {0} - {1}, {2} - yil"
```

```
print(bugun.format(sana, oy, yil))
```

```
Bugun 5 - avgust, 2020 - yil
```

Yoki bir qiymatni takror ishlatish uchun ham indeks soni raqami bilan unga murojaat qilamiz: soat = 3 fan = "Dasturlash"

```
dars = "Bugun {0} soat darsimiz bor. {0} - darsimiz {1}"
```

```
print(dars.format(soat, fan))
```

```
Bugun 3 soat darsimiz bor. 3 - darsimiz Dasturlash
```

### Nomli indekslar

Indekslarni raqamlab ishlatishdan tashqari, ularni nomlab ishlatish ham bo‘ladi va bu quyidagicha amalga oshadi:

```
satr = "Uning ismi {ism}, yoshi {yosh} da"
```

```
print(satr.format(ism = "Abbosbek", yosh = 20))
```

```
Uning ismi Abbosbek, yoshi 20 da
```

### 8.3. Amaliy ish vazifalari.

1. “gul”, “is”, “ton” qism so‘zlaridan so‘z yasang.
2. Ismingizni ekranga 5 marta chiqarish dasturini tuzing.
3. Sinf (masalan, 9) va ism (masalan, DilshoE) foydalanuvchi tomonidan kiritiladi. “Men 9-sinf o‘quvchisi – Dilshodman” satrini chiqaruvchi dastur chizing
1. “GULTOJIXO‘ROZ” so‘zidan qism so‘zlar ajratuvchi dastur tuzing.
2. TUZAMAN, PYTHON, DASTUR, TILIDA, MEN. Ushbu so‘zlardan jumla tuzuvchi dastur tuzing.
3. Foydalanuvchi tomonidan kiritilgan matn uzunligini aniqlovchi dastur tuzing.
4. “\*” lar yordamida uchburchak yasang.
5. “+” yordamida kvadrat yasang.
6. Belgilar yordamida pingvin yasang.

```
+++++
```

```
+++++
```

```
~
—
(O O)
 / V \
/( _ )\
 ^^ ^^
```

## 9-Amaliy mashg'ulot: Pythonda operator va ifodalar.

### Reja.

9.1. Python dasturlash tilida o'zlashtirish operatorlari ustida sohaga doir masalalar yechish.

9.2. Taqqoslash, mantiq va aniqlash operatorlari ustida sohaga doir masalalar yechish.

### 9.1. Nazariy qismi:

Dasturdagi ko'p amallar (mantiqiy qatorlar) ifodalardan tashkil topgan. Bunga oddiy misol:  $2 + 3$ . Ifodani operatorlar va operandlarga ajratish mumkin. Operator **+** bu biror amalni bajaruvchi va simvol yordamida yoki zaxiraga olingan so'zlar yordamida ifodalanadigan funksional. Operatorlar qiymatlar ustida biror amalni bajaradi va bu qiymatlar operandlar deyiladi. Bizning xolatda 2 va 3 **+** bu operandlar.

| Operator | Nomlanishi         | Ta'rifi                                                                                                          | Misol                                                                                                                                                                      |
|----------|--------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| +        | Qo'shish           | Ikkita ob'yektning yig'indisini hisoblaydi                                                                       | $3 + 5$ ifoda 8 ni beradi; 'a' + 'b' ifoda 'ab' ni beradi.                                                                                                                 |
| -        | Ayirish            | Ikkata sonning farqini beradi. Agar birinchi operand mavjud bo'lmasa, uning qiymati 0 ga teng deb olib ketiladi. | -5.2 manfiy qiymat beradi, 50 <b>+</b> 24 ning qiymati esa 26 ga teng.                                                                                                     |
| *        | Ko'paytirish       | Ikkita son ko'paytmasini beradi yoki satrni ko'rsatilgan miqdorda takrorlangan yangi satrni qaytaradi.           | $2 * 3$ ifoda 6 beradi. 'xa' * 3 ifoda 'xaxaxa' ni qaytaradi.                                                                                                              |
| **       | Darajaga ko'tarish | x sonini y darajaga ko'tarilganda hosil bo'lgan qiymatni qaytaradi.                                              | $3**4$ ifoda 81 ni qaytaradi (ya'ni $3*3*3*3$ )                                                                                                                            |
| /        | Bo'lish            | 'x' ni 'y' ga bo'lganda hosil bo'lgan bo'linmani qaytaradi.                                                      | $4 / 3$ ifoda 1.3333333333333333 ni beradi.                                                                                                                                |
| //       | Qoldiqsiz bo'lish  | Bo'lishdan hosil bo'lgan bo'linmaning qoldiqsiz butun qismini qaytaradi.                                         | $4 // 3$ ifoda 1 ni qaytaradi.                                                                                                                                             |
| %        | Qoldiqlik bo'lish  | Bo'lishdan hosil bo'lgan qoldiqni qaytaradi.                                                                     | $8 \% 3$ ifoda 2 ni beradi. -25.5 % 2.25 ifoda 1.5 ni beradi.                                                                                                              |
| <<       | Chapga surish      | Bit sonni chapga ko'rsatilgan miqdorda suradi.                                                                   | $2 << 2$ ifoda 8 ni beradi. Ikkilik sanoq tizimida 2 soni 10 ko'rinishiga ega bo'ladi. Chapga 2 bit miqdorida surish 1000 beradi, bu o'nlik sanoq tizimida 8 ni beradi.    |
| >>       | O'ngga surish      | Bit sonni o'ngga ko'rsatilgan miqdorda suradi.                                                                   | $11 >> 1$ ifoda 5 ni beradi. Ikkilik sanoq sistemasida 11 soni 1011 ko'rinishida bo'ladi uni 1 bit o'ngga sursak 101 hosil bo'ladi va bu onlik sanoq tizimida 5 ni beradi. |
| &        | 'Va' bit           | Sonlar ustida 'va' bit operatsiyasini                                                                            | $5 \& 3$ ifoda 1 ni beradi                                                                                                                                                 |



|     |                                                                                                                                                                                                                                                                     |                                                                                                                                                     |                                                                                                                                                                                                      |
|-----|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|     | operatori( $P \cup P \subseteq P$<br>$\pm P \in C, P \subseteq P \cap P \subseteq P$<br>$P^{\sim}$ )                                                                                                                                                                | bajaradi.                                                                                                                                           |                                                                                                                                                                                                      |
|     | 'Yoki' bit<br>operatori<br>( $P \cup P \subseteq P \pm P \in C, P \subseteq P \cap P \subseteq P$<br>$P \square P \supset P \square$ )                                                                                                                              | Sonlar ustida 'yoki' bit operatsiyasini bajaradi.                                                                                                   | $5   3$ ifoda 7 ni beradi                                                                                                                                                                            |
| ^   | 'shartlik yoki' bit<br>operatori( $P \cup P \subseteq P$<br>$\pm P \in C, P \subseteq P \cap P \subseteq P$<br>$P \square P \supset P \supset P \supset P$<br>$\S P \square P \supset P \bullet P \supset P$<br>$\acute{K} P \hbar P \square P \supset P \square$ ) | Sonlar ustida 'shartlik yoki' bit operatsiyasini bajaradi.                                                                                          | $5 \wedge 3$ ifoda 6 ni beradi                                                                                                                                                                       |
| ~   | 'Emas' bit<br>operatori<br>$P \cup P \subseteq P \pm P \in C, P \subseteq P \cap P \subseteq P$<br>$P \subseteq P \supset P \acute{K} P \bullet$                                                                                                                    | 'Emas' bit operatsiyasi x soni uchun -<br>(x+1) ga to'g'ri keladi.                                                                                  | $\sim 5$ ifoda 6 ni beradi.                                                                                                                                                                          |
| <   | Kichik                                                                                                                                                                                                                                                              | X qiymat y qiymatdan kichikligini aniqlaydi. Hamma qiyoslash operatorlari True yoki False qaytaradi. Bu so'zlardagi katta xarflarga e'tibor bering. | $5 < 3$ False qaytaradi $3 < 5$ ifoda esa True qaytaradi. Ixtiyoriy bir $\mathfrak{B} \mathfrak{H}$ biri bilan bog'langan ifodalar tuzish ham mumkin: $3 < 5 < 7$ ifoda True ni qaytaradi            |
| >   | Katta                                                                                                                                                                                                                                                               | X qiymat y qiymatdan katta ekanligini aniqlaydi.                                                                                                    | $5 > 3$ ifoda True ni qaytaradi.                                                                                                                                                                     |
| <=  | Kichik yoki teng                                                                                                                                                                                                                                                    | x qiymat y qiymatdan kichik yoki teng ekanligini aniqlaydi.                                                                                         | $x = 3; y = 6; x \leq y$ ifoda True qaytaradi.                                                                                                                                                       |
| >=  | Katta yoki teng                                                                                                                                                                                                                                                     | x qiymat y qiymatdan katta yoki teng ekanligini aniqlaydi.                                                                                          | $x = 4; y = 3; x \geq 3$ ifoda True qaytaradi.                                                                                                                                                       |
| ==  | Teng                                                                                                                                                                                                                                                                | Ob'yektlarning tengligini tekshiradi                                                                                                                | $x = 2; y = 2; x == y$ ifoda True qaytaradi. $x = 'str'; y = 'stR'; x == y$ ifoda False qaytaradi. $x = 'str'; y = 'str'; x == y$ ifoda True qaytaradi.                                              |
| !=  | Teng emas                                                                                                                                                                                                                                                           | Ob'yektlar teng emasligi to'g'riligini tekshiradi.                                                                                                  | $x = 2; y = 3; x != y$ ifoda True qaytaradi.                                                                                                                                                         |
| Not | Mantiqiy<br>'emas'( $P \supset P \subseteq P \in C$<br>$\ddagger P \subseteq P \supset P \in C \subseteq P \subseteq P$<br>$P \acute{K} P \bullet$ )                                                                                                                | Agar x True bo'lsa, operator False qaytaradi. Agar x False bo'lsa operator True qaytaradi.                                                          | $x = True; not\ x$ ifoda False qaytaradi.                                                                                                                                                            |
| And | Mantiqiy 'va'<br>( $P \supset P \subseteq P \in C \ddagger P \subseteq P$<br>$\supset P \subseteq P \subseteq P \supset P^{\sim}$ )                                                                                                                                 | x and y ifoda False qaytaradi agar x False bo'lsa. Aks holda y ning qiymatini qaytaradi.                                                            | $x = False; y = True; x\ and\ y$ ifoda False qaytaradi, sababi x $\mathcal{C} \mathfrak{H} P^{\circ} P \cap P \subseteq P$ False. Bu holda Python y ning qiymatini tekshirib o'tirmaydi sababi 'and' |

|    |                 |                                                                                        |                                                                                                                                      |
|----|-----------------|----------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|    |                 |                                                                                        | operatoridan chapdagi ifoda qismi False ga teng va butun ifoda qiymati boshqa operatorlar qiymatlariga bog'liqsiz ham False bo'ladi. |
| Or | Mantiqiy 'yoki' | x or y agar x True ga teng bo'lsa True qaytaradi aks xolda y ning qiymatini qaytaradi. | x = True; y = False; x or y ifoda True qaytaradi.                                                                                    |

## 9.2. Amaliy qismi:

**Misol.**  $k$  soni berilgan. Shu son xonalari sonining yig'indisini hisoblash dasturini tuzing  $k(0 < k < 9999)$ .

|                                                                                                                                                                           |                     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------|
| <pre>n = input("Enter number: k(0&lt;k&lt;9999)") n = int(n) d1 = n % 10 d2 = n % 100 // 10 d3 = n % 1000 // 100 d4 = n // 1000 print("Result:", d1 + d2 + d3 + d4)</pre> | '8795'              |
|                                                                                                                                                                           | 8795                |
|                                                                                                                                                                           | d1=8795%10=5        |
|                                                                                                                                                                           | d2=8795%100//10=9   |
|                                                                                                                                                                           | d3=8795%1000//100=7 |
|                                                                                                                                                                           | d4=8795//1000=8     |
|                                                                                                                                                                           | 5+9+7+8=29          |
| 29                                                                                                                                                                        |                     |

### Matematik amallar va o'zlashtirishlarni qisqacha yozish

Ko'pincha bir o'zgaruvchi ustida biror matematik amal bajarib, natijani o'sha o'zgaruvchining o'ziga o'zlashtirish zaruriyati tug'iladi. Bu holda amallarni qisqacha yozish mumkin. Siz  $a = 2$ ;  $a = a * 3$  ni quyidagicha yozishingiz mumkin:  $a = 2$ ;  $a *= 3$

### Amallar bajarilish ketma-ketligi

$2 + 3 * 4$  ifodada qaysi amal birinchi bajariladi: qo'shishmi yoki ko'paytirish? Matematika fanida ko'paytirish birinchi bajarilishi ko'rsatilgan. Demak, ko'paytirish operatori qo'shish operatoriga qaraganda katta prioritetga(muhimlik darajasiga) ega. Quyidagi jadvalda Python operatorlari prioriteti ko'rsatilgan. Bunda yuqoridan pastga qarab Python operatorlari prioriteti oshib boradi. Bu shuni anglatadiki, ixtiyoriy ifodada Python oldin eng quyidagi operatorlarni hisoblaydi va keyin esa yuqoridagilarini. Amaliyotda esa amallarni qavslar bilan aniq ajratish tavsiya etiladi. Bu dastur kodini oson o'qishga yordam beradi.

| Operator   | Izoh                     |
|------------|--------------------------|
| Lambda     | lambda ifoda             |
| Or         | Mantiqiy 'yoki'          |
| And        | Mantiqiy 'va'            |
| Not x      | Mantiqiy 'emas'          |
| in, not in | Tegishlilikni tekshirish |
| is, is not | Bir xillikni tekshirish  |

|                      |                                                               |
|----------------------|---------------------------------------------------------------|
| <, <=, >, >=, !=, == | Taqqoslash                                                    |
|                      | 'yoki' bit operatori                                          |
| ^                    | 'shartlik yoki' bit operatori                                 |
| &                    | 'va' bit operatori                                            |
| <<, >>               | Surilishlar                                                   |
| +, bTb               | Qo'shish va ayirish                                           |
| *, /, //, %          | Ko'paytirish, bo'lish, qoldiqsiz bo'lish va qoldiqlik bo'lish |
| +x, -x               | Musbat va manfiy                                              |
| ~x                   | 'emas' bit operatori                                          |
| **                   | Darajaga ko'tarish                                            |
| x.attribute          | Atributga link                                                |
| x[index]             | Indeks bo'yicha murojat                                       |
| x[index1:index2]     | Kesib olish                                                   |
| f(argumentlar bTb)   | Funksiyani chaqirish                                          |
| (ifoda, bTb)         | Kortej (PŸPICŸP·PeP° PëP»Pë PePsCŸC,PµP¶)                     |
| [ifoda, bTb]         | Ro'yxat (PŸPiPëCŸPsPe)                                        |
| {kalit:qiymat, bTb}  | Lug'at (PŸP»PsPIP°CŸCŸ)                                       |

Bu jadvalda bir xil prioritetga ega bo'lgan operatorlar bir qatorda joylashgan. Misol uchun '+' va '-'.

### Hisoblash tartibini o'zgartirish

Ifodalarni o'qishni osonlashtirish uchun qavslarni ishlatish mumkin. Misol uchun,  $2 + (3 * 4)$  ni tushunish oson operatorlar prioriteni bilish lozim bo'lgan  $2 + 3 * 4$  ifodadan ko'ra. Qavslarni o'ylab ishlatish kerak. Ortiqcha qavslarni ishlatishdan saqlaning. Misol uchun:  $(2 + (3 * 4))$ .

Qavslarni ishlatishni ya'na bir afzalligi hisoblash tartibini o'zgartirish imkonini beradi. Misol uchun, qo'shish amalini ko'paytirish amalidan birinchi bajarish kerak bo'lsa, quyidagicha yozish mumkin:  $(2 + 3) * 4$ .

### 9.3. Amali ish topshiriqlari:

1. Bog'dagi olma daraxtidan Anvar adona, Dilshod bdona va Mahmud c dona olma terdi. Bolalar tergan olmalarini o'zaro teng taqsimlashsa, har biriga qanchadan olma to'g'ri keladi? Qancha olma ortib qoladi? Har bir bolaning tergan olmasi soni foydalanuvchi tomonidan kiritiladi. Masala dasturini tuzing.
2. Bog'bon o'z bog'idan n(23856) kg hosil oldi. Berilganlar asosida quyidagi topshiriqlar uchun dastur tuzing:
  - 1) bog'bon hosilini tonna, sentngr va kilogrammlarda ifodalang;
  - 2) agar har bir yashikga 25 kg dan uzum solinsa, jami qancha yashikga uzum solingan

bo'ladimi?

3. Yuqoridagi masalada hosilning miqdori foydalanuvchi tomonidan kiritilgan hol uchun dastur tuzing.

5. Avtobus bir kunda n kilometr yo'l yuradi. n kilometr masofani bosib o'tishi uchun avtobus nechcha kun yurishi kerak? n va mkattaliklar foydalanuvchi tomonidan kiritiladi. Masalani yechish dasturini tuzing.

6. Chumolining bosib o'tgan yo'li millimetrlarda berilgan. Uni metr, santimetr va millimetrlarda ifodalang (masalan, 45 786 = 45 metr 78 cm 6 mm).

7. Kubning tomoniaga teng. Kubning hajmini topish dasturini tuzing.

8. a, b, c, d sonlari berilgan. Ularning o'rta arifmetigini topish dasturini tuzing.

9. Maktab ma'muriyati 3 ta sinf uchun yangi matematika xonasi tashkil etishga qaror qildi. Mashg'ulotlar bir vaqtda o'tkazilganligi sababli, har bir xonaga alohida parta sotib olinishi kerak. Bitta partada ikkitadan ortiq o'quvchi o'tira olmaydi. Har bir sinf o'quvchilari soni ma'lum bo'lsa, qancha parta sotib olish kerak? Foydalanuvchi tomonidan uchta qiymat

– uchta sinf o'quvchilari soni kiritiladi.

## 10-Amaliy mashg'ulot: Pythonda sodda masalalarni dasturlash.

### Reja.

10.1. Pythonda ma'lumot to'plamlari va turlari ustida amaliy mashg'ulotlar bajarish

10.2. Pythonda sodda masalalarga doir amaliy mashg'ulotlar bajarish.

### 10.1. Nazariy qismi:

Dasturlash jarayonida asosan uch xil: chiziqli, tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi algoritmlardan foydalaniladi. Bularning orasidan chiziqli algoritmlar, asosan, sodda masalalarni yechish jarayonida keng qo'llaniladi.

#### Chiziqli algoritm – buyruqlarning qat'iy ketma-ketlikda tartib bilan bajarilishi.

Sodda masalalarni dasturlash tartibi

1. Asosiy ma'lumotlar va ularning turini aniqlash. O'zgaruvchilar uchun nom tanlash.
2. Natija qanday va qaysi turga mansub bo'lishini aniqlash. Natijani akslantiruvchi o'zgaruvchilar nomini tanlash.

3. Ma'lumotlarni kiritish, hisoblash va natijani ekranga chiqarish kabi qadamlardan iborat algoritmni tuzish.

4. Tuzilgan algoritmgga turli qiymatlar berib, uning to'g'riligini tekshirish.

Amallarning qat'iy ketma-ketlikda bajarilishi chiziqli ijrodeb ataladi.

Chiziqli algoritm, shuningdek, amallarning shartsiz va takrorlanishlarsiz ketma-ket bajarilishining ifodasidir.

Chiziqli algoritmlarni dastur shaklida yozilishiga chiziqli dastur deyiladi.

### 10.2. Amaliy qismi:

Masala. Sinf xonasining eni 10 metr, bo'yi 12 metr. Xonaning yuzini topish dasturini tuzing.

Eni va bo'yi qiymatlari foydalanuvchi tomonidan kiritilsin.


| Kiruvchi ma'lumot | Hisoblash                   | Chiquvchi ma'lumot |
|-------------------|-----------------------------|--------------------|
| 10<br>12          | $S = a * b = 10 * 12 = 120$ | 120                |

| Nº | Blok-sxema  | Blok-sxema nomi          | Dastur kodi                                    |
|----|-------------|--------------------------|------------------------------------------------|
| 1  | Boshlash    | Algoritmning boshlanishi |                                                |
| 2  | a, b        | Kiritish bloki           | <code>a=int(input())<br/>b=int(input())</code> |
| 3  | $S = a * b$ | Bajarish bloki           | <code>s = a * b</code>                         |
| 4  | S           | Chiqarish bloki          | <code>print(s)</code>                          |
| 5  | Tamom       | Algoritmning tugashi     |                                                |

### 10.3. Amaliy ish vazifalar

1. Chiziqli dastur nima?
2. Sodda masalalarni yechish ngcha bosqichda amalga oshiriladi?
3. Qaysi bosqich sodda masalalarni yechishning asosiy bosqichi hisoblanadi?
1. Trapetsiyaning ikkita asosi (ava B) hamda asosiga tushirilgan balandligi h berilgan. Trapetsiyaning yuzi sni hisoblash dasturini tuzing. a, bva hfoydalanuvchi tomonidan kiritiladi.
2. Teng tomonli uchburchakning tomoni aga teng. Uning yuzi sni hisoblash dasturini tuzing.
3. Kvadratning tomoni nga teng. Uning yuzini hisoblash dasturini tuzing.
4. split() usulidan foydalanib, “5489\*245\*58\*69\*142\*4587\*54” satrini dasturga kiriting va berilgan ifodani hisoblang.

Masala. Tomoni aga teng kvadrat ichiga ikkita aylana chizilgan. Kichik aylananing radiusi rga teng. Bo‘yalgan yuza sni topish dasturini tuzing.



| Nº | Blok-sxema                                             | Blok-sxema nomi          | Dastur kodi                                            |
|----|--------------------------------------------------------|--------------------------|--------------------------------------------------------|
| 1  | Boshlash                                               | Algoritmning boshlanishi |                                                        |
| 2  | a, r                                                   | Kiritish bloki           | a=int(input())<br>r=int(input())                       |
| 3  | $r1=a/2$<br>$s1=PI*r1**2$<br>$s2=PI*r**2$<br>$s=s1-s2$ | Bajarish bloki           | $r1=a/2$<br>$s1=PI*r1**2$<br>$s2=PI*r**2$<br>$s=s1-s2$ |
| 4  | s                                                      | Chiqarish bloki          | print(s)                                               |
| 5  | Tamom                                                  | Algoritmning tugashi     |                                                        |

1. Tomoni aga teng kvadrat ichiga doira chizilgan. Bo‘yalgan soha yuzi sni topish dasturini tuzing.
2. Foydalanuvchi tomonidan kiritilgan sondan avval va keyin keluvchi sonni ekranga chiqaruvchi dastur tuzing.



3.  $n$  nafar o'quvchi  $k$  dona olma terdi va olmalar ular o'rtasida teng taqsimlandi. Qoldiq olmalar savatchaga solindi.

A) Har bir o'quvchi qanchadan olma olgan?

B) Savatchaga qancha olma solingan?

E) nva kkattaliklar foydalanuvchi tomonidan kiritiladigan hol uchun dastur tuzing.

4. Foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ikki xonalidan katta natural sonning oxirgi ikki raqamini topish dasturini tuzing.

5. Avtobus bir kunda  $n$  kilometr yo'l yuradi.  $m$  kilometr masofani bosib o'tishi uchun avtobus  $ng$ cha kun yurishi kerak? nva  $m$  kattaliklar foydalanuvchi tomonidan kiritiladi. Masalani yechish dasturini tuzing.

6. Chumolining bosib o'tgan yo'li millimetrlarda berilgan. Uni metr, santimetr va millimetrlarda ifodalang (masalan,  $45\ 786 = 45$  metr  $78$  cm  $6$  mm).

7. Kubning tomoniaga teng. Kubning hajmini topish dasturini tuzing.

8.  $a$ ,  $b$ ,  $c$ ,  $d$  sonlari berilgan. Ularning o'rta arifmetigini topish dasturini tuzing.

9. Maktab ma'muriyati 3 ta sinf uchun yangi matematika xonasi tashkil etishga qaror qildi. Mashg'ulotlar bir vaqtda o'tkazilganligi sababli, har bir xonaga alohida parta sotib olinishi kerak. Bitta partada ikkitadan ortiq o'quvchi o'tira olmaydi. Har bir sinf o'quvchilari soni ma'lum bo'lsa, qancha parta sotib olish kerak? Foydalanuvchi tomonidan uchta qiymat – uchta sinf o'quvchilari soni kiritiladi.



## 11-Amaliy mashg'ulot: Pythonda mantiqiy masalalarni dasturlash.

### Reja.

11.1. Python dasturlash tilida qiymatlarni tekshirish ustida amaliy mashg'ulotlar bajarish.

11.2. Python dasturlash tilida mantiq operatorlari ustida amaliy mashg'ulotlar bajarish.

#### 11.1. Nazariy qismi:

**Taqqoslash amallari– dastur mantiq'ini boshqarish va ikki yoki undan ortiq o'zgaruvchilarni taqqoslab, xulosa qabul qilish amallari.**

Odatda, dastur tuzish jarayonida qaror qabul qilish uchun o'zgaruvchi, son va satrlarni taqqoslash, uning natijasiga ko'ra, keyingi qadamga o'tish kerak bo'ladi. O'zgaruvchilarni taqqoslash uchun taqqoslash va mantiqiy amallardan foydalaniladi. Bu amallar ikkita operand qabul qiladi va natija sifatida boole turidagi mantiqiy qiymatni qaytaradi: True (ifoda rost) yoki False (ifoda yolg'on).

Taqqoslash amallari ikkita qiymatni bir-biri bilan solishtirish uchun ishlatiladi. Taqqoslash amallari yordamida sodda shartlarni tuzish mumkin.

| Amal | Tavsifi          | Izoh                                                                                                  |
|------|------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| ==   | Aynan teng       | Ikki operand teng bo'lsa True, aks holda False qiymatni qaytaradi.                                    |
| !=   | Teng emas        | Ikki operand teng bo'lmasa True, aks holda False qiymatni qaytaradi.                                  |
| <    | Kichik           | Agar birinchi operand ikkinchisidan kichik bo'lsa True, aks holda False qiymatni qaytaradi.           |
| >    | Katta            | Agar birinchi operand ikkinchisidan katta bo'lsa True, aks holda False qiymatni qaytaradi.            |
| <=   | Kichik yoki teng | Agar birinchi operand ikkinchisidan kichik yoki teng bo'lsa True, aks holda False qiymatni qaytaradi. |
| >=   | Katta yoki teng  | Agar birinchi operand ikkinchisidan katta yoki teng bo'lsa True, aks holda False qiymatni qaytaradi.  |

Satr ichida qism satr yoki belgi mavjudligini aniqlash uchun in amalidan foydalaniladi.

```
>>> 'book' in 'Book shop'
```

```
>>> 'book' in 'Book shop'
```

```
True False
```

**Misol.** Kutubxonaga 20 ta kitob keltirildi.

```
>>> num_book = 20
>>> num_book == 1
False
>>> num_book != 1
True
>>> num_book < 1
False
>>> num_book > 1
True
>>> num_book <= 10
False
>>> num_book >= 1
True
```

### Mantiqiy amallar

Dastur tuzish jarayonida murakkab shartli ifodalarni yozish uchun mantiqiy amallardan foydalaniladi.

Mantiqiy amallar dasturda buyruqlar bajarilish tartibini boshqarish imkoniyatini beradi hamda tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi operatorlar bilan birga qo'llaniladi.

| Amal       | Tavsifi               | Izoh                                                                                                                                                |
|------------|-----------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>and</b> | Mantiqiy ko'paytirish | Murakkab ifodada qatnashgan barcha qism ifodalar True bo'lsa, ifodaning yakuniy qiymati True, aks holda False qiymatni qaytaradi.                   |
| <b>or</b>  | Mantiqiy qo'shish     | Murakkab ifodada qatnashgan barcha qism ifodalardan kamida bittasi True bo'lsa, ifodaning yakuniy qiymati True, aks holda False qiymatni qaytaradi. |
| <b>not</b> | Mantiqiy inkor        | Ifodaning qiymati True bo'lsa, False qiymatni qaytaradi va aksincha.                                                                                |

**11.2. Amaliy qismi:** Misol:Lolaning tug'ilgan kuni – 15 mart. Ushbu dastur mantiqiy amallar yordamida tug'ilgan kuni yoki aksincha ekanligini tekshiradi.

```
>>> day = 15
>>> month = 3
>>> day == 15 and month == 3
True
>>> day = 15
>>> month = 3
>>> not (day == 15 and month == 3)
False
```

**and** amali ikkala shart ham rost ekanligini tekshiradi.

**not** amali natijani uning inkoriga almashtiradi. Tug'ilgan kundan boshqa barcha kunlar uchun natija – False.

|                                                                                                                  |                                                                                                        |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <pre>&gt;&gt;&gt; day=15 &gt;&gt;&gt; month=3 &gt;&gt;&gt; (day==15 and month==3) or (day==1 and month==1)</pre> | <b>or</b> amali qavs ichidagi shartlardan kamida bittasi <b>True</b> bo'lsa, <b>True</b> ni qaytaradi. |
| True                                                                                                             |                                                                                                        |

Taqqoslash amallari yordamida satrlarni ham taqqoslash mumkin.

|                                                                           |                                                                              |
|---------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------|
| <pre>&gt;&gt;&gt; name='Book shop' &gt;&gt;&gt; name == 'Book shop'</pre> | Satr to'liq mos kelganligi uchun rost qiymatni qaytaradi.                    |
| True                                                                      |                                                                              |
| <pre>&gt;&gt;&gt; name == 'book shop'</pre>                               | Birinchi harfi kichik harfda yozilgani uchun yolg'on qiymatni qaytaradi.     |
| False                                                                     |                                                                              |
| <pre>&gt;&gt;&gt; name == 'Book shop '</pre>                              | Satr oxirida ortiqcha probellar qo'yilgani uchun yolg'on qiymatni qaytaradi. |
| False                                                                     |                                                                              |

### 11.3. Amaliy ish vazifalari:

1. Quyidagi mantiqiy ifodalar natijasini yozing:

- 1)  $(3 > 5)$  and  $(2 > 4)$
- 2)  $(2 < 5)$  and  $(3 > 0)$
- 3)  $(4 > 2)$  or  $(4 < 1)$
- 4)  $(3 > 1)$  or  $(5 > 0)$

2. Quyidagi mantiqiy ifodalar natijasini toping:

A)

```
>>> a = 20
>>> b = 28
>>> c = True
>>> a > 17 and b > 22 and c
```

B)

```
>>> a = 20
>>> b = 28
>>> a > 17 and b = 28
```

Masala. Mantiqiy ifoda qiymatini toping:  $a=10$ ;  $b=a+4$ ;  $a+3 \geq b-5$

```
>>> a=10
>>> b=a+4
>>> a+3 >= b-5
True
```

1. Mantiqiy ifodalar qiymatini aniqlash uchun dastur tuzing va natijasini oling:

- 1)  $a=8$ ;  $b=a**3$ ;  $a < b/3$
- 2)  $a=10$ ;  $b=a*3$ ;  $a \leq b/3$
- 3)  $a=8$ ;  $b=a$ ;  $a+b=2*b$
- 4)  $a=8$ ;  $b=a-4$ ;  $a+3 \geq b-2$

2. Mantiqiy ifodalar qiymatini aniqlang:

- 1)  $(1 > 3)$  or  $(4 < 0)$

- 2) not (5 > 6)
- 3) not (6 > 5)
- 4) (2 = 0) or (2 <> 2)
- 5) (2 = 0) and (2 > 0)
- 6) (3 > 0) or (2 > 0)

1)

```
>>> a = 20
>>> c = False
>>> a > 17 or c
```

2)

```
>>> a = 20
>>> c = False
>>> not a > 17 or not c
```

3)

```
>>> a = True
>>> b = True
>>> c = False
>>> not(a and c) and (a or b) or c
```

4)

```
>>> a = 66
>>> b = 22
>>> c = 7
>>> not((a > b) or (b < c))
```

Mantiqiy ifodalar qiymatini aniqlash uchun dastur tuzing va natijasini oling:

- 1)  $a \leq 5$  or  $a \geq 0$  and  $a < 3$
- 2)  $x^2 + y > 0$  and  $a = 0.1$  or ( $b > 3.7$  and  $c \neq 4$ )
- 3)  $a < 1$  or  $a > 0$  or not  $x^2 + x^2 \leq 1$
- 4) not(not(not( $a > B$ ) or True) and False)

## 12-Amaliy mashg'ulot: Pythonda tarmoqlanuvchi algoritmlarni dasturlash. If...else operatori.

### Reja.

12.1. Python dasturlash tilida IF operatori ustida amaliy mashg'ulotlar bajarish.

12.2. Python dasturlash tilida Else operatori ustida amaliy mashg'ulotlar bajarish.

### 12.1.Nazariy qismi:

if operatori– faqat berilgan shart rost bo'lgandagina muayyan buyruqlar to'plamini bajaradigan shartli operator.

*Sintaksisi:*

*if shart:*

*buyruqlar\_bloki*

if operatori tarkibidagi shart True(rost) qiymat qaytarsa, buyruqlar\_blokibajariladi. Agar yolg'on qiymat qaytarsa, buyruqlar\_bloki bajarilmaydi. buyruqlar\_bloki if operatoridan keyingi satrda xat boshidan 4 ta probel qoldirib, keyin yoziladi. buyruqlar\_blokidagi buyruqlar alohida qatorda yoki bitta qatorda nuqta, vergul bilan ajratilgan holda yozilishi mumkin.

| Nº | Blok-sxema           | Blok-sxema nomi          | Dastur kodi                        |
|----|----------------------|--------------------------|------------------------------------|
| 1  | Boshlash             | Algoritmning boshlanishi | age=int(input ('Enter your age?')) |
| 2  | age                  | Kiritish bloki           |                                    |
| 3  | age>18               | Shart tekshirish bloki   | if age>18:                         |
| 4  | msg='You can enter!' | Bajarish bloki           | msg='You can enter!'               |
| 5  | msg                  | Chiqarish bloki          | print(msg)                         |
| 6  | Tamom                | Algoritmning tugashi     |                                    |

if-else shartli o'tish operatori

*Sintaksisi:*

*if shart:*

*buyruqlar\_bloki*

*else:*

*buyruqlar\_bloki2*

ifoperatori bilan birga elsebuyrug'ini ham qo'llash mumkin. Agar shart True(rost) qiymat qaytarsa, buyruqlar\_bloki bajariladi, aks holda buyruqlar\_bloki2 bajariladi

### 12.2.Amaliy qismi:

**Misol:**  $y = \begin{cases} x-3, & \text{agar } x > 6 \\ x, & \text{agar } x \leq 6 \end{cases}$  tenglamalar sistemasi dasturini tuzing.

```
x = int(input())
if x > 6:
    y = x-3
else:
    y=x
print(y)
```

8  
5

Masala. Kiritilgan son musbat bo'lsa, unga 2 ni qo'shuvchi, aks holda 2 ni ayiruvchi dastur tuzing va natijani chiqaring.

| Nº | Blok-sxema    | Blok-sxema nomi          | Dastur kodi     |
|----|---------------|--------------------------|-----------------|
| 1  | Boshlash      | Algoritmning boshlanishi |                 |
| 2  | a             | Kiritish bloki           | a=int(input ()) |
| 3  | a>0           | Shart tekshirish bloki   | if a>0:         |
| 4  | ha<br>s=a+2   | Shart bajarilsa          | s=a+2           |
| 5  | yo'q<br>s=a-2 | Shart bajarilmasa        | else:<br>s=a-2  |
| 6  | s             | Chiqarish bloki          | print(s)        |
| 7  | Tamom         | Algoritmning tugashi     |                 |

### 12.3. Amaiy ish vazivalari:

1. Shartni tekshirish uchun qaysi operatoridan foydalaniladi?
2. Shartli o'tish operatorining umumiy ko'rinishi qanday?
3. Dastur tuzish jarayonida shart tekshirish nima uchun kerak?
4. Tarmoqlanish operatorining qisqa va to'liq ko'rinishi qanday?
1. Kiritilgan asoni musbat yoki manfiy ekanligini aniqlovchi dastur tuzing.
2. Kiritilgan asoni toq yoki juft ekanligini aniqlovchi dastur tuzing.
3. Tomonlari a va bga teng to'g'ri to'rtburchak kvadrat ekanligini aniqlovchi dastur tuzing.
4. Kiritilgan asoni to'rt xonali son ekanligini aniqlovchi dastur tuzing.
5. Ikkita av bson berilgan. Agar bson asondan kichik bo'lsa, u holda bni nol bilan almashtiruvchi, aks holda bni o'zgarishsiz qoldiruvchi dastur tuzing.
6. Berilgan abutun son noldan farqli bbutun songa qoldiqsiz bo'linishi yoki bo'linmasligini aniqlovchi dastur tuzing.
7. Berilgan abutun son noldan farqli b butun songa qoldiqsiz bo'linsa, bu ikkala sonning yig'indisini, aks holda ko'paytmasini topish dasturini tuzing.
8. Uchta a, b va cson berilgan. Agar  $a^2 - b^2 = c^2$  shart bajarilsa, ularning ko'paytmasini, aks holda yig'indisini hisoblovchi dastur tuzing.

## 13-Amaliy mashg'ulot: Pythonda tarmoqlanuvchi algoritmlarni dasturlash. elif operatori.

### Reja.

13.1. Python dasturlash tilida Elif operatori ustida amaliy mashg'ulotlar bajarish.

13.2. Python dasturlash tilida Pass operatori ustida amaliy mashg'ulotlar bajarish.

### 13.1. Nazariy qismi:

Qo'yilgan masalani yechish jarayonida har doim ham bitta shart tekshirilmaydi. Shunday masalalar ham borki, ular yechimini topish uchun bir ngcha shart tekshirilishi kerak bo'ladi.

**CASE operatori – shartdan kelib chiqib, har bir shartga mos buyruqlar ketma-ketligini bajaradigan if ning takomillashgan ko'rinishi.**

### elif shartli o'tish operatori

Boshqa dasturlash tillarida bir ngcha shart tekshirilishi zarur bo'lgan hollar uchun CASE tanlash operatori ishlatiladi. Pythonda CASE tanlash operatori mavjud emasligi sababli, ko'p shartli masalalarni yechish uchun elif operatoridan foydalaniladi. elif – elseva ifso'zlarining kombinatsiyasi bo'lib, “aks holda agar” ma'nosini anglatadi.

Sintaksisi:

**if shart:**

**buyruqlar\_bloki**

**elif shart1:**

**buyruqlar\_bloki1**

....

**else:**

**buyruqlar\_bloki2**

**shart** True (rost) bo'lsa, **buyruqlar\_bloki**

bajariladi, aks holda ikkinchi shart – **shart1** tekshiriladi. **shart1** True (rost) bo'lsa, **buyruqlar\_bloki1**, aks holda **buyruqlar\_bloki2** bajariladi.

### 13.3. Amaliy qismi:

```
a=int(input('a='))
b=int(input('b='))
amal=input('add/sub/mul/div:')
if amal=='add':
    c=a+b
elif amal=='sub':
    c=a-b
elif amal=='mul':
    c=a*b
elif amal=='div':
    c=a/b
else:
    c='Error'
print('Result = ', c)
```

```
a=8
b=4
add/sub/mul/div:add
Result = 12
a=72
b=8
add/sub/mul/div:div
Result = 64
a=2
b=4
add/sub/mul/div:deg
Result = Error
```



## Ichma-ich joylashgan if shartli o'tish operatori

ifshartli o'tish operatori tarkibida boshqa ifshartli o'tish operatori mavjud bo'lishi mumkin. Bunday holatga ichma-ich joylashgan shartli o'tish operatorideyiladi. Ichki ifni ifodalash uchun tashqaridagiga nisbatan bitta xat boshi (4 ta probel) tashlab yozilishi shart, aks holda ifoda ichma-ich joylashmagan, alohida shart operatori hosil qilingan hisoblanadi.

**Misol.** Imtihon natijasini chiqarish dasturini tuzing.

```
result= int(input('Natijani kiriting(0-5 bahoda:'))
if result>=3:
    print('Imtihondan o'tdingiz!')
    if result>=5:
        print('Eng yuqori baho!')
```

```
Natijani kiriting(0-5 bahoda):5
Imtihondan o'tdingiz!
Eng yuqori baho!
```

**Masala.** Kiritilgan uchta sondan qanchasi musbat, qanchasi musbat emasligini aniqlovchi dastur tuzing

| Nº | Blok-sxema                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | Blok-sxema nomi            | Dastur kodi                                           |
|----|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------|-------------------------------------------------------|
| 1  | <pre> graph TD     Start([Boshlash]) --&gt; Input[/a, b, c/]     Input --&gt; Dec1{a&gt;0}     Dec1 -- ha --&gt; K1[k+=1]     Dec1 -- yo'q --&gt; D1[d+=1]     Dec1 --&gt; Dec2{b&gt;0}     Dec2 -- ha --&gt; K2[k+=1]     Dec2 -- yo'q --&gt; D2[d+=1]     Dec2 --&gt; Dec3{c&gt;0}     Dec3 -- ha --&gt; K3[k+=1]     Dec3 -- yo'q --&gt; D3[d+=1]     Dec3 --&gt; Output[/k, d/]     Output --&gt; End([Tamom])                     </pre> | Algoritmnining boshlanishi | a=int(input ())<br>b=int(input ())<br>c=int(input ()) |
| 2  |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               | Kiritish bloki             | k=0<br>d=0                                            |
| 3  |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               | Shart tekshirish bloki     | if a>0:<br>k+=1<br>else:<br>d+=1                      |
| 4  |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               | Shart bajarilsa            | if b>0:<br>k+=1<br>else:<br>d+=1                      |
| 5  |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               | Shart bajarilmasa          | if c>0:<br>k+=1<br>else:<br>d+=1                      |
| 6  |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               | Chiqarish bloki            | print(k,d)                                            |
| 7  |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               | Algoritmnining tugashi     |                                                       |

### **13.3. Amaliy ish vazifalari:**

1. Ikki xonali sonning raqamlari toq ekanligini aniqlovchi dastur tuzing.
2. Uch xonali sonni bir xil raqamlar mavjudligini aniqlovchi dastur tuzing.
3.  $a$  va  $b$  sonlardan qaysi biri juft ekanligini aniqlovchi dastur tuzing.
4. 3 ta butun son kiritildi. Qaysi biri juft ekanligini aniqlovchi dastur tuzing.
1. Uchta  $a$ ,  $b$  va  $c$  butun son berilgan. Ular orasidan musbatlari sonini topish dasturini tuzing.
2. Uchta  $a$ ,  $b$  va  $c$  butun son berilgan. Ular orasidan musbat va manfiylari sonini topish dasturini tuzing.
3. Ikki  $a$  va  $b$  son berilgan. Dastlab kattasini, keyin esa kichigini chiqaruvchi dastur tuzing.
4. Uchta  $a$ ,  $b$  va  $c$  butun son berilgan. Ulardan faqat musbatlari kvadratini hisoblab chiqaruvchi dastur tuzing.
5. Kvadrat tenglamani yechish dasturini tuzing.
6. Hafta raqami 1–7 oraliqda kiritilganda, hafta kunini ekranga chiqaruvchi dastur tuzing.
7.  $a$  va  $b$  sonlar berilgan. Agar ular musbat va yig'indisi 100 dan katta bo'lsa, ularning nisbatini, ular musbat va yig'indisi 100 dan katta bo'lmasa, ularning bga ko'paytmasini hisoblash dasturini tuzing.
8. Ikki son berilgan. Agar birinchi son ikkinchisidan katta bo'lsa, 1 ni, agar ikkinchi son birinchisidan katta bo'lsa, 2 ni, agar ikkalasi teng bo'lsa, 0 ni chiqaruvchi dastur tuzing.

## 14-Amaliy mashg'ulot: Pythonda shartli tanlash algoritmlariga dastur tuzish.

### Reja.

14.1. Pythonda shartli tanlash (switch) algoritmlariga mos sohaga doir dasturlar tuzish.

14.2. Python dasturlash tilida Break va Continue operatorlariga doir amaliy mashg'ulotlar bajarish.

### 14.1. Nazariy qismi:

Masalalarni echishda eng muhim elementlardan biri bu "shart" deb nomlangan va bu "agar to'g'ri borsang, boshingni yo'qotasan, to'g'ri ketasan va otingni yo'qotasan..." yoki ko'proq oddiygina vaziyat "agar... bo'lsa"... aks holda...

Agar "Shart" blokida ko'rsatilgan shart bajarilsa, "YES shart" ga (YES amallar) mos keladigan amallar bajariladi, aks holda "YO'Q shart" (NO amallari) ga mos keladigan harakatlar bajariladi. Shartlarni shunday qo'yish kerakki, har qanday holatni natijasi tekshirishda ikki holda bo'lsin - shart bajarilgan yoki bajarilmagan.

AGAR bitta tanlov barcha variantlarni qamrab olmasa, "o'rnatilgan" shartlar qo'llaniladi. Shartlar bir-biriga ichma-ich kiritilishi mumkin (joylashish darajasi cheklanmagan). Ushbu holat "tanlov" deb ham nomlanadi.

shartni tekshirishni ta'minlash uchun dasturlash tillarida IF("agar") ning maxsus aralashmasi ishlatiladi. Ushbu operatorida tekshirilishi kerak bo'lgan shartlar va YES va NO tarmoq uchun amallar ko'rsatilgan.

IF operatori qanday ishlashini tushunish uchun odatiy shartlarni tekshirish va tanlash vazifalarini ko'rib chiqaylik.

### 14.2. Amaliy qismi:

**1 topshiriq.** Havo harorati uchun dastur tuzing va Agar daraja bo'lsa "Yaxshi ob-havo!" matnini aks ettirish va agar "yomon havo" matnini

Masalani qo'yilishi: Boshlang'ich ma'lumotlar qiymati t, s satrni shakllantirish kerak. Agar da s = 'Ob-havo yaxshi!' aks holda s = 'Yomon ob-havo!'.

Dasturning matni:

kirish t

agar (t > 10) bo'lsa

s = 'Ob-havo yaxshi!'

aks holda

s = 'Yomon ob-havo!'

agar tamom

chiqish s

Pythonda dastur matni :

```
t = int(input ( 'Haroratni darajalarda kiriting:'))
if t>10:
    s = 'Ob-havo yaxshi !'
else:
    s = 'Yomon ob-havo!'

print (s)
```

Haroratni darajalarda kiriting:15  
Ob-havo yaxshi !

Dasturning har bir "tarmoq" ning boshi " : " belgisi bilan ko'rsatilgan. IF (agar) operatorida shart qavsga olinmagan. Shunday qilib, IF operatorining oxiri yo'q. Pythonning fikriga ko'ra, keyingi operator yozuvsiz, satrda boshlanadi. Shunday qilib, Python-da belgilarni ajratish muhim rol o'ynaydi.

Dastur davomida bir nechta shartni tekshirish talab qilinishi mumkin. Bunday holatda biz **if-elif-else** ketma-ketligidan foydalanamiz. elif - *else* va if so'zlarining jamlanmasi bo'lib, "*aks holda, agar*" deb tarjima qilinadi. Bunday if bilan boshlangan ketma-ketlik bir nechta elif lardan iborat bo'lishi mumkin.

Python avval if shartini tekshiradi, shart bajarilmasa elif ga o'tadi, birinchi elif sharti bajarilmasa keyingi elif ga o'tadi va hokazo davom etaveradi.

**2 topshiriq** (xuddi shu manbA). P bahoni chiqarish dasturini tuzing. Agar  $P=5$  bo'lsa, "Ofarin!",  $P=4$  bo'lsa, "Yaxshi!" va  $P \leq 3$  bo'lsa, "Ish yoqmas!" matnlari chiqarsin.

Masalani qo'yilishi: P natural son berilgan bo'lsin va 5 dan oshmaydigan qiymat berilgan holda qiymatga qarab, P shartda ko'rsatilgan qoidalarga muvofiq s satrni hosil qilishingiz kerak. P qiymatni ketma-ket ikki marta tekshirish kerak.

Dasturning matni:

kiritish P

agar ( $P = 5$ ) bo'lsa  
s = 'Ofarin! »

aks holda agar ( $P = 4$ )  
s = 'Yaxshi!'

aks holda  
s = 'Ish yoqmas!'

agar tamom

chiqish s

Python dasturi:

```
P = int(input ( 'Sizning bahoingiz? '))
if P == 5:
    s = ' Ofarin ! '
elif P == 4:
    s = ' Yaxshi ! '
else:
    s = 'Ish yoqmas!'
print (s)
```

Sizning bahoingiz? 4

Yaxshi !

Yuqorida aytganimizdek, if-elif-else zanjirida shartlarning biri bajarilishi bilan, Python qolgan shartlarni tekshirmaydi va ularni bajarmaydi. Lekin ba'zida biz 2 yoki undan ko'p shartlarni tekshirishni talab qilishimiz mumkin, buing uchun AND va OR operatorlaridan foydalanamiz.

### OR operatori

OR ingliz tilidan "yoki" deb tarjima qilinadi, va ikki va undan ko'p shartlardan **biri** bajarilishini tekshirishda ishlatiladi.

**3 topshiriq.** Hafta kuni berilgan bo'lsin, agar shanba yoki yakshanba bo'lsa bugun dam olish kuni, aks holda ish kuni degan xabarni chiqarsin. Masalani qo'yilishi. Ixtiyoril hafta o'zgaruvchisini tekshirsin, agar shanba yoki yakshanba bo'lsa dam olish kuni yozuvini chiqasin aks holda ish kuni. Python dasturi:

```
hafta = input ( 'Hafta kunini kiriting: ' )

if hafta == 'shanba' or 'yakshanba':

    natija = ' Dam olish kuni ! '

else:
    natija = 'Ish kuni !'

print (natija)
```

Hafta kunini kiriting? yakshanba  
Dam olish kuni !

### AND OPERATORI

AND ingliz tilidan "va" deb tarjima qilinadi, va ikki va undan ko'p shartlarning **barchasi** bajarilishini tekshirishda ishlatiladi. AND operatori bilan yozilgan shartlarning **barchasi** bajarilgandagina TRUE qiymati qaytadi, agar shartlardan biri bajarilmay qolsa ham FALSE qiymati qaytadi.

**4 topshiriq.** Butun tipga tegishli  $x$  o'zgaruvchi berilgan. Uning qiymatiga mos keluvchi  $f$  funksiyaning butun qiymati hisoblansin.

$$f(x) = \begin{cases} 2x, & x < -2 \text{ yoki } x > 2 \\ -3x, & \text{aks holda} \end{cases}$$

Python dasturi:

```
x=int(input("x ga qiymat kiriting: "))

if x == x<-2 or x>2:

    Funk = 2*x

else:
    Funk=-3*x

print ("f(x)=", Funk)
```

x ga qiymat kiriting: 3  
f(x)= 6

**5 topshiriq.** Ikkita haqiqiy son berilgan. Agar ularning birinchisi ikkinchisidan kichik bo'lsa, uni nol bilan, aks holda berilgan sonlarning o'rta arifmetigi bilan almashtiring. Python dasturi:

```

print("Ikkita haqiqiy son kiriting")
from math import *
a=float(input("a="))
b=float(input("b="))
if a<b :
    print("Ikkinchi son katta =", 0)
else:
    print("Birinchi son katta =", (a+b)/2)

```

Ikkita haqiqiy son kiriting

a=9

b=2

Birinchi son katta = 5.5

**6 topshiriq.** Ikkita haqiqiy son berilgan. Bu sonlarning kichigini yarim yig'indisi bilan, kattasini esa ko'paytmasi bilan almashtiring.

Python dasturi:

```

print("Ikkita haqiqiy son kiriting")
from math import *
a=float(input("a="))
b=float(input("b="))
if a>b :
    print("Kichik son b =", (a/2+b/2))
    print("Katta son a =", (a*b))
else:
    print("Kichik son a =", (a/2+b/2))
    print("Katta son b =", (a*b))

```

Ikkita haqiqiy son kiriting

a=9

b=5

Kichik son b = 7.0

Katta son a = 45.0

**7 topshiriq.** Uchta o'zaro har xil sonlarning yig'indisi birdan kichik bo'lsa, berilgan sonlarning eng kichigi, aks holda eng kattasi topilsin.

Python dasturi:

```

print("Uchta haqiqiy son kiriting")
from math import *
a=float(input("a="))
b=float(input("b="))
c=float(input("b="))
if a!=b and b!=c and a!=c :
    k=min(a,b,c)
    print("Kichik son =", k)
else:
    k=max(a,b,c)
    print("Katta son =", k)

```

Uchta haqiqiy son kiriting

a=6

b=8

b=9

Kichik son = 6.0

**8 topshiriq.** Uchta a, b va c haqiqiy sonlar berilgan bo'lsin. Tomonlari shu sonlarga teng uchburchak mavjudmi? Mavjud bo'lsa, uning perimetri va yuzi topilsin.

Python dasturi:



```

print("Uchta haqiqiy son kiriting")
from math import *
a=float(input("a="))
b=float(input("b="))
c=float(input("c="))
if a+b>c and b+c>a and a+c>b :
    p=a+b+c
    s=sqrt(p/2*(p/2-a)*(p/2-b)*(p/2-c))
    print("Uchburchak mavjud")
    print("Uchburchak perimetri=", p)
    print("Uchburchak yuzi=", s)
else:
    print("Bunday uchburchak mavjud emas")

```

Uchta haqiqiy son kiriting  
a=7  
b=8  
c=9  
Uchburchak mavjud  
Uchburchak perimetri= 24.0  
Uchburchak yuzi= 26.832815729997478

**Eslatma.** Ildizlar va logarifmlarni hisoblashda, math modulning sqrt() va log() funksiyalaridan foydalaning. math.pi modulidan pi() o'zgarmas aniqlanadi.

### 14.3. Amaliy ish uchun topshiriqlar.

**Masala 1.** Natural son berilgan. Bu son: juft, 4 ga karraliligini aniqlang.

**Masala 2.** Natural son berilgan. Bu son: toq, 5 ga karraliligini aniqlang

**Masala 3.** Natural son berilgan. Bu son: toq, 7 ga karraliligini aniqlang

**Masala 4.** Natural son berilgan. Bu son: juft, 10 ga karraliligini aniqlang

**Masala 5.** Berilgan tomonlar bo'yicha quti mavjud:  $A \times B \times D$ .  $M \times N$  o'lchamli eshikdan o'tib ketishini aniqlang.

**Masala 6.** Haqiqiy raqam berilgan. Uning qaysi soni ekanligini aniqlang: musbat, manfiy, nol.

**Masala 7.** D diametrli g'ola berilgan, uni A ga teng bo'lgan kvadrat brusni kesish mumkinmi?

**Masala 8.** S yuzali maydoni bo'lgan kvadrat zalda, hech bo'lmaganda devordan sahnaga K o'tish joyi bo'lishi uchun R radiusli dumaloq sahnani qo'yish mumkinmi?

**Masala 9.** Plaskart vagonni o'rindiqliq nomeri berilgan. Bu joyni aniqlang: yuqori yoki pastki, bo'linma yoki yon tomonda.

**Masala 10.** Pul miqdori ma'lum. Iloji bo'lsa, uni 500, 100, 10 va 2 so'mlik tanga bilan almashtiring.

**Masala 11.** Ikkita idish mavjud: A qirrali kub, H balandligi va asosi R radiusdan iborat silindr. M katta hajmdagi suyuqlik mos keladimi aniqlang: birinchi idish, ikkinchisi, ikkalasi ham.

**Masala 12.** Ikkita idish mavjud: A qirrali kub, H balandligi va asosi R radiusdan iborat silindr. M katta hajmdagi suyuqlik bilan to'ldirish mumkinmi aniqlang: birinchi idishni, ikkinchisini, ikkalasini ham.

**Masala 13.** Haqiqiy sonlar berilgan: X, Y, Z. Shunday tomon uzunligi uchburchak mavjudmi, u to'g'ri burchakli uchburchak bo'ladimi aniqlang.

**Masala 14.** X soni berilgan. Bu raqam berilgan [a,b] oralig'iga tegishli yoki yo'qligini aniqlang.

**Masala 15.** Ixtiyoriy X va Y uchun  $Z=1/(XY)$  funksiyani qiyimatini aniqlang.



## 15-Amaliy mashg'ulot: Pythonda takrorlanuvchi algoritmlarni dasturlash. for operatori.

### Reja.

15.1. Python dasturlash tilida For operatoriga doir amaliy mashg'ulotlar bajarish.

15.2. Python dasturlash tilida While operatoriga doir amaliy mashg'ulotlar bajarish.

### 15.1. Nazariy qismi:

While sikl operatori

While operatori quyidagi umumiy ko'rinishga ega:

```
While (shart) {  
    sikl_tanasi}
```

While sikl operatorining ishlash tartibi

Agar (shart) rost (True) qiymatga ega bo'lsa, sikl\_tanasi bajariladi. Qachonki shart yolg'on (False) qiymatga teng bo'lsa sikl tugatiladi. Agar (shart) True qiymatga ega bo'lmasa sikl tanasi biror marta ham bajarilmaydi.

Toq sonlarni ekranga chiqarish:

Natija:

```
k=1  
while k<=10:  
    print(k)  
    k+=2
```

```
1  
3  
5  
7  
9
```

### For operatori

Python dasturlash tilida for operatori C va Paskal dasturlash tillarida qo'llanishidan farq qiladi. Python da for operatori biroz murakkabroq, lekin while sikliga qaraganda ancha tezroq bajariladi. For...in operatori obyektlar ketmaketligida iteratsiyani amalga oshiradi, ya'ni bu sikl har qanday iteratsiya qilinadigan obyekt bo'ylab o'tadi(satr yoki ro'yxat bo'ylaB) va har bir o'tish vaqtida sikl tanasini bajaradi. For operatoriga misol:

```
for i in 'salom dunyo':  
    print(i*2, end='')
```

```
ssaaalloomm dduunnyyoo
```

### 15.2. Amaliy qismi:

Range() va xrange funksiyasi Agar dasturda sonlarni ketma-ket chiqarish kerak bo'lsa range() funksiyasidan foydalaniladi. U arifmetik progressiyaga asoslangan ro'yxat tuzadi.

```
>>> range(10)

[0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9]
```

Range(10) funksiyasi 10 ta elementdan iborat bo'lgan ro'yxat tuzadi. Bunda yuqori chegara sifatida 10 beriladi, lekin u yaratilgan ro'yxat ketma-ketligiga kirmaydi. Shuningdek funksiyaga quyi chegara va qadamni ham berish mumkin.

```
>>> range(5,10)
[5, 6, 7, 8, 9]
>>> range(0,10,3)
[0, 3, 6, 9]
>>> range(-10,-100,-30)
[-10, -40, -70]
```

Ketma-ketlik indekslarini tanlash uchun range() va len() funksiyalarini birgalikda ishlatish.

**Katta diapazondagi raqamlardan foydalanib ro'yxatni yaratish range() funksiyasi o'zini oqlamaydi yoki ba'zi hollarda xotira yetishmaydi.**

```
a=['Mariyaning','kichkina','qo`zichog`i','bor']
for i in range(len(a)):
    print (i, a[i])
```

```
0 Mariyaning
1 kichkina
2 qo`zichog`i
3 bor
```

```
>>> l=range(100000000)
Traceback (innermost last):
  File "<stdin>", line 1, in ?
MemoryError
```

Shunday hollarda Python da xrange() funksiyasidan foydalaniladi.

### **Break operatori**

Break operatori agar siklning bajarilish sharti hali False qiymat olmagan bo'lsa ham yoki ketma-ketlik elementlari hali tugamagan bo'lsa ham siklni to'xtatish, ya'ni buyruqlar bajarilishini to'xtatish uchun xizmat qiladi. Shuni aytib o'tish kerakki, for yoki while sikllarini break operatori bilan to'xtatilsa, ularga tegishli bo'lgan else bloki bajarilmaydi.

Misol:

```
for i in "hello world":
    if i=='o':
        break
    print(i*2, end='')
```

**Natija:**

```
hhee1111
```

### Continue operatori

Continue operatori joriy blokda oʻzidan keyingi qolgan barcha buyruqlarni bajarmay siklning keyingi iteratsiyasidan davom ettirish uchun ishlatiladi.

Misol:

```
for i in "hello world":
    if i=='o':
        continue
    print(i*2, end='')
```

**Natija:**

```
hhee1111  wwrr11dd
```

**i** – takrorlanishlar (iteratsiyalar) soni;

**start** – i ning boshlangʻich qiymati (koʻrsatilmasa, 0 deb qabul qiladi);

**stop** – i ning oxirgi qiymati (koʻrsatilishi shart);

**step** – qadam (koʻrsatilmasa, 1 deb qabul qiladi);

**Misol.** 0 dan 11 gacha boʻlgan juft sonlarni chiqarish dasturini tuzing.

```
for i in range(0,11,2):
    print(i, end=';')
```

```
0;2;4;6;8;10
```

0 dan 11 gacha boʻlgan sonlarni  
2 qadam bilan chiqaradi.

**Misol.** 10 gacha boʻlgan sonlarni chiqarish dasturini tuzing.

```
for i in range(102):
    print(i, end=';')
```

```
0;1;2;3;4;5;6;7;8;9
```

0 dan 10 gacha boʻlgan sonlarni  
1 qadam bilan chiqaradi.

**Misol.** 10 dan 1 gacha boʻlgan sonlarni -1 qadam bilan chiqarish dasturini tuzing.

```
for i in range(10,0,-1):
    print(i, end=';')
```

```
10;9;8;7;6;5;4;3;2;1
```

10 dan 0 gacha boʻlgan sonlarni  
-1 qadam bilan chiqaradi.

### Misol.

```
n = 3
for i in range(1,n+1):
    for j in range(1,n+1):
        print(i,'x', j,'=', i*j)
```

```
1 x 1 = 1
1 x 2 = 2
1 x 3 = 3
2 x 1 = 2
2 x 2 = 4
2 x 3 = 6
3 x 1 = 3
3 x 2 = 6
3 x 3 = 9
```

i va j uchun 3 qadamlar soni kiritiladi.

0 ga ko'paytirishni chiqarmasligi uchun 1 dan boshlanadi, u holda qadamlar soni n+1 deb olinadi.

Natija ekranga chiqariladi.

Tashqi siklning 1-takrorlanishida 3 marta ichki sikl bajarilib, natijani chiqardi.

Tashqi siklning 2-takrorlanishi.

Tashqi siklning 3-takrorlanishi.

### Amaliy ish vazifalari:

1. a va b sonlar berilgan. adan bgacha bo'lgan barcha sonlarni chiqaruvchi dastur tuzing. Bu yerda  $a \leq B$ .
2. a va b sonlar berilgan. Agar  $a < b$  bo'lsa, adan bgacha bo'lgan sonlarni o'sish tartibida, aks holda kamayish tartibida chiqaring.
3. 1 dan 10 gacha bo'lgan natural sonlar kvadratlarini chiqaruvchi dastur tuzing.
4. 1 dan 10 gacha bo'lgan natural sonlar yig'indisini chiqaruvchi dastur tuzing.
1. Quyidagi dasturiy koddagi iteratsiyalar (takrorlashlar) sonini aniqlang.

```
1. for i in range(487):
    cms='Salom'
2. for i in range(2,89):
    cms=12
3. for i in range(-17,15,4):
    cms='dastur'
4. for i in range(-58,0):
    cms=4789
```

```
5. for i in range(73,161,2):
    cms=2020
6. for i in range(100,1982):
    cms='UZB'
7. for i in range(1874,21):
    cms='4782'
8. for i in range(-21,21,5):
    cms='4782'
```

2. 1 dan ngacha bo'lgan natural sonlar kvadratlari yig'indisini aniqlovchi dastur yozing.
3.  $n \geq 2$  shartni qanoatlantiruvchi nsoni berilgan. Ushbu ifodani hisoblovchi dastur tuzing.  $d=1*2+2*3+\dots+(n-1)*n$
4. Bir nechta son berilgan. Ular orasida qancha 2 soni bor ekanligini aniqlovchi dastur tuzing.
5.  $S=11+13+15+\dots+49$  yig'indini hisoblash dasturini tuzing.
6. nta uchburchakni ekranga chiqaruvchi dastur tuzing. n -1 dan 9 gacha bo'lgan natural sonlarni qabul qiladi.

\*

\*\*

\*\*\*

\*\*\*\*

## 16-Amaliy mashg'ulot: Pythonda sodda API yaratish. Telegram bot yaratish

Reja:

1. API tushunchasi.
2. Python dasturlash tilida sodda API yaratish



Mundarija:

- **Kirish.**
- **HTTP** hamda **HTTP** metodlari haqida.
- **API** haqida.
- Ma'lumotlar formati haqida.
- Veb servis **API** , **Rest API** tushunchasi.
- **API endpoint** hamda **route** haqida.
- **API qo'llanmasi** (**API documentation**)
- **Python** dasturlash tilida **API** yaratish imkonini beradigan **freymvorklar** haqida qisqacha.
- Maqolaning amaliy qismi: **Python dasturlash tilida sodda API yaratamiz.**
- **Xulosa**, yakuniy qism.

Ushbu maqolada sodda va ba'zi misollar tariqasida **API** haqida maksimal darajada tushuncha bermoqchimiz. Maqola so'ngida esa python dasturlash tilida ma'lum bir vazifani bajaruvchi sodda **API** yaratamiz.

**Nega bu maqolani yozayapmiz?** Dasturlashni o'rganayotganlar **API** haqida tushunchaga ega bo'lishlari va ularga biroz bo'lsada foydam tegishi uchun. Hozirgi vaqtda **API** haqida ma'lumotga ega bo'lish uchun o'zbek tilida yozilgan tushunarli maqola topish mushkulroq, shuning uchun o'zbek tilidagi foydali maqolalar sonini oshirish uchun ham yozayapmiz.

**API** haqida bilib olishdan oldin **HTTP** nima ekanligini yodga olsak:

# HTTP haqida

Siz brauzeringizda [google.com](https://google.com) bo'yicha so'rov yuborasiz , bu so'rov berilgan **URL** manzil bo'yicha serverga yuboriladi(request). Undan so'ng server bu so'rovni tahlil qilgan holda sizga javob qaytaradi (response). So'rov hamda kelgan javobning formati muhim biz uchun. Bu formatlar esa HTTP( **H**yper **T**ext **T**ransfer **P**rotocol) yordamida aniqlanadi.



Yuqorida aytib o'tganimdek siz **URL** bo'yicha so'rov yuborganingizda, siz tomondan serverga **GET - HTTP metodi orqali ma'lum bir resursga ega bo'lish uchun so'rov** yuboriladi. So'ngra server sizga javob qaytaradi ya'ni **HTML** ko'rinishidagi ma'lumot formatida (ma'lumotlar formati har xil bo'lishi mumkin , ko'p hollarda **HTML** formatda bo'ladi). Brauzer esa javob tariqasida yetib kelgan **HTML** faylni ekraningizga namoyish etadi va natijada sodda ko'rinishdagi veb sahifa yuzaga keladi (**P.S** siz meningcha **HTML** haqida yaxshi bilsangiz kerak).

Misol tariqasida bir holat , siz [uzbekcoders.uz](https://uzbekcoders.uz) dan ro'yxatdan o'tayotgan vaqtingizda forma to'ldirasiz:

- *Ism ,familiya va shunga o'xshash ma'lumotlar.*
- *Email pochta*
- *O'qish manzili va hokazolar.*

**"Ro'yxatdan o'tish"** tugmasi bosilganda siz [uzbekcoders.uz](https://uzbekcoders.uz) saytining serveriga **HTTP - POST metodi orqali** so'rov yuborgan bo'lasiz va siz yuborgan ma'lumotlar server tomonidan tahlil qilinadi. Agar xatolik bo'lmasa ro'yxatdan o'tish muvaffaqiyatli amalga oshiriladi. Aksincha bo'lsa , sizga xatolik haqidagi xabari qayd etilad (response).

**Resurs tushunchasi** - Media fayllar (rasm ,video , musiqa va hk.) , Postlar (communitydagi maqolalarni ham misol keltirish mumkin) , Foydalanuvchi haqidagi ma'lumot , Postda qoldirilgan izohlar va shunga o'xshash narsalar bir so'z bilan **resurs** deb yuritiladi.

## HTTP Metodlari



**HTTP** so'rovini amalga oshirish vaqtida **metod**lardan foydalanadi. Qisqa qilib aytganda **metod**lar siz so'rovingiz davomida nimani bajarmoqchi ekanligingizni anglatadi. Quyida eng ko'p qo'llaniladigan **metod**larni keltirib o'taman:

|    | Metod            | Vazifasi                                                               |
|----|------------------|------------------------------------------------------------------------|
| 1. | <b>GET</b>       | <i>Mavjud resurs haqida ma'lumotga ega bo'lish uchun qo'llaniladi</i>  |
| 2. | <b>POST</b>      | <i>Yangi resurs yaratish uchun qo'llaniladi.</i>                       |
| 3. | <b>PUT/PATCH</b> | <i>Mavjud resurs haqidagi ma'lumotni yangilash uchun qo'llaniladi.</i> |
| 4. | <b>DELETE</b>    | <i>Mavjud resursni o'chirishda qo'llaniladi</i>                        |

[Community.uzbekcoders.uz](https://community.uzbekcoders.uz) misolida:

- **GET:** *biror-bir maqolani o'qimoqchi bo'lsangiz bu so'rovni yuborasiz. Server sizga mavjud bo'lgan resursni taqdim etiladi.*
- **POST:** *Maqola yozmoqchi bo'lsangiz "chop etish" tugmasini bosasiladi shu orqali serverga yangi resurs yaratish uchun so'rov yuborasiz.*
- **PUT(+PATCH):** *Maqoladagi ba'zi kamchiliklarni to'g'irlash uchun tahrirlaysiz va serverda mavjud bo'lgan resurs(maqola)ni yangilab qo'yasiz.*
- **DELETE:** *Community talablariga javob bermaydigan maqolalar administratorlar tomonidan o'chiriladi hamda bu vaqtida ular tomonidan **DELETE** metodi orqali*




serverga so'rov yuboriladi yoki bu so'rov maqola muallifi tomonidan yo'llanishi ham mumkin. Natijada ma'lum bir resurs(maqola) sayt serveridan o'chib ketadi.

**HTTP** status kodlari haqida qisqacha avvalgi maqolamda keltirib o'tganman.

Yuqoridagi sodda misollar tariqasida **HTTP** qanday ishlashi hamda metodlarning vazifasi haqida ma'lumotlarni keltirib o'tdim , endi esa maqolamning asosiy qismiga o'tsam.


## API o'zi nima? u o'zi nega kerak?



**API (application programming interface)**- boshqa biror bir ilova ikkinchisi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilishi uchun yaratilgan protseduralar, funksiyalar va klasslardan tashkil topgan katta to'plam.

To'g'risi **API** nima ekanligini bir qoida bilan tushuntirish biroz mushkul. Tushunishingiz oson bo'lishi uchun ajoyib misol topib qo'yganman.

**APIga** misol qilib - rozetkani olsak.Uning vazifasi elektr tokini boshqa qurilmalarga yetkazish.Unga siz istalgan qurilmani ulab ishlatishingiz mumkin:Elektr Choynak ,muzlatgich,dazmol va hokazolar .



*Yuqoridagi misolda rozetka o'rnida - **API** , Dazmol o'rniga - Mobil ilova , Muzlatgich o'rniga - veb ilova , elektr choynak o'rniga esa - desktop ilovani bimalol misol qilishingiz mumkin va o'z o'zidan **ular ishlashi uchun rozetkaga ya'ni APIga murojaat qilishi lozimligi ma'lum bo'ladi.***


*Endi **API** nima ekanligi biroz bo'lsada ma'lum bo'ldi. Kattaroq loyihalarda **API**ning o'rni o'ta muhim. U xoh veb ilova , mobil ilova , desktop ilova bo'lsin - ular bir **API** bilan ma'lumotlar almashib ishlaydi.*

**API** ilovaning boshqa platformalarda ishlab chiqish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi.

*Agar **API** mavjud bo'lmasa sizning ilovangiz funksionali cheklangan bo'ladi. Uni boshqa platformalarda ishlab chiqish jarayoni qiyinlashib ketadi.*

*Umuman olganda **API** bu backend dasturlashning asosi. Zamonaviy dasturlashni **API**siz tasavvur qilish o'ta mushkul.*

Har bir katta loyihaning o'z **API**si bo'ladi. Ajoyib funksionalga ega loyihalarda bir emas bir-nechta **API**dan foydalanilganligiga guvoh bo'lamiz. Bu esa ilovaning samaradorligi hamda funksionalining oshishiga katta hissa qo'shadi. Biz bilgan **API**larning ko'pgina qismi **public API** hisoblanadi ya'ni bu **API**dan barcha foydalanishi mumkin. Katta kompaniyalar, ijtimoiy tarmoqlar taqdim etgan **API**ni ham public **API** deb atashimiz mumkin. Sizning loyihangiz **spotify** bilan ma'lumot almashib ishlasa yoki uning xizmatlaridan foydalansa siz unga o'xshash servisni qaytadan qurishingiz shart emas. Shunchaki uning **API**sidan foydalanasiz. Saytingizga **youtuben**ing funksionalini qo'shmoqchi bo'lsangiz , shunchaki uning **API**sidan foydalaning:



<https://developers.google.com/youtube/v3>

**Covid19** bo'yicha statistik ma'lumot kerak bo'lsa buning uchun alohida kuch sarflash shart emas (statistik ma'lumotlarni yetkazib beruvchi loyihani ishga tushurish va hk.) **Covid19** statistikasini yetkazib beruvchi maxsus **API**lar mavjud. Ular yordamida ishingiz ancha yengil bitadi :-), qolaversa python dasturlash tilida talaygina kutubxonalar ham mavjud.

**Foydali havola:** <https://pypi.org/project/COVID19Py>

*Agarda telegram messengeri bizga o'z **API**isini taqdim etmaganida, telegram botlarni yozish bunchalik qulay bo'lmas edi.*

Mutaxassislarning fikricha, loyihalarga funksional qo'shish davomida **API**dan foydalanish eng ma'qul yechimdir.


## Ma'lumotlar formati haqida qisqacha

Veb servis **API**larida ma'lumotlar formatining asosan ikki turidan foydalanishadi: **Json & XML**. Bular ma'lumotlarni qabul qilish hamda yuborish uchun umumiy format ya'ni ma'lumot formati deb yuritiladi. Qisqa qilib aytganda serverlar o'rtasida ma'lumot almashish uchun juda ham qo'l keladi.

**JSON (JavaScript Object Notation)** bu yuqorida aytib o'tganimdek ma'lumotlar almashinishi uchun ishlatiladigan ma'lumot formati bo'lib, javascript uchun yaratilgan va aynan shu tilda boshqalarga nisbatan kengroq foydalanadi. Ammo boshqa tillarda ham faol ravishda qo'llanilib kelinmoqda. Sintaksisini bir qarashdayoq tushunib olish mumkin.

**XML - Extensible Markup Language (HTML bilan o'xshash tarzda yozilgan).** Vazifasi xuddi **json** kabi ma'lumotlar tashish, tuzilishini saqlash va ta'riflashdan iborat. Sodda qilib aytganda ular oddiy ma'lumot formati.

Umuman olganda birning kamchiligi ikkinchisining yutug'idir!



Ma'lumotlar formati haqida yaxshiroq tushunishingiz uchun yuqoridagi sxemani taqdim etaman. Unda siz **json** hamda **xml**ni taqqoslashingiz ham mumkin.

#### Foydali havolalar:

<https://www.w3schools.com/xml/default.asp> ,  
[https://www.w3schools.com/js/js\\_json\\_intro.asp](https://www.w3schools.com/js/js_json_intro.asp)

#### REST API tushunchasi.



**REST** to'liq holatda **RE**presentational **S**tate **T**ransfer deb aytiladi. **REST HTTP** protokoli yordamida ilova yoki veb saytni server bilan muloqotga kirishishiga xizmat qiluvchi umumiy prinsipdir (**SOAP** kabi protokol emas). REST termining vujudga kelishida HTTP protokoli asoschilaridan biri [Roy Fielding](#)ning hissasi katta (bu termin 2000-yilda vujudga kelgan). REST **RPC**ning alternativi hisoblanadi. Maqolada keltirgan HTTP metodlarni "Rest So'rovlar" deb ham atash mumkin. **REST "stili" HTTP 1.1** bilan parallel ravishda o'sib kelmoqda. Chunki ikkalasining ham asosini **HTTP 1.0** tashkil etadi.

**REST** yordamida veb servislar yaratish davomida boshqa termin ya'ni **RESTful** qo'llaniladi.

**REST**ning afzalliklari:

- Har bir resurs **URL** bo'yicha aniqlanadi. Bu esa **URL** har bir resurs uchun kalit vazifasini o'tashini anglatadi.
- Resurs ustidan boshqaruv yoki ularni nazorati to'liq ravishda ma'lumotlarni uzatish protokoli yordamida amalga oshiriladi. Eng keng tarqalgan protokollardan biri bu albatta - **HTTP**.
- Komponentlarning portativligi.
- Yangilanish yoki yangi zamon talablariga mos ravishda tez va oson o'zgarish xususiyatiga ega.
- O'zgartirish kiritish o'ta yengil.
- Interfeys soddaligi.


**REST**da request & response Json formatda yetkaziladi.

```
GET: https://api.twitter.com/1.1/account/settings.json
{
  "errors": [
    {
      "code": 215,
      "message": "Bad Authentication data."
    }
  ]
}
```

"<https://api.twitter.com/1.1/account/settings.json>" bo'yicha so'rov yuborganimizda server yuqoridagi **responseni** qaytardi. Ya'ni biz **twitterga** avtorizatsiya bo'lmaganmiz :) Shuning uchun server bizga **settingsga** oid ma'lumotni qaytara olmaydi.

**STATUS**bu HTTP status kodi. (200-OK , 404-Not Found ...)

**MESSAGE**esa bu response xabari. ("Not Found" , "Bad Request")



Agar e'tibor bergan bo'lsangiz , **iT** sohasida bo'sh ish o'rinlarini taklif qiluvchi vakansiyalarda *"restful API bilan ishlash ko'nikmasi"* ko'plab vakansiyalarda takrorlangan\* Bu degani siz xoh frontend , android , ios va hk. dasturchi bo'ling **API** bilan ishlashni bilishingiz muhim.

\*Опыт проектирования и поддержки клиент-серверного **API**, Понимание **RESTful** API , Опыт работы с протоколами **REST/JSON API**, **RESTful API** и HTTP/S va shunga o'xshash talablar.

## API endpoint hamda route haqida

| persons Operations about users of the system |                                                                                                                                                                       |
|----------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| POST                                         | /persons Create a new user in the database. (Note: JSON representation of a new user's data should be contained in the body.)                                         |
| GET                                          | /persons/ Return a list of all users in the database.                                                                                                                 |
| GET                                          | /persons/{username} Return a user by supplying a unique user name.                                                                                                    |
| PUT                                          | /persons/{username} Update an existing user in the database. (Note: the JSON representation of the user should be supplied in the body along with the user's user id) |
| DELETE                                       | /persons/{username} Delete an existing user whos unique username is supplied.                                                                                         |

- **Route** (yoki marshrut ) - bu **API**ning qandaydur qismi nima ish bajarishiga ishora qilib turuvchi nom. Boshqacha qilib aytganda sizning so'rovingiz yuborilayotgan manzil marshrut deb ataladi. Unga HTTP metodlari bo'yicha so'rov yuboriladi. Bir route bir nechta **endpoint**larga ega bo'lishi mumkin.
- **Endpoint** ( yakuniy nuqta - **конечная точка** ) - bu marshrutga (route)ga alohida HTTP metodlari yordamida murojaat qilishdir. Har bir endpoint aniq bir masalani hal etadi va ular har bir klientdan (klient haqida o'tgan safargi maqolamda aytib o'tgan edim) parametr(sozlamalar)ni oladi so'ngra unga shu bo'yicha ma'lumotlarni yetkazadi.

Yuqoridagilar haqida tasavvurga ega bo'lish uchun quyidagi misolni ko'rib chiqamiz:

<http://example.com/api/v1/users/1>

`api/v1/users/1`- Bu marshrut (route) , `api/` esa rest API ga olib boruvchi standart yo'l.

Yuqoridagi marshrut 4 ta endpointga ega deb ayta olamiz:


- **GET** - bu metod bilan murojaat qilinganda **idsi** 1ga teng foydalanuvchi haqidagi ma'lumot server tomonidan bizga yuboriladi.
- **PUT / PATCH** - bu metod orqali biz so'rov yuboramiz. Ya'ni **idsi** 1ga teng foydalanuvchi haqidagi ma'lumotni yangilash uchun. So'rov `json` formatida yuborilishi mumkin.
- **POST** - bu metod orqali serverga yangi resurs qo'shiladi `./api/v1/users` ga bu metod bilan murojaat qilinganda yangi foydalanuvchi qo'shish mumkin.
- **DELETE** - bu metod vazifasi nomidan ma'lum. Foydalanuvchi haqidagi ma'lumotni serverdan o'chiradi.

|    | Metod            | URL                         | Vazifasi                                                         |
|----|------------------|-----------------------------|------------------------------------------------------------------|
| 1. | <b>GET</b>       | <code>api/v1/users/</code>  | Barcha foydalanuvchilar kolleksiyasi.                            |
| 2. | <b>GET</b>       | <code>api/v1/users/1</code> | Alohida resursga ega bo'lish uchun ( <b>idsi</b> 1ga teng user). |
| 3. | <b>POST</b>      | <code>api/v1/users/</code>  | Yangi foydalanuvchi qo'shish.                                    |
| 4. | <b>DELETE</b>    | <code>api/v1/users/1</code> | <b>idsi</b> 1ga teng userni o'chirish.                           |
| 5. | <b>PUT/PATCH</b> | <code>api/v1/users/1</code> | <b>idsi</b> 1ga teng user ma'lumotlarini yangilash.              |

Boshqa dasturlash tillariga nisbatan **python**da ko'proq kod yozaman. Balkim shuning uchundur u menga ko'proq yoqadi hamda qulay. Maqolam davomida esa **python** dasturlash tilida **API** yaratish imkonini beruvchi freymvorklarni keltirib o'tmoqchiman.



## API qo'llanmasi (API documentation)



Har bir **API** : qo'llanmaga (boshqacha qilib aytganda documentationga) ega bo'lishi shart. **Buning nima ahamiyati bor?** - qo'llanmada sizning **API**ingiz qanday va nima vaziyatda qo'llanilishi , barcha **endpoinlar** hamda **rourelarga** yuboriladigan so'rovlar va ularning vazifasi to'liq yoritilgan bo'ladi(ko'p hollarda so'rovlar oldindan tayyorlab qo'yilgan bo'ladi). Bu esa siz o'z **API**ingizni **public API**ko'rinishida namoyish etishingizda katta rol o'ynaydi. Hozirda ko'plab freymvorklar xususan: **Django-rest-framework** hamda **FastAPI** sizning **API**ingiz uchun qo'llanmani o'zi avtomatik tarzda generatsiya qilib beradi.

**Tavsiya etilgan:** Barchamizga tanish **Click**

**UZ**ning **API** qo'llanmasi: <https://docs.click.uz/click-api-request/> barchasi to'liq yoritilgan.

## Pythonda API yaratish imkoniyatini beruvchi freymvorklar

### FastAPI



Bu freymvork oxirgi vaqtlarda o'zimga ham juda ma'qul keldi. Chunki unda API yaratish boshqalariga nisbatan tezroq (nomi bilan **FAST !!!**). Bu freymvorkni yuqori tezlikga ega **HTTP API** serverlarni yaratishda qo'llashyapdi. Bu freymvork **Starlette** asosida qurilgan , validatsiyaga esa **Pydantic** javob beradi. Umuman olganda bu freymvorkni har bir python dasturchi ishlatib ko'rishi zarur. **FastAPI** Python dasturlash tilidagi eng tez backend freymvorklar qatoriga kiradi.(Dj angodan tez)

*P.S **FastAPI** mikrofreymvorklar sirasiga kiradi.*

Men oxirgi kunlarda FastAPI ishlatib kelmoqdaman. Ayni damda jamoamiz bilan birgalikda **Microsoftdagi ML servislari** FastAPIdan foydalanishni reja qilib kelmoqdamiz. **Windows** hamda **Ofis** mahsulotlarimizni ham u bilan integratsiya qilish rejamizda bor.

Kabir Khan - **Microsoft**

Foydali havola: <https://fastapi.tiangolo.com/>

## Flask

*Mikrofreymvork*



**Flask** - Python dasturchilar orasida juda ham ommabop bo'lgan freymvork. Githubda 50000dan ortiq "**star**"lari mavjud. Bu fremvorkdan python dasturlash tilida veb ilovalar qurishda keng qo'llaniladi.

So'ngi yillarda **Flask** ko'p yangilandi va juda qulay o'zgartirishlar kiritildi. Bu o'zgarishlar sabab biz uni full stack freymvork deb atashimiz ham mumkin. Uning minimalistikligi ya'ni veb ilovalar qurilishi soddaligi dasturchilar uchun aynan muddao. Maqolam davomida **Python** dasturlash tilidagi **API**ni aynan Flaskda yaratamiz!

Foydali havola: <https://flask.palletsprojects.com/en/1.1.x/>

# Django

*Full stack freymvork.*



**Django** - Python dasturlash tilida yaratilgan Full Stack veb freymvork. Imkoniyatli juda ham ko'p , hamda boshqa freymvorklarga nisbatan qulayroq. Ushbu freymvorkni maqolamga bog'laydigan bo'lsak , bu borada Django ancha yetakchi! Django bazasida ishlab chiqilgan **Django REST** freymvorki mavjud. Unda asosan **RESTful API**lar quriladi va bu borada ancha loyihalar amalga oshgan.

Bu borada qiziqishingiz yuqori bo'lsa izohlarda qoldiring , albatta inobatga olaman.

## Foydali havolalar:

**Django Rest Framework** - <https://github.com/encode/django-rest-framework>

**Django** - <https://github.com/django/django>

Maqolamning amaliy qismiga o'tish vaqti keldi :)

# API yaratamiz !

Muhitni sozlaymiz.



Buning uchun sizga quyidagilar zarur bo'ladi:

- Kod muharrir (men **visual studio codeni** ishlataman)
- **Postman** - **API** testing uchun ya'ni so'rovlar yuborish uchun. **CURL**ga nisbatan ancha qulay.
- Kompyuteringizga **Python** interpretatori o'rnatilgan bo'lishi lozim.

Yuqoridagilarda sizda kamchilik mavjud bo'lsa quyidagi [community.uzbekcoders.uz](https://community.uzbekcoders.uz)da chop etilgan maqolani o'qing:

## Python dasturlarni ishga tushirish.

Kompyuteringizda bo'sh papka hosil qiling va istalgan nom bilan python fayli yarating(**app.py**).

```
$ mkdir project  
$ touch app.py  
$ code .
```

Endi esa kerakli kutubxonani o'rnatishimiz lozim:

```
$ pip install Flask
```

Muhit sozlandi, endi esa kod yozamiz.

**Foydali havola:** <https://pypi.org/project/Flask/>

## Boshlang'ich kodlarni kiritamiz

Kutubxonadan zarur bo'lgan class, funksiya va hk.larni import qilamiz:

```
from flask import Flask,request,jsonify
```

- **Flask** - bu haqida bilib oldingiz.
- **Request**- so'rovlar bilan ishlash uchun o'ta muhim.
- **Jsonify** - \*.json formatdagi ma'lumotlar bilan ishlash uchun.

Endi esa **Flask** freymvorkidagi birinchi ilovangiz kodini kiritamiz:

```
from flask import Flask,request,jsonify
```

```
app = Flask(__name__)

@app.route('/')
def api_route():
    return "Hello World"

if __name__ == "__main__":
    app.run(debug=True)
```

`app = Flask(__name__)` **Flask**dan ekzemplar olgan holda , yangi flask ilova yaratadi hamda uni `app` deb nomlaydi.

`@app.route` -bu esa dekorator. Python dasturlash tilida dekorator tushunchasi mavjud.

Route haqida yuqorida aytib o'tganman , '/' bo'yicha o'tganimizda `api_route()` funksiyasi ishga tushadi. Ya'ni **Hello World** yozuvi chop etiladi. So'ngi qatordagi kod ilova ishga tushganda qanday funksiya bajarilishini ham aniqlab beradi. Bizda esa python fayl tushganda ilova **debug rejimda** ishga tushishi lozim.

```
$ python app.py
```

Endi esa <http://127.0.0.1:5000/> bo'yicha o'tib natijada guvoh bo'ling.

**Biz yaratmoqchi bo'lgan API nima vazifani bajaradi?** Bizning API asosan dasturlash tillariga oid ma'lumotlar bilan bog'liq. Har bir dasturlash tilida o'zi **id** siga ega. API yordamida ular haqida ma'lumotga ega bo'lish , yangisini qo'shish , mavjud bo'lganini yangilash va o'chirish mumkin. Qisqa qilib aytganda sodda **restful api**. Maqolamda **API** yaratish davomida ma'lumotlar omboridan foydalanmay turamiz. Sababi , ma'lumot omborini modelashtirish ham alohida katta mavzu. Ma'lumotlarni shunchaki kodning o'zida saqlab ketamiz:

```
languages = [...]
```

## Kodning asosiy qismlarini yozamiz

Dasturlash tillariga oid ma'lumotlarni saqlaymiz:

```
languages = [
    {
        "id":0,
        "author": "Bjarne Stroustrup",
        "language": "C++"
    },
    {
        "id":1,
        "author": "Rasmus Lerdorf",
        "language": "PHP"
    },
    {
        "id":2,
        "author": "Dennis Ritchie",
        "language": "C"
    }
]
```

Endi esa yangi **route** yaratamiz. U orqali barcha dasturlash tillari(resurs) haqidagi ma'lumotni olish hamda serverga biror bir resurs joylash mumkin:

```
@app.route('/languages', methods = ['GET', 'POST'])
```

```
def get_or_post():
    if request.method == 'GET':
        if len(languages) > 0:
            return jsonify(languages)
        else:
            return jsonify({"Resurslar mavjud emas": True})
```

`/languages` ga faqatgina **GET** hamda **POST** metodi bilan murojaat qilish mumkin. Agar request metodi **GET**ga teng bo'lsa quyidagi funksiya bajariladi:

- `languages` ya'ni ma'lumotlar soni tekshiriladi, agar ma'lumotlar soni 0dan katta bo'lsa ularning barchasi json formatda chop etiladi (`return jsonify(languages)`)
- `languages` da ma'lumot mavjud bo'lmasa, shunchaki json formatda sodda response qaytaramiz. `Resurslar mavjud emas = Rost` qiymatini oladi.

**GET** metodi bilan bog'liq vaziyatni hal etdik. Endi esa foydalanuvchi biror bir resursni joylay olishi kerak:

```
if request.method == 'POST':
    iD = languages[-1]['id']+1
    new_obj = {
        'id': iD,
        'author': request.json['author'],
        'language': request.json['language'],
    }

    languages.append(new_obj)

    return jsonify(languages)
```

Agar request metodi **POST**ga teng bo'lsa quyidagi funksiya bajariladi:

- Yangi obyekt **idsi** - `languages` dagi so'ngi obyektning **idsidan** 1 taga ortiq bo'ladi (`iD = languages[-1]['id']+1`)

Yangi obyekt yaratamiz va u quyidagi qiymatlarga ega:

- Yangi obyekt **idsi** yuqoridagi **iD** ning qiymatiga teng.
- `'author'` ya'ni dasturlash tili muallifi esa biz json formatda yuborgan so'rovda `author` ning qiymatiga teng. `request.json['author']` - bu esa aynan muddao (so'rovdan kelgan **author** ning qiymatini saralab oladi).
- `'language'` da ham yuqoridagi vaziyat.

So'ngra biz yaratgan obyektни `languages` ga qo'shib qo'yamiz (`languages.append(new_obj)`) va **API** foydalanuvchisiga json formatda barcha ma'lumotlarni qaytaramiz.

Python dasturlash tilida yuqorida darajalik bo'lganligi uchun inson tiliga biroz yaqin hamda uni o'qib berish juda oson.

Bir **route** uchun yozilgan umumiy kodimiz (**GET** bilan **POST** ni o'z ichiga olgan):

```
@app.route('/languages', methods = ['GET', 'POST'])
def get_or_post():
    if request.method == 'GET':
        if len(languages) > 0:
            return jsonify(languages)
        else:
            return jsonify({"Resurslar mavjud emas": True})

    if request.method == 'POST':
        iD = languages[-1]['id']+1
```

```

new_obj = {
    'id': id,
    'author': request.json['author'],
    'language': request.json['language'],
}


languages.append(new_obj)

return jsonify(languages)

```

Backend dasturlashda **API testing** tushunchasi bor. Bunda siz yozgan **API** maxsus instrumentlar orqali sinovdan o'tkaziladi. Men bu jarayonda **Postman**dan foydalanaman.


Keling yuqoridagi kodni qanday natija berishini sinab ko'rsak:



## GET ALL

<http://127.0.0.1:5000/languages>ga **Get** metodi orqali so'rov yubordik hamda rasmdagidek ma'lumotlarga ega bo'ldik.





## POST

<http://127.0.0.1:5000/languages>ga **Post** metodi(hamda json formatdagi ma'lumot. Python dasturlash tili haqidagi ma'lumot) orqali murojaat qildik hamda rasmdagidek o'zimiz yo'llagan ma'lumot bilan barcha ma'lumotlarga ega bo'ldik(kodimizda aynan shu narsalar yozilgan edi).

*Xo'sh , yuqoridagi yozganlarimiz amalga oshdi. Endi esa ma'lumotni yangilash hamda o'chirish funksiyalarini yozish qoldi xolos.*

*Eslatib o'taman, bu veb ilovada funksiya nomi unikal bo'lishi lozim.*

Yangi route yaratamiz hamda unga murojaat qilish mumkin bo'lgan metodlarni keltiramiz:

```
@app.route('/language/<int:id>', methods=['GET', 'PUT', 'DELETE'])
def put_or_delete(id):
    if request.method == 'GET':
        for language in languages:
            if language['id'] == id:
                return jsonify(language)

    if request.method == 'PUT':
        for language in languages:
            if language['id'] == id:
                language['author'] = request.json['author']
                language['language'] = request.json['language']

                updated_language = {
                    'id': id,
                    'author': language['author'],
                    'language': language['language'],
                }

                return jsonify(updated_language)

    if request.method == 'DELETE':
        for index, language in enumerate(languages):
            if language['id'] == id:
```


```
languages.pop(index)
return jsonify(languages)
```

Bu routega esa alohida **id** orqali murojaat qilinadi. Shuning uchun

route: `/language/<int:id>`kabi berilgan. `<int:id>` ya'ni **id** har doim son bo'lishi lozim. Alohida route bilan berilishining sababi: biz bu yerda bajarayotgan funksiyalarimiz alohida bir obyekt uchundir ya'ni u haqida alohida ma'lumotga ega bo'lishimiz, uni yangilashimiz va o'chirishimiz kabi funksiyalar. Har bir funksiyani tahlil qilib chiqsak:


- **GET**- alohida obyekt haqidagi ma'lumotni qaytaradi. Funksiya juda oddiy, **id** hamda **GET** metodi orqali murojaat qilinganda `languages` ya'ni ma'lumotlar ichidan mos keluvchi **id**ni izlaydi. Har bir elementni `language` deb belgilab oladi. Agarda `languages` dan olingan `language` ning **idsi** murojaat qilingan **id** ga teng bo'lsa: u haqida ma'lumotni **json** formatda qaytariladi.
- **PUT** - alohida obyektни yangilashimiz zarur. Bunda **PUT** metodi hamda **json** formatdagi ma'lumot bilan so'rov yo'llaniladi (ma'lum bir **id** ga). Funksiya yuqoridagidek **id** lar mosligini tekshiradi, agar moslik mavjud bo'lsa: `request(so'rov)` orqali kelgan ma'lumotlarni avvalgi ma'lumotlarga tenglashtirish orqali ma'lumotni yangilaymiz. `language['author']` bu bizda avval mavjud bo'lgan ma'lumot biz esa uni `request.json['author']` ya'ni **request** dan kelgan ma'lumot bilan tenglashtiryapmiz. Barcha tenglashtirishlardan so'ng `updated_language` nomli obyekt yaratib uni **json** formatida chop etamiz.
- **DELETE** - alohida obyektни o'chiramiz. Agar **DELETE** metodi bilan ma'lum bir obyektga qarata murojaat qilinsa quyidagi funksiya bajariladi: sodda qilib aytganda `enumerate` orqali `languages` dagi ma'lumotlarni raqamlab chiqamiz (**Foydali havola:** <https://www.geeksforgeeks.org/enumerate-in-python/>). **For** tsikli orqali `language` hamda `index` o'zgaruvchilarining qiymatlariga ega bo'lamiz. Yana `language` ning **idsi** yuborilgan so'rovdagi **id** bilan mosligini tekshiramiz. So'ngra `pop()` metodi **index** nomlik argument oladi hamda listdagi ma'lum elementni o'chiradi( [https://www.w3schools.com/python/ref\\_list\\_pop.asp](https://www.w3schools.com/python/ref_list_pop.asp) ). Oxirida esa funksiyamiz barcha mavjud ma'lumotlarni **json** formatda qaytaradi.

Endi esa barcha yozganlarimizni birma-bir tekshirib chiqsak:




GET smth (single)

idsi 1ga teng obyekt uchun so'rov yubordik hamda idsi 1ga teng bo'lgan **PHP** obyektiga ega bo'ldik.



PUT smth

idsi 3ga teng bo'lgan Python nomli obyektни yangiladik. Avvalgi ma'lumot "Python" edi. Endi esa "Python Programming Language" ga o'zgardi xolos. **PUT** metodi orqali `languages/3` ga murojaat yo'lladik , response sifatida yangilangan ma'lumotni oldik.



## DELETE smth

